- sportshılarda jawıngerlik sapaların tárbiyalaw
- jarıslarda organizimniń imkaniyatlarınan tolıq paydalanıw dárejesin asırıw;
- sportshılardıń salamatlıǵın bekkemlew, funkcionál imkaniyatları asırıw;
- shidamlılıq, tezlik, iyiliwshenlik sapaların jetilistiriw;
- erkin gúres texnikasın jetilistiriw;
- taktikalıq sheberlikdi iyelew;
- sportshılardıń óz-ózin qadaǵalawda gigiena, kún tártibinde awqatlanıwda zárur bilimderi iyelew;
- Sport trenirovka processı eń joqarı nátiyjelerge erisiwge

qaratılğan. Bunday nátiyjelerge sportshı kerekli dárejede sport trenerovkalarınń teóriyalıq hám ámeliy bólimlerin puxta iyelegenligi, taktikalıq jaqsı tayarlanganlıǵı, joqarı ádep-ikramlıq sıpatların kórsete alıwı hám sport trenerovkası teóriyasın tereń ózlestirgen bolsa. Usı talaplarǵa kóre gúresshi sportshı trenerovka shınıǵıwların tómendegi tayarlıq túrlerine shártli ráwishte bolıwı mumkin; teóriyalıq, fizikalıq, ádep-ikramlıq hám erik, texnika hám taktikalıq, ruwxıy jaqtan.

Erkin gúres xalqımızǵa jaqın jeke gúres túrleri bolıp, xalqımızdın rawajlanıw tárixındaǵı ázel-ázelden keń jaylawlardaǵı jasap ótken qáwimler múnásabetleri tariyxına tuwrı keledi hám milliy gúres túrlerine tiykarlanadı [3:20].

Erkin gúres sport sport túrinde texnik-taktik hárketler nátiyjeliligin asırıw texnologiyasını islep shıǵıw hámde tájriybeli erkin gúresshilerdın koordinaciyalıq qábiletlerin rawajlandırıw hám texnik-taktik hárketi nátiyjeliligin asırıwǵa qaratılğan arawlı jıllıq cıkl boyınsha rejelestiredi [4:24].

Teóriyalıq tayarlıq - sportshınıń ulıwma hám arawlı bilimlerin iyelewge qaratılğan boladı.

Fizikalıq tayarlıq - gúresshiniń hárket qábiletlerin hám organizimniń funkcionál imkaniyatların keńeytiriwge hámde onıń fizikalıq rawajlanıw dárejesin asırıwǵa qaratıladı. Fizikalıq sapalardı nátiyjeli rawajlanıwın támiyinlep beredi.

Texnikalıq tayarlıq- kóp muǵdardaǵı ápiwayı hám quramalı hárketlerdi jetilistiriwge, hár bir usıldı ózine tán hárketlerdi anıqlaw hám oǵan islew beriw.

Taktikalıq tayarlıq qarsılas penen gúres alıp barıw processinde hár túrlı usıllardı islew, joqarı nátiyjelerge erisiw ushın gúres barısında kúshli durıs bólistire alıwı jolǵa qoyıwǵa járdemesiw.

Ádep-ikramlıq hám erk tayarlıǵı. Sportshılardı ana watang bolǵan muxabbat, sadıqlıq ruwxında tárbiyalawǵa hámde erk sapaların tárbiyalawǵa yaǵnıy, batırılıq, qatnılıq, jeńis bolǵan isenim, qıynshılıqlardı jeńiwge járdemesedi.

Házirgi zamanda sportshılardı tayarlaw tártibinde erkin gúres sportında joqarı nátiyjelerge, maqsetke muwapıq baǵdarlanılǵan hám bir-birine baylanıslı 3 bólimnen ibarat.

1) Sport trenerovkası. Dene sapaları hám qábiletlerin rawajlandırıw maqsetinde anıq bulshıq etler iskerliginde nátiyjelerge erisiw dárejesin kórsetip beriwı túsiniledi.

2) Jaris kalendari. Hár túrlı kólemdegi jarislar tártipke salıw názerde tutıladı. Trenerovka processin rejelestiriwde eń iri jarislar sheshiwshi áhmiyetke iye.

3) Qosımsha faktorlar. Ulıwma kún tártibi hám jasaw sharayatı, trenerovka shınıǵıwları processin shólkemlestiriw hám materiallıq texnikalıq tiykarları, madicinalıq hám ilimiy metodikalıq támiynat, awqatlanıw, trener-oqıtıwshılardı arawlı bilim hám pedagogikalıq sheberlikler kiredi.

Trenerovka wazıypaların sheshiwde tek anıq 5 usıldı qollanbastan olardı óz ara baylanıstırǵan halda qollanıw zárur, sebebi sportshı organizmi kóp márte qaytalanatın hár túrlı sırtqı tásirlerge hám júkemeler rejimine ádette tez kónligedi hám maslasadı. Maslasıwdan soń bunday tásirler sportshı ushın kúndelikli jaǵday bolıp qaladı, qızıǵıwshılıq

páseyedi. Sebebi, bir qıylı trenerovka usılın qollanıwda bunday jaǵdaylarǵa alıp keledi. Bul usıllardı qollanıwda baslaǵanda aldın organizimde joqarı reakciyanı keltirip shıǵaradı. Sportshı bir qatar obektiv qıynshılıqlardı bastan keshiredi, olarǵa kónligip baradı hám bul qıynshılıqlar jenip shıǵadı. Sonıń menen birge shınıǵıwların nátiyjeliligi de tómendeydi. Sonıń ushın trenerler sportshılardı funkcionál imkaniyatların jetilistiriw processin jedellestiriw maqsetinde kombinaciyalasqan trenerovka usılların qollanadı.

Trenerovka shınıǵıwları processin rejelestiriw hám basqarıwda sport texnikası hám taktikasın qadaǵalaw áhmiyetli bolıp tabıladı. Keń tarqalǵan pikirlerge qaraǵanda erkin gúres sportında joqarı nátiyjelerge erisiwde tiykarǵı baǵdar sportshılardıń texnikalıq, taktikalıq, fizikalıq, psixologiyalıq, teóriyalıq tayarlıǵına qaratıladı.

Sport sheberligin asırıwda gúresshi hám trenerde soraw payda boladı, yaǵnıy sport nátiyjesin kóteri wshın qanday usıllardan paydalanıw kerek. Bunda gúres usılları, hárketler sanınıń kóbeytiriliwı yaǵı hárketler tempin asırıw.

Tezlikti asırıwda tiykarǵı shártlerinen biri bolıp usıllar dın isleniw tezligin anıqlap hám olardıń nátiyjeligi dawamlılıǵın saqlap qalıw bolıp esaplanadı.

Gúrestin fizikalıq tayarlıǵı salamatlandırıwshı dene mádeniyatı hámde gúrestin texnikası hám taktikasın úyreniw menen birgelikte ótkiziledi. Shuǵıllanıw dáwiriniń bul tárepleri birgelikte ámelge asırıladı hám biri ekinshisin támiyinleydi.

Hár bir sport túrinde hárketleniwshı hárketlerdın ózine say qásiyetleri bar. Olar bul sport turiniń maqsetine baǵdarlanganlıǵı, sırtqı shártleri hám jaris qaǵıydaları menen belgilenedi. Sonlıqtan, anıq sport hárketi qanday dúzilgenligi hám ámelge asırılıwın túsiniw, onıń ózlestiriliwı haqqında tuwrı qarar qabil etiw mumkin, sol qatarda fizikalıq tayarlıq quralı járdeminde.

Bársheimizge belgili, fizikalıq qásiyetler tábiyiy tárizde óz-ara baylanıslı; birewiniń ózlestiriliwı ekinshisinıń jarıtılıp shıǵıwına kómeklesedi. Bir fizikalıq qásiyetlerdi gúresshi ushın jetekshi usıl dep ajratıp qoyıw qıyn másele. Biraq, sport gúresiniń zamanagóy tendensiyaların esapqa alǵan halda aytıwımız mumkin, házirgi waqıtta sportshınıń kúsh shıdamlıǵına eń joqarı talaplar qoyılıp atır.

Gúresshi ushın ulıwma fizikalıq tayarlıq quralların tańlawda tómendegi áhmiyetli qaǵıydalardı esapqa alıw zárur;

-shınıǵıwlar gúresshi arawlı sıpatların rawajlandırıwǵa járdem beriwı kerek. Maselen, jekpe-jek gúresiw elementleri bolǵan bazı bir akrobatikalıq shınıǵıwlar menen qarsılıq kórsetilgen halda jup-jup bolıp islenetuǵın shınıǵıwlar hám basqalar.

-shınıǵıwlar hárket koordinatsiyasınıń rawajlanıwı hám sportshınıń ózgeriwshen har qıylı hárket usılları menen bayıtılıwı kerek. Maselen, sport oynları basketbol, gimnastika hám taǵı basqalar.

-shınıǵıwlar sportshınıń basqa hárket hám oraylıq nerv sistemasınıń islewiniń tezlew tikleniwine xızmet qılıwı kerek. Bularǵa, krosslar, sayaxatlar, hárketli oynlar, júziw, júriw hám ashıq hawada ózgeshe sharayatlarda ótkiziletuǵın basqa oynlar kiredi. (A.K.Atoev) [5:46-47].

Ádebiyatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5368-sonli farmoni.
2. Филин В.П., Фомин Н.А. "Основы юношеского спорта" –Москва: 1980. –С.255.
3. Арсланов К.П. "Кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси". – Бухора: 2020.
4. Адиллов С. Эркин кураш спортчиларининг координацион қобилиятларини ривожлантириш ва техник-тактик ҳаракатлари самарадорлигини ошириш технологияси. -Чирчик: 2020, 24-б.
5. Arslanov Q.P "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi"-Buxoro: 2020. 46-57-b.

РЕЗЮМЕ. Maqolada sportchilarning anatomik xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda erkin kurashda sportni rejalashtirish, yosh sportchilarni tanlash, texnik-taktik tayyorgarlik, erkin kurashga yo'naltirish tushunchalari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье описаны концепции спортивного планирования вольной борьбы, отбора юных спортсменов, технико-тактической подготовки, ориентации на занятия вольной борьбой с учетом анатомических особенностей и физиологических возможностей спортсменов.

SUMMARY. The article describes the concepts of sports planning in freestyle wrestling, selection of young athletes, technical and tactical training, orientation to freestyle wrestling, taking into account the anatomical features and physiological capabilities of athletes.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Ғ.Н.Эрназаров – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Фаргона давлат университети

Таянч сўзлар: жисмоний кўрсаткичлар, жисмоний тайёргарлик, чидамкорлик, жисмоний сифатлар, педагогик тажриба, соғлом авлод, иммунитет тизими, ҳаракат фаолияти, адекват мазмун.

Ключевые слова: физическая работоспособность, физическая подготовленность, выносливость, физические качества, педагогический опыт, здоровое поколение, иммунная система, двигательная активность, адекватное содержание.

Key words: physical performance, physical fitness, endurance, physical qualities, pedagogical experience, healthy generation, immune system, physical activity, adequate content.

Мавзунинг долзарблиги. Хозирги кунда дунёнинг кўпгина мамлакатларида соғлом авлодни тарбиялаш, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш ҳамда аҳоли саломатлигини яхшилаш масалалари устувор йўналишлардан бири бўлиб қолмоқда. Бутун ер юзида кечаётган мураккаб жараёнлар инсонлар организмининг таъки муҳитда бўлаётган ўзгаришларга тайёрлаш билан бир қаторда организмнинг иммунитет тизимини мустаҳкамлаш учун аҳолининг барча қатламлари, хусусан талабаларнинг жисмоний ҳаракатга бўлган фаоллигини ошириш талабини қўймоқда [1]. Олий таълим тизимида жисмоний тарбия машғулотларини индивидуallashtiriш ёндашувлардан фойдаланишнинг аҳамиятини ошириш йўллари аниқлаш билан боғлиқ умумий муаммоларни ҳал қилиш юзасидан олиб борилаётган ишлар асосида болалар ва ёш шугулланувчиларнинг жисмоний тайёргарлиги амалиётида бир қатор айланма машғулотлар усуллари қўлланилиб келинмоқда [2].

Олий таълим муассасаларида тахсил олаётган талабаларнинг таълим жараёнида инновацион таълим технологияларини ташкил этувчи баъзи компонентлар, яъни ўқув жараёни талабалар тайёргарлигини ҳисобга олган ҳолда ташкил этиш, натижаларни олиш ва назорат қилиш юзасидан кўплаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган [3]. Талабалар организми морфофункционал хусусиятларини инobatта олган ҳолда замонавий воситаларни қўллаш асосида, уларнинг жисмоний тайёргарлигини ошириш муаммоларига бағишланган тадқиқотлар етарлича амалга оширилмаган [4].

Жисмоний тарбия жараёни аънавий ташкил қилишда айланма машқлар мажмуасига етарлича эътибор қаратилмаса, табақалаштирилган ёндашувда қарама-қарши ҳолатлар кузатилади [5]. Шу сабаб, бир қатор тадқиқотлар амалга оширилганлигига қарамай, қўтилган натижага ҳали эришилмаган. Аниқланган қарама-қаршиликларнинг назарий ва амалий ҳал этилиши педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг жисмоний сифатларини, улар организмни ривожланишини индивидуал хусусиятлари ва ҳаракат фаоллигини адекват мазмунини инobatта олган ҳолда такомиллаштирилган айланма машғулот усулини қўллаш асосида ривожлантиришнинг услубиятига оид кўшимча илмий, илмий-услубий ишланмаларни тайёрлашни талаб этади [6].

Тадқиқот объекти: Олий ўқув юртлари талабаларининг жисмоний тарбия жараёни.

Тадқиқот предмети: Олий ўқув юртлари талабаларининг жисмоний сифатлари.

Тадқиқот мақсади: Олий ўқув юртлари талабаларининг жисмоний чидамкорлик сифатларини ўрганиш.

Мақсадга мувофиқ ҳолда тадқиқотни вазибалари қилиб, олий таълим муассасалари талабаларининг жисмоний сифатларини ривожлантириш машғулотларига ва спортга қизиқишлари, чидамкорлик жисмоний сифатларини аниқлаш белгилаб олинди.

Тадқиқотни ташкил қилиш: тадқиқотлар Фарғона давлат университетида ўтказилди, унда 17-21 ёшдаги жами 236 нафар 1-2- босқич талабалари иштирок этди. Университети талабаларнинг жисмоний

сифатларни яхшилаш бўйича тажриба тадқиқотлари ташкил этилди. Тажриба ишлари талабаларнинг жисмоний маданият дарсларида, турли даражадаги жисмоний сифатларга эга бўлган талабаларнинг ўқув машғулотларида уч ойдан икки босқичга бўлиб олиб борилди. Ўқув йили бошида талабаларнинг жисмоний сифатларининг ривожланганлик ҳолатини билиш мақсадида назорат тестларни ўтказилди. Ундан жисмоний сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган назорат машқларидан олинган маълумотларга қараб олдинги тайёргарлигига нисбатан ўзгаришлар фарз қилинди. Шунинг учун ушбу тажриба ишлари айнан тажриба гуруҳидаги талабаларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришга йўналтирилган ва айланма машқлар машғулоти услубияти асосида режалаштирилди.

Шунингдек, тажриба учун Фарғона давлат университетининг жисмоний тарбия бўйича номутахассис факультетлари ҳисобланган талабалари танлаб олинди. Тажриба гуруҳига танлаб олинган умумий 161 нафар талабаларнинг 81 нафари қиз болалар, 80 нафари ўғил болаларни ташкил этди. Назорат гуруҳига эса жами 75 нафар талаба (37 нафар қиз бола, 38 нафар ўғил бола) танлаб олинди.

Тажриба тадқиқотдан олдин тажриба ва назорат гуруҳ талабаларнинг чидамкорлик сифати бўйича назорат тестларида кўрсатган кўрсаткичлар фарқи қуйидагича бўлди.

400 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба қизларда ўртача 2,11 дақиқани, назорат гуруҳи талаба қизларда ўртача 2,17 дақиқа (фарқи 0,06 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,15, P>0,05$. 800 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба қизларда ўртача 5,23 дақиқани, назорат гуруҳи талаба қизларда ўртача 5,11 дақиқа (фарқи 0,12 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,16, P>0,05$. 1000 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба қизларда ўртача 8,13 дақиқани, назорат гуруҳи талаба қизларда ўртача 8,23 дақиқа (фарқи 0,10 миллисекунд)ни ташкил этди $t=0,54, P>0,05$.

800 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 3,45 дақиқани, назорат гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 3,57 дақиқа (фарқи 0,12 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,49, P>0,05$. 1500 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 7,31 дақиқани, назорат гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 7,23 дақиқа (фарқи 0,08 миллисекунд)ни кўрсатди $t=0,56, P>0,05$. 3000 метрга югуриш тажриба гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 16,46 дақиқани, назорат гуруҳи талаба ўғил болаларда ўртача 16,22 дақиқа (фарқи 0,24 миллисекунд)ни ташкил этди $t=0,61, P>0,05$.

Талабалар организми ривожланганлигининг айланма машқлар усулини жорий қилиниши, машғулотларнинг асосий қисм вазибаларини ҳал қилиш жараёни 10-12 та станцияларни ўз ичига олган.

Талабалар билан педагогик тажрибани ўтказиш пайтида шахсий тана вазни, ҳар хил предметлар билан машқлар, жуфтликдаги машқлар кенг қўлланилди. Ҳар бир машғулотда талабаларнинг функционал ҳолати объектив ва субъектив кўрсаткичлари бўйича мониторинг қилинди.

Ўтказилган тадқиқотлардан сўнг тажриба гуруҳи талаба қизларларнинг чидамкорлик сифати бўйича тажриба

боши ва тажриба охиридаги кўрсаткичларда фарқи куйидагича бўлди.

400 метрга югуриш ўртача 2,11 дақиқани, тажриба охирида ўртача 1,98 дақиқа (фарқи 0,13 миллисекунд)ни ташкил этди $t=3,24$, $P<0,01$. 800 метрга югуриш ўртача 5,23 дақиқани, тажриба охирида ўртача 4,96 дақиқа (фарқи 0,27 миллисекунд)ни ташкил этди $t=3,27$, $P<0,01$. 1000 метрга югуриш ўртача 8,13 дақиқани, тажриба охирида ўртача 7,76 дақиқа (фарқи 0,37 миллисекунд)ни ташкил этди $t=2,59$, $P<0,05$.

Назорат гуруҳи талаба кизларини чидамкорлик сифати бўйича тажриба боши ва тажриба охиридаги кўрсатган фарқи куйидагича бўлди. 400 метрга югуриш ўртача 2,17 дақиқани, тажриба охирида ўртача 2,07 дақиқа (фарқи 0,1 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,75$, $P>0,05$. 800 метрга югуриш ўртача 5,11 дақиқани, тажриба охирида ўртача 4,81 дақиқа (фарқи 0,03 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,71$, $P>0,05$. 1000 метрга югуриш ўртача 8,23 дақиқани, тажриба охирида ўртача 7,90 дақиқа (фарқи 0,33 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,72$, $P>0,05$.

Тажриба гуруҳи ўғил болларнинг чидамкорлик сифати бўйича тажриба боши ва тажриба охиридаги кўрсаткичларда фарқи куйидагича бўлди.

800 метрга югуриш ўртача 3,45 дақиқани, тажриба охирида ўртача 3,20 дақиқа (фарқи 0,25 миллисекунд) ни ташкил этди $t=4,12$, $P<0,001$. 1500 метрга югуриш ўртача 7,31 дақиқани, тажриба охирида ўртача 6,93 дақиқа (фарқи 0,38 миллисекунд)ни кўрсатди $t=3,31$, $P<0,01$. 3000 метрга

югуриш ўртача 16,46 дақиқани, тажриба охирида ўртача 15,67 дақиқа (фарқи 0,79 миллисекунд)ни ташкил этди $t=2,53$, $P<0,05$.

Назорат гуруҳи ўғил болларнинг чидамкорлик сифати бўйича тажриба боши ва тажриба охиридаги кўрсаткичларда фарқи куйидагича бўлди. 800 метрга югуриш ўртача 3,57 дақиқани, тажриба охирида ўртача 3,38 дақиқа (фарқи 0,19 миллисекунд) ни ташкил этди $t=2,10$, $P<0,05$. 1500 метрга югуриш ўртача 7,23 дақиқани, тажриба охирида ўртача 6,94 дақиқа (фарқи 0,29 миллисекунд)ни кўрсатди $t=1,72$, $P>0,05$. 3000 метрга югуриш ўртача 16,22 дақиқани, тажриба охирида ўртача 15,48 дақиқа (фарқи 0,74 миллисекунд)ни ташкил этди $t=1,12$, $P>0,05$.

Хулоса

1. Олий таълим муассасалари талабаларида айланма машқлар усулига асосан чидамкорлик жисмоний сифатларининг ривожланганлигини инобатга олган ҳолда, ўқув жараёни дастурига киритиш тавсия қилинади. Бунинг ижобий натижа кўрсатиши педагогик тажрибада олинган кўрсаткичлардан ўз исботини топди.

2. Тадқиқот давомидаги назорат гуруҳи талабалари аънавий, яъни давлат дастури асосида ўқишни давом этирганда, олинган натижалар тажриба бошида ва тажриба якунидаги кўрсаткичлар солиштирилганда паст даражада ўсганлиги аниқланди.

Адабиётлар

1. Абдуллаев А.А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси дарслик (3 тўлдирилган нашр). 2021, 475-б.
2. Эрнazarов Г.Н. Attitude of a modern student to a walky lifestyle. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Volume 8, Number 8, 2020 Part II. Progressive Academic Publishing, P.183-187. [13.00.00 № 8].
3. Эрнazarов Г.Н. Талабаларнинг жисмоний маданияти кадрятларини ўрганиш. "Фан спортга" // "Илмий-назарий. – Чирчик: 2020, № 3. 66-68-б. [13.00.00 №3].
4. Uraimov S. R. Influence of the hypodynamic factor on the physical condition of students of the military-technical lyceum. //Science today: tasks and ways to solve them. 2019, T. 117.
5. Эрнazarов Г.Н. Талабалари жисмоний сифатларини кўрсаткичи. Eurasian journal of academic research. //Article info abstract to Received: 16th January 2023//Accepted: 25th January 2023 Online: 26th January. 2023g. Page 85-92.
6. Ernazarov G.N. Indicators of speed physical quality of students. science and innovation international scientific journal volume 2 issue 1 january 2023. uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 177-183-б.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада олий таълим муассасалари талабаларининг жисмоний тайёргарлиги яъни чидамкорлик жисмоний сифатларини тарбиялашда айланма машқлар усулидан фойдаланилиб олинган натижалар қайд этилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье зафиксированы результаты, полученные с помощью метода круговых упражнений в тренировке физической подготовленности студентов высших учебных заведений, физической выносливости.

SUMMARY. This article records the results obtained using the method of circular exercises in the training of physical fitness of students of higher educational institutions, physical endurance.

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО КАК ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ (из опыта работы кафедры русского языка и литературы НГПИ им. Ажинияза, часть 2)

А.А.Ходжаниязова – кандидат педагогических наук, доцент

Г.К.Генжебаева – старший преподаватель

Нукуский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: ҳамкорлик, хорижий ҳамкорлар, давлат стандарти, рейтинг агентлиги, инновацион фаолият, саммит.

Ключевые слова: сотрудничество, иностранные партнёры, государственный стандарт, рейтинговое агентство, инновационная деятельность, саммит.

Key words: cooperation, foreign partners, state standard, rating agency, innovation activity, summit.

Сегодня для нашей страны, стремящейся занять достойное место в мировом сообществе, трудно переопределить значение совершенного развития образования, науки и инновации, ведь народ наш видит свое великое будущее в согласии, сотрудничестве с иностранными партнёрами.

В настоящее время, в XXI веке, высокий уровень образования рассматривается как основа свободного светского, демократического общества и как фактор безопасности человечества. В этих условиях формируется концепция политики повышения качества образования развития научной и инновационной деятельности, философия качества в сфере образования, которая интерпретируется, с одной стороны, как «соответствие требованиям» (например, государственных стандартов), а с другой – как

«прибавление, приращение ценностей применительно к личностным способностям одаренных детей» [1].

Всем известно, что Евразийский национальный университет имени Л.Н.Гумилева считается вузом международного уровня и среди казахстанских вузов первым вошел в топ-500 лучших университетов мира по данным рейтингового агентства QS World Universities в 2010 году.

Кафедра тесно сотрудничает с кафедрой русской филологии Евразийского национального университета им Л.Н.Гумилева.

Согласно меморандуму, в целях расширения партнерских связей и развития международного сотрудничества, обмена опытом на кафедре русского языка и литературы — третий год приглашается для чтения лекций в институт доцент кафедры русской

филологии ЕНУ им. Л.Н.Гумилева А. Х.Хамидова.

Профессорско-преподавательский состав кафедры и студенты нашего отделения активно участвуют в различных Международных конкурсах, форумах, проектах и конференциях.

С 10 июня по 4 ноября 2022 года Институт русского языка Российского университета дружбы народов при поддержке фонда «Русский мир» провёл I Международную олимпиаду для иностранных студентов «Русский язык в профессии». Студенты 3 и 4 курсов по специальности «Русский язык и литература» Г.Жолдасбаева, Ш. Базарбаев, Н. Мынбаева, и Ф.Жумабаева успешно прошли 1 тур Олимпиады и показали высокие результаты.

В декабре 2022 года кафедра русского языка и литературы была соорганизатором Международной научной онлайн-конференции «Русский язык в поликультурной образовательной среде», организованной Волгоградским государственным социально-педагогическим университетом, где профессорско-преподавательский состав кафедры принял активное участие.

Студенты 4 курса по специальности: «Русский язык и литература» Кадрев Шорасул и Еркебаев Атабек участвовали в финале Международного конкурса «Очей очарование: русский язык как средство изображения архитектурных достопримечательностей России» среди иностранных студентов, изучающих русский язык, а также всех любителей русской культуры.

Конкурс состоялся 17–20 декабря 2022 г. в городе Нижний Тагил Российской Федерации. Условия конкурса были таковы:

Первый этап конкурса дистанционный - сочинение создается конкурсантами на русском языке в жанре заочной экскурсии, посвященной одной из архитектурных достопримечательностей России, которая заинтересовала конкурсанта своим внешним видом, значением для культуры и истории страны.

Состоялся второй, очный этап финального мероприятия — конкурс чтецов на русском языке «Очей очарование: русский язык как средство изображения архитектурных достопримечательностей России».

Наши студенты, Кадрев Шорасул был приглашен в качестве почетного члена жюри, а Еркебаев Атабек - конкурсantom в финале. По итогам выступления в финале Конкурса Еркебаев Атабек занял призовое 3 место и был награжден ценными призами, сертификатами и дипломами. На Конкурсе наш студент Еркебаев Атабек декламировал стихотворение «Владивосток» русской поэтессы Маргариты Алигер. Конкурс был реализован с использованием гранта Министерства Просвещения Российской Федерации.

Во исполнение Меморандума о взаимопонимании между НГПИ и КФУ студент 4 курса Кадрев Шорасул с руководителем нашего вуза, Б.П.Отемуратовым 12-19 ноября участвовал на Международном Саммите «Современная лингвистика от теории к практике», организованный Казанским федеральным университетом.

17 ноября 2022 года студенты Г.Жолдасбаева, Дж.Приоров, А.Еркебаев и Ш. Базарбаев во главе с руководителем Г.Генжебаевой участвовали в Международном форуме, посвященном дню Международного студента. Молодежь отстаивала честь нашего института. Студенты презентовали наш ВУЗ, рассказывали об истории праздника и участвовали в блиц-опросе. Форум был организован Кубанским государственным университетом.

С 8 по 29 ноября 2022 года по приглашению Казанского Федерального университета (Российская Федерация) преподаватель, ныне докторант кафедры А.Бимбетов успешно окончил курсы повышения

квалификации в данном вузе. На курсах повышения квалификации в Институте психологии и образования КФУ были рассмотрены компетенции в области проектирования и реализации научно-исследовательской, педагогической деятельности и публикационной научной активности Казанского университета. В реализации программы стажировки также приняли участие Институт международных отношений, Институт филологии и межкультурной коммуникации, Институт фундаментальной медицины и биологии КФУ, EduTech, Лицей им. Н.И.Лобачевского, детский сад «Мы вместе», Научная библиотека им. Н.И.Лобачевского и др. подразделения КФУ. В Институте психологии и образования КФУ преподавателем кафедры Русского языка и литературы А. Бимбетовым была прочитана лекция на тему: «Методы и методические приемы подготовки лекций в активной и интерактивной форме в обучении русскому языку» для студентов и преподавателей данного института. После окончания курсов повышения квалификации в КФУ состоялась торжественная церемония вручения дипломов о повышении квалификации при участии проректора по внешним связям КФУ Тимирхана Алишева, который подчеркнул значимость подобных программ для КФУ и НГПИ, России и Узбекистана, а также выразил надежду на продолжение сотрудничества в области науки и образования. *«Мы всегда открыты для сотрудничества с Республикой Узбекистан. Отрадно, что разворачивается совместная работа, организуются новые исследовательские проекты, объединяющие научные школы наших вузов», – подытожил Т.Алишев.*

Во исполнение договора о взаимосотрудничестве между двумя вузами: КазНПУ имени Абая и НГПИ имени Ажинияза с 11 по 19 декабря 2022 года преподаватели кафедры русского языка и литературы - заведующая кафедрой, доцент Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна и доцент Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна совершили рабочий визит в Казахский национальный педагогический университет имени Абая для ознакомления с учебным процессом, структурой работы кафедры русского языка и литературы и прочтения гостевых лекций по дисциплинам: Методика преподавания русского языка и литературы и Истории русской литературы XX века.

Кафедра русского языка и литературы Института филологии КазНПУ имени Абая является ровесницей университета. Она была создана в 1928 г.

Кафедра выпускает специалистов по 13 образовательным программам трех уровней: бакалавриат – магистратура – докторантура.

По рейтингу НААР 2022 года ОП бакалавриата «6B01702 - Русский язык и литература» и ОП магистратуры «7M01702 - Русский язык и литература» заняли 1-е место среди вузов республики. Специальность докторантуры «8D011800-Русский язык и литература» – 2-е место.

При кафедре функционирует диссертационный совет по защите докторских диссертаций PhD.

Развита проектная деятельность как внутриуниверситетская и на уровне республики, так и международная с Россией, Японией, Кореей, США, Польшей, Турцией.

Кафедра осуществляет тесные международные связи с ведущими научно-образовательными центрами стран СНГ (Россия, Украина, Беларусь, Киргизия, Узбекистан) и дальнего зарубежья (США, Великобритания, Германия, Польша, Эстония, Япония, Турция, Италия, Голландия, Финляндия, Испания, Израиль, Швейцария, Болгария). Преподаватели кафедры проходят научные стажировки в зарубежных вузах.

На кафедре развит институт визит-профессорства: ежегодно приезжают читать лекции ведущие ученые-филологи мира.

Во время визита преподавателям посчастливилось посетить литературный вечер «Солдат. Журналист. Писатель» в Специализированном лицее №165 г. Алматы, посвященный 100-летию со дня рождения Азильхана Нуршаихова.

В течение визита были прочитаны гостевые лекции на 3 курсах по Методике преподавания русского языка на темы: История, теория и практика методики преподавания русского языка; Проблемы мотивации обучения русскому языку в современных условиях; Инновационные технологии в обучении русскому языку. Также по Истории русской литературы XX века на темы: Творчество Александра Блока; Творчество Владимира Маяковского и Творчество Анны Ахматовой. В заключении были выданы Сертификаты.

Традиционно, 23-24 февраля 2023 года кафедра русской филологии Евразийского национального университета им. Л.Н.Гумилева (г. Нур-Султан, Казахстан) совместно с кафедрой русской литературы Московского педагогического государственного университета (г. Москва, Россия), кафедрой славистики имени Петра Карамана (г. Яссы, Румыния), Институтом

вос-точнославянской филологии Силезского Университета (г. Катовице, Польша), Таганрогским институтом имени А.П. Чехова (филиал) ФГБОУ ВПО «РГЭУ (РИНХ)» (г. Таганрог, Россия), Казанским Федеральным университетом (г. Казань, Татарстан, РФ), Нукусским государственным педагогическим институтом им. Ажинияза (Узбекистан, г. Нукус) проводит XII Международную научно-практическую конференцию молодых ученых «НУРГАЛИЕВСКИЕ ЧТЕНИЯ-ХІІ: НАУЧНОЕ СООБЩЕСТВО СТУДЕНТОВ ХХІ СТОЛЕТИЯ. ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ». По итогам конференции планируется издание сборника в электронном формате с включением в базу РИНЦ (Российский индекс научного цитирования) и присвоением ISBN.

В целом, в результате огромного внимания главы нашего государства к всестороннему развитию системы высшего образования в нашей стране, нет никаких сомнений в том, что молодежь Узбекистана станет достойными наследниками наших предков и станет квалифицированными специалистами, работающими своими знаниями и талантом. Ведь меры, принимаемые в сфере образования в нашей стране, созданные условия могут служить основанием для такого вывода.

Литература

1. Андриянова В. И. ХХІ век – век интеллектуального образования и воспитания // Актуальные вопросы гармоничного воспитания личности на современном этапе: Сб. науч.-метод. статей. Часть I. -Т.: 2004, – С. 8-17.
2. "О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан" //режим доступа: <https://lex.uz> - Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 01 апреля 2021 года «О совершенствовании системы государственного управления в сфере развития научной и инновационной деятельности».
4. Зайцева С.П., Стадник М.Н. Ноябрьский институт нефти и газа (филиал) ФГБОУ ВО «Тюменский индустриальный университет», -Ноябрьск:
5. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования. -М.: Издательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2003, -С. 95.

РЕЗЮМЕ. Мақола Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти рус тили ва адабиёти кафедрасининг инновацион фаолияти ва халқаро ҳамкорлигини ўрганишга бағишланган. Олий таълимдаги инновациялар билимларни узатишга, янги билимларни мустақил эгаллаш имконини берувчи асосий компетенцияларни ўзлаштиришга йўналтирилган бўлиши керак. Инновацион фаолият, энг аввало, таълим сифатини ошириш, муайян олий таълим муассасасининг таълим хизматлари бозорида рақобатбардошлигини ошириш шартидир.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена изучению инновационной деятельности и международному сотрудничеству кафедры русского языка и литературы НППИ имени Ажинияза. Инновации в высшем образовании должны быть ориентированы на передачу знаний, на овладение базовыми компетенциями, которые позволяют приобретать новые знания самостоятельно. Инновационная деятельность - это прежде всего, условие повышения качества образования, и роста конкурентоспособности конкретного высшего учебного заведения на рынке образовательных услуг.

SUMMARY. The article is devoted to the study of innovation activity and international cooperation of the Department of the Russian Language and Literature of the National State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz. Innovations in higher education should be ocused on the transfer of knowledge, on mastering basic competencies that allow one to acquire new knowledge independently. Innovative activity is, first of all, a condition for improving the quality of education, and increasing the competitiveness of a particular higher educational institution in the educational services market.

ТАЛАБАЛАР КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ҲАҚИДА

Ы.Е.Ибраймов – таянч докторант

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: таълим, креативлик, компетенция, ўқитувчи, талаба, ТРИЗ, ижодкорлик, қобилият.

Ключевые слова: образование, творчество, компетентность, учитель, ученик, ТРИЗ, креативность, способность.

Key words: education, creativity, competence, teacher, student, TRIZ, creativity, ability.

Жаҳон микёсида педагогика соҳасидаги олий таълим муассасаси ўқитувчисининг ижодий фикрлаши ва креативлигини ривожлантириш масалаларига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Замонавий инновацияларни таълим жараёнига татбиқ этиш, ўқитувчиларнинг креатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш усуллари илмий асослаб бериш, олий таълим тизими мазмунига мос креативлик компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш ва ўқув материалларини бойитиш зарурияти юзага келмоқда. Таълим соҳасида амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари ва эришилган қатор ижобий ўзгаришларга қарамасдан, таълим самарадорлигининг ривожланиш динамикасини янада жадаллаштириш, бунда яратилган шарт-шароитлар ва имкониятлардан самарали фойдаланиш,

бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш энг долзарб масалалардан ҳисобланади [7:4].

Республикаимиз олимларидан А.Арипджанова, О.Жамолиддинова, Г.Ибрагимова, О.Мусурмонова, Ш.Позилова, Ш.Шарипов, Ш.Шодмонов, Э.Юзликбаева, К.Юсуповаларнинг илмий изланишларида талабаларда креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг мутахассисларнинг касбий-инновацион тайёргарлигини шакллантиришдаги ўзига хос жиҳатлари, креативлик сифатларини ривожлантиришга таъсир этувчи ижтимоий-педагогик омиллар, шахсининг фаоллиги, шунингдек, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш усуллари ва шакллари, мавжуд педагогик шарт-шароитлари, дидактик таъминоти, шунингдек, педагогик креативлик мазмуни ёритиб берилган.

Илмий тадқиқот ишлар таҳлили шуни кўрсатдики, бугунги бўлажак мутахассиснинг кучли шахс сифатида камол топишида уни креатив фикрловчи этиб шакллантириш ва ривожлантиришга йўналтирилган тадқиқот ишлари деярли олиб борилмаган.

Ўтказилган назарий изланишлар шуни кўрсатдики, кичик ёшда шакллантирилган компетенциялар умр давомида шахснинг хотирасида ривожланиб, тақомиллашиб боради. Шу фикрга асосан юқоридаги компетенцияларга қўшимча сифатида талабаларнинг эгаллайдиган умумий компетенциялари қаторига креативлик компетенциясини қўшишни тавсия қиламиз. Бу бугунги кунда доимо ўз устимизда мунтазам ишлаб серкирра шахсни тарбия қиламан деб мақсад қилган ҳар бир бўлажак ўқитувчи учун зарурий қобилият ҳисобланади.

Г.Альтшуллер фикрига кўра «Креативлик – ҳар хил карама-қаршиликлар, муаммоли вазиятларни бартараф этиш имконияти», [1] Н.Дружинин «Креативлик – иқтидорга боғлиқ бўлмаган ҳолда, шахснинг барча соҳаларидаги фаоллиги, ижодкорлик қобилияти» [3:74], деб таърифлайди, педагогик изоҳли лугатда бўлса «Креативлик – шахснинг янги ғояларни ишлаб чиқишга тайёргарлигини тавсифловчи ҳамда мустақил омил сифатида иқтидорлиқнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти» [6:236] деб таърифланади.

Креативлик – вазиятни турли жиҳатдан баҳолаш, ностандарт қарорлар қабул қилиш ва ўзгарувчан шарт-шароитларга мослашиш имконини беради. Креативлик қобилияти яхши ривожланган шахс ижодкор инсонга айланади [2:13]. У янги ноанъанавий ғояларни ишлаб чиқиш ва бошқа инсонларнинг ташаббусларини ривожлантириши мумкин. Қийинчиликларни енгиш унинг учун ажойиб жумбоққа айланади ва бир вақтнинг ўзида бир нечта ечимларни бериш имкониятини яратади. Ечимларнинг ҳар хиллиги улар орасидан энг мукаммалини танлаш имкониятини беради.

Педагогика олий таълим муассасалари малака талаблари таҳлилий ўрганилганда талабаларнинг эгаллашлари зарур бўлган таянч компетенциялари қаторида креативлик компетентлигига урғу берилмаганлиги аниқланди. Тадқиқот муаммосини ўрганишда умум-касбий ва махсус фанларнинг мақсади ҳамда ўқитиш натижалари, илмий-услубий адабиётлар ва таълим йўналиши ўқув-меъёрий ҳужжатларини таҳлил қилиш орқали талабаларда креативликни шакллантириш ҳамда

ривожлантириш бўйича қуйидаги муаммо ва камчиликлар аниқланди:

- талабаларнинг бўлажак касбий фаолиятларида муваффақиятга эришишни таъминлайдиган креативлик қобилиятларини ривожлантиришга етарлича эътибор қаратилмаганлиги;

- талабаларнинг креативлик компетенциясини ривожлантиришга ёрдам берадиган замонавий педагогик технологиялар ва методларини машғулот жараёнига кенг жорий этилмаганлиги;

- ўқув дастурларини тақомиллаштириш ва талабаларнинг креативлик компетенциясини ривожлантириш бўйича замонавий рақамли технологиялар, креатив муҳитни яратиш методикаси ва тавсиялар ишлаб чиқилмаганлиги;

- креативлик компетенциясини ривожлантиришга ёрдам берувчи ўқув-услубий адабиётларининг йўқлиги;

- фан дастурлари ўрганилганда келтирилган мавзуларда талабаларни креативлик компетенциясини шакллантириш ва ривожлантиришга оид мавзулар келтирилмаганлиги аниқланди.

Юқорида келтирилган мулоҳазаларни умумлаштирган ҳолда, креативлик қобилиятдан нафакат янги қизиқарли ғояларни яратиш, балки ўзини ўзи тақомиллаштириш ва шахсий ривожланиш учун ҳам фойдаланиш мумкин. Шундай экан, талабаларнинг шахсий ижодкорлигини ривожлантириш билан бирга уларнинг ўқув фаолиятини креатив олиб бориш таълим сифатини янада оширишга хизмат қилади. Талабаларда креатив компетенцияларни ривожлантиришга хизмат қиладиган технологиянинг бири ТРИЗ бўлиб ҳисобланади.

ТРИЗ (ихтирочилик масалаларни ҳал қилиш назарияси) технологияси бу – ижодий фикрлаш самарадорлигини оширишга ёрдам берадиган технология. ТРИЗ технологияси турли хил муаммоларни (педагогик, психологик, муҳандислик ва бошқалар) самарали ҳал қилишга ва кучли, илғор ечимларни топишга ёрдам беради. Ушбу технология муҳандислик, ишлаб чиқариш ва педагогик соҳаларда кенг қўлланилади. ТРИЗ технологияси ёрдамида талабаларни касбий-ижодий фаолиятга тайёрлигини шакллантиради [4:16]. Бу технологияни ўтган асрда Г.Альтшуллер амалиётга татбиқ этган.

Тадқиқот доирасида талабаларнинг креативлик компетенциясини ривожлантириш босқичлари қуйидагича ифодаланади (1-жадвал).

1-жадвал. Талабаларнинг креативлик компетенцияларини ривожлантириш босқичлари

№	Креативлик компетенцияларини ривожлантириш босқичлари	Меҳнат функциялари
1	Креатив-адаптив	Ушбу босқичда талабаларда креативлик, креатив фаоллик ва ижодкорликка бўлган мойиллик мавжуд бўлади ва шакллантирилади.
2	Креатив-йўналтирувчи	Ушбу босқичда талабалар ўқитувчи томонидан берилган муаммоли-изланишли топшириқларни бажаради, ўзи томонидан ҳеч қандай янгиликлар, ўзгартиришлар киритилмайди.
3	Креатив-изланувчи	Талабаларда кичик тадқиқотчилик, ижодий фаоллик, ноодатий тафаккур, билиш мустақиллиги, педагогик импровизация, янгилик яратишга иштиёқ, амалий қўنىк-ма ва назарий билимларни амалиётга жорий этиш малакаларининг шаклланиши кузатилади.
4	Интерфаол-креатив	Талабалар ушбу босқичда яратилган янгиликни амалда қўллаш, баҳолаш, таҳлил қилиш, оммалаштириш ва уни кенг татбиқ этиш ҳамда истиқболга йўналтирилган стратегик лойиҳаларини тузиш билан боғлиқ жараёнларни мустақил бажара олади.

Жадвалда келтириб ўтилган босқичларни креативлик компетенциясини ривожлантиришни педагогик жараёнсиз амалга ошириб бўлмайди. Тадқиқот доирасида учта асосий педагогик жараёнлардан фойдаланишни тавсия этамиз: шакллар (маъруза, семинар, ноанъанавий амалий топшириқлар, муаммоли вазиятлар, ролли ўйинлар), услуб ва технологиялар (ТРИЗ, Интеллект-харита ва бошқалар), воситалар (компьютер дастурий маҳсулотлар) [5:11].

Хулоса қилиб айтганда, бугунги узлуксиз таълим жараёни мукамал креатив педагогик ёндашувни талаб этмоқда. Бу ёндашувнинг асоси таълим жараёнини ташкил қилишда илғор педагогик тажрибага асосланган фаолият бўлиб ўқитувчидан ўқув жараёнини ўзгартириш: унинг тузилиши, педагогик-психологик ташкил этиш, субъектларнинг ноанъанавий фаолияти, ўзаро таъсир тамойилларини мукамал билиш ва уларни тақомиллаштиришни тақозо қилмоқда.

Адабиётлар

1. Альтшуллер Г. Введение в ТРИЗ. Основные понятия и подходы: URL: <http://www.triz-ri.ru/triz/triz02.asp>.
2. Арипджанова А.Р. Таълими ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2017, 24-б.
3. Дружинин В.Н. Психология и психодиагностика общих способностей. –Москва: «Наука», 1994, –С. 74.
4. Ибрагимова Г.И. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2017, 24-б.
5. Позилова Ш.Х. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси: пед.фан.бўй.фалс. докт. (PhD) дисс.автореферати. –Тошкент: 2019, 53-б.
6. Хасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Тошкент: Фан ва технологиялар, 2009, 236-б.
7. Юсупова К.Н. Креатив педагогика-инновацион соҳа ва профессионал таълим ўқитувчиси креативлигини ривожлантириш шароитлари. Педагогика. Илмий-назарий ва методик журнал. –Тошкент: 2021, №5. 4-б.

РЕЗЮМЕ. Мақолада малакали бўлажак мутахассислар тайёрлаш учун қулай педагогик шарт-шароитларни яратиш, ўқув-тарбия жараёнига илгор педагогик технологияларини жорий этиш, талабаларнинг бўлажак касб компетентлиги таркибига кирувчи креатив компетенцияларини ривожлантириш ҳақида маълумотлар баён қилинган.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается информация о создании благоприятных педагогических условий для подготовки квалифицированных будущих специалистов, внедрении в учебный процесс передовых педагогических технологий, развитии у студентов творческих компетенций, входящих в состав будущей профессиональной компетентности.

SUMMARY. The article describes the creation of favorable pedagogical conditions for the training of qualified future specialists, the introduction of advanced pedagogical technologies into the educational process, the development of students' creative competencies are the part of the future professional competence.

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING INSHO YOZISH MALAKALARINI OSHIRISH

I.Ibodullayeva – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: dunyo ta'lim tizimida insho, "Intellect maps", "Think and write", ogʻzaki va yozma nutq, ijodiy faollik, erkin fikrlash.

Ключевые слова: эссе, "Intellect maps", "Think and write", устная и письменная речь, творческая деятельность, свободное мышление.

Key words: Essay, "Intellect maps", "Think and write", oral and written speech, creative activity, free thinking.

Jahon tajribasida inshoga ta'limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Insho yozish, ayniqsa, AQSh, Angliya, Kanada kabi dunyoning rivojlangan davlatlari kollej va universitetlarida keng yoʻlga qoʻyilgan yozma ish turi hisoblanadi. Kollejlarda talabalar yozma nutq malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun insho yozadilar. Universitetlarda esa bunday yozma ish turlaridan boʻlajak talabalarining savodxonligi, dunyoqarashi va tafakkuri mustaqilligini aniqlashda foydalaniladi. BMning "Many languages, one world" ("Koʻp tillar, bir dunyo") shiori ostida insholar tanlovi mavjud boʻlib, bundan maqsad talabalarining koʻp tillarni bilish, nutqiy qobiliyatini rivojlantirish, madaniy ongini yuksaltirishga qaratilgan.

Dunyo ta'lim tizimida zamonaviy oʻqitishni amalga oshirish boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlarda xorijiy tajribalarga asoslangan "Intellect maps" (intellekt xarita), "Think and write" (oʻylamoq va yozmoq) kabi shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning turli metodlari mavjud. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi barcha sohalarida oʻz fikrini ogʻzaki va yozma ravishda erkin bayon qila oladigan, grammatik savodxonligi yuqori malakali mутахассисlarga ehtiyoj hamda talab ortib bormoqda. Nafaqat, kelajak faoliyati badiiy soʻz bilan bogʻliq shaxslarni shakllantirishda, balki har qanday sohada ish yurituvchi mутахассисni tarbiyalashda inshoning oʻrni beqiyosdir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma savodxonligi rivojiga qaratilgan PIRLS, PISA, TIMES, EGMA va EGRA kabi Xalqaro baholash dasturlari boshlangʻich sinflardan boshlab amaliyotga joriy etilmoqda. Shu asosda ta'lim oluvchilarning oʻqish savodxonligi asosida yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish darajasi, shuningdek, matnlardan turli koʻrinishlardagi maʼno hosil qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratdi. Bugungi kunda oʻquvchilar bilimi va intellektini rivojlantirishning turli metodlari, usullari yaratilgan boʻlsa-da, inshoning tarbiyalanuvchi tafakkuri mustaqilligini taʼminlashdagi, uning nutqiy va tafakkur munosabatlaridagi uygʻunlik masalasi bevosita oʻrni chuqur tadqiq etilmagan. Inshoni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari belgilanmaganligi, bu borada keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmaganligi

tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya taʼkidlanishi mamlakat yoshlarini oʻz fikrini ogʻzaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan yuqori malakali mутахассисlar etib tarbiyalashda yozma nutq va mustaqil tafakkurning eng oliy shakli boʻlgan insho hamda uni yozishning tartib-qoidalarini oʻrganish-oʻrgatishga asoslangan oʻqitishni maqsadli tashkil etish taʼlimdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Shunday ekan, maktab taʼlimida oʻquvchilarni insho yozishga oʻrgatish orqali nutq va tafakkur intergatsiyasini shakllantirishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilarning yozma ishlarini, xususan, insholar tashkil etish borasida metodist-olimlar S.Dolimov, S.Ismatov, B.Turdiyev, A.Zunnunov, S.Matjonov, Q.Husanboeva, O.Madaev, T.Niyozmetova, S.Yaminova, K.Qosimova, N.Shukrullayeva, R.Inogʻomova, N.Sattorovalarning [1]. N.Shukrullayeva, R.Inogʻomova, N.Sattorovalarning va boshqa bir qator olimlarning u yoki bu darajadagi qarashlari mavjud. Lekin bevosita adabiy taʼlimda inshoning oʻquvchi tafakkuri shakllanishi, uning ruhiy va fikriy kamoloti yuksalishidagi oʻrni aks ettirilgan tadqiqot ishlari koʻzga tashlanmaydi.

S.Dolimovning "Taʼlimiy bayon va insho" nomli risolasi insho nutqni toʻgʻri qurish hamda fikrni aniq ifodalashga oʻrgatish, mavzuga mos material toʻplash, qiziqarli, ahamiyatli, haqiqiy borliqni aks ettiradigan voqealar rivojida ketma-ketlikni belgilash, reja tuzish koʻnikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan. Lekin insho va uni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, insho yozish asnosida oʻquvchilarda shakllantirilishi lozim boʻlgan koʻnikmalarni sobiq sovet davri adabiy taʼlimi maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etish nazarda tutilgan.

S.Ismatovning "Oʻrta maktablarning yuqori sinflarida insho" nomli risolasi ham umumiy oʻrta taʼlimning yuqori

bosqichida inshoni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, unda, asosan, adabiy mavzudagi insholar yozdirishga e'tibor qaratilgan. Insho nazariyasi va uni tashkil etish yuzasidan bir qator ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, davr nuqtai nazaridan bir tomonlama yondashilganlik ko'zga tashlanib turibdi.

N.Sattorovanning "O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida)" mavzusidagi dissertatsiyasi ona tili darslarida insholarni tashkil etishga qaratilgan.

O.Madaevning "Insho qanday yoziladi?" nomli qo'llanmasida adabiyot darslaridagi insho mavzulari, insho rejasini tuzish, insho yozishga o'rgatish usullari haqida batafsil fikr yuritiladi. Biroq dars jaayonida insholarni tashkil etishning psixologik, pedagogik va metodik asoslari to'lig'icha yoritilmagan. Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, R.Niyozmetova, S.Yaminova, B.To'xlijev, A.Zunnunov, H.Suyunov, M.Nurmatova va boshqa bir qator olimlarning maktab adabiy ta'limini yangilash, uni takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlarida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, talablar mazmun-mohiyati bilan inshoni tashkil etishga bevosita daxldor bo'lmasa-da, bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki badiiy asarlar ustida ishlashning puxtaligi darajasi u yoki bu mavzuda insho yozishga ijobiy zamin yaratadi. Ko'rinadiki, inshoning o'quvchilar nutqi va tafakkurining integratsiyasida tutgan o'rni masalasi, qolaversa, shaxs ma'naviy kamolotidagi ahamiyati hamda uni tashkil etishning ilmiy-nazariy hamda amaliy-metodik jihatlar alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

- ulıwma orta bilim beriw mekteplerinde texnologiya pánlerinen, professional tálimde kásiplik pánlerden ornatılǵan tártipte sabaq beriw;

- professional tálim shólkemlerinde oqıw ustası bolıp islew;

- professional tálim oqıtıwshı saykes tálim baǵdarı boyınsha tálimdi ámelge asırıwshı ministrlkler, onıń tarmaq basqarmaları hám mákemelerinde metodist bolıp islew;

- pedagogika hám texnika pánler baǵdarındaǵı ilimiy izertlew shólkemlerinde kishi ilimiy xızmetker bolıp islew;

- ulıwma orta bilim beriw mákemelerinde hám mektepden tisqari tálim mákemelerinde islew imkaniyatı jaratıladı.

Texnologiyalıq tálimdi oqıtıwdı jańa basqıshqa kóteriw Ózbekstan Respublikası ushın joqarı maǵlıwmatlı qánigeler tayarlawdıń maqsetli parametrlerin Investiciya dástúrleri, aymaqlıq hám tarmaq dástúrleri, qawenderlik keńesleriniń talapları, jáhán kólemindegi texnologiyalıq ózgerislerdi inabatqa alǵan halda qalıplestiriw, tálim baǵdarları hám qánigeliklerin optimallastırıw, bunda STEAM baǵdarların (anıq pánler, texnologiya, injiniring, dóretiwshilik kórkem-óner hám matematika) rawajlandırıwǵa itibar qaratıladı.

Juwmaqlap aytqanda, tálim processlerin sanlı texnologiyalar tiykarında individuallastırıw, aralıqtan oqıtıw xızmetlerin rawajlandırıw, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyaların ámeliyatqa keń engiziw, zamanagóy xabar-kommunikaciya texnologiyaları tiykarında aralıqtan oqıtıw programaların shólkemlestiriw, lekciya hám ámeliy shınıǵıwlar, seminarlardı onlayn baqlaw hám ólestiriw imkaniyatın beretuǵın, sonıń menen birge olardı elektron informaciya saqlawshılardıń júkleytuǵın «E-MINBAR» platformasın ámeliyatqa engiziw, tálim processlerinde «bulutlı texnologiyalar»dan paydalanıw hámde joqarı bilimlendiriw mákemelerinde tálim, pán, innovaciya hám ilimiy izertlewler nátiyjelerin kommerciyalastırıw tǵız baylanıslıǵın názerde tutatuǵın «Universitet 3.0» koncepciyasın basqıshpa-basqısh engiziw lazım. Professor-oqıtıwshılar, ilimiy izleniwshiler, doktorantlar, magistratura hám bakalavriat talabaların biriktiretuǵın texnoparklerde ilimiy hám innovaciyalıq iskerlik júrgiziwge hámde xalıq aralıq SsiVal xabar-analiz sisteması járdeminde jáhándegi ilimiy izertlew nátiyjelerin analiz etip barıw tiykarında ilim-pánniń aldıńǵı jetiskenlikleri menen rawajlanıwın támiynlew bolıp esaplanadı.

Адебиетлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

2. Технологик таълим бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. –Ташкент: 2021.

3. Орынбетов Н.Т. Мехнат таълими йўналиши талабаларининг электротехника, радиотехника ва электроника бўйича касбий тайёргарлигини такомиллаштириш. Автореф. пед. фан. фалс. док....дисс (PhD). – Нукус: 2019, 23-б

РЕЗЮМЕ. Технологик та'лим mazmuni va usullarini takomillashtirish maqsadida, texnologik o'qitishning ishlab chiqilgan ta'lim reglamentini hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va resurslarini hisobga olgan holda, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va fanni rivojlantirish to'g'risidagi axborotni tahlil qilish, qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish; professional ma'lumotlar. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish ko'rib chiqilmoqda.

РЕЗЮМЕ. В целях совершенствования содержания и методов технологического обучения с учетом разрабатываемого образовательного регламента по технологическому обучению и современных образовательных технологий и ресурсов, использования технологий дистанционного обучения и анализа информации о развитии науки, предоставления дополнительных профессиональных информации. Рассмотрена индивидуализация образовательных процессов на основе цифровых технологий, развитие сервисов дистанционного обучения.

SUMMARY. In order to improve the content and methods of technological training, taking into account the developed educational regulations for technological training and modern educational technologies and resources, the use of distance learning technologies and the analysis of information on the development of science, the provision of additional professional information. The individualization of educational processes based on digital technologies and the development of distance learning services are considered.

ОҚЫҒЫШЫЛАРДЫҢ МУЗЫКАЛЫҚ УҚЫПТЫЛЫҒЫН РАҰАЖЛАНДЫРУДЫҢ КОГНИТИВ ӨЗГЕШЕЛІКТЕРІ

М.А.Пазылов – таяныш докторант

Әжанияз атындағы Нөкіс мәмлекеттік педагогикалық институты

Таяныч сөздер: Ренессанс, реформа, когнитив, эстетика, нота, форма, профиль, структура.

Ключевые слова: Ренессанс, реформа, когнитив, эстетика, нота, форма, профиль, структура.

Key words: Renaissance, reform, cognitive, aesthetics, note, form, profile, structure.

Музыка инсанның рухый байлығын жетилістіріуде, әдеп-иқрамлылығын тәрбиялауда, ең тийкарығы инсанның дәретиушилигин, уқыптылығын хәм шеберлигин жетилістіріуде әхмийетли хызмет атқаратуғын илим тарауларынан саналады. Музыка илиминің бундай кең көлемли имканиятлары III-Ренессанс дәуири ўәкиллерин тәрбиялауда, олардың хәр тәрәплеме кәмил инсан болып жетилісіуине хызмет етеди. Бүгинги күнде билимлендириу тараўында алып барылып атырған реформалар, келешек әуладтың жәхән тәлим стандартлары дәрежесинде билим алыўына хәм заманағәй технологияларды терең меңгерип, еле де турмысқа ен жайдырыўға қаратылған. Бундай ийлигили ислерди әмелге асырыўда Президентимиз Ш.М.Мирзиёев атап өткениндей «...бүгинги күн ушын зәрур болған келешек әуладты илим-пән хәм өз кәниигелигинің түп сағасын терең ийелеген, билимли жасларды тәрбиялаудан ибарат» [1].

Инсанды тәрбиялау дегенде хәр тәрәплеме жетиліскен, әдеп-иқрамлылық пазыйлетлерин өзінде синдирген, рухый хәм физикалық жактан саламат инсанды жетилістіриу нәзерде тутылады. «Тәрбиә - рухый мәдений, материаллық, бүгинги күн талаплары хәм мүтәжликлерин нәзерде тутқан халда мұғаллимнің оқығшы менен анық бир максетке қаратылған өз-ара қарым - қатнасы болып есапланады» [2]. Тәрбияның нәтижелілиги болса сол процессте қоланылатуғын методларға байланыслы әмелге асырылады, қалаберди инсан тәрбиясында эстетикалық талапларды қәлиплестириу, ондағы талғамды жетилістіриуде үлкен роль атқарады.

Инсан өмири даўамында қандай да бир қарым-қатнастарға кирисиуи, жәмийетте өз орнын ийеләуи, дүс келетуғын машқалалардың шешимин табыўында зәрур компетенцияларға ийе. Буннан тысқары «оқығ процесинде хәр бир оқығ пәнин өзлестириу барысында оқығшыларда, усы пәнинің өзине тән өзгешеликлерин, онын мазмұнынан келип шыққан халда сол тараўға тийисли болған компетенциялар да жетилістириледи» [3]. Оқығшылар менен айрықша педагогикалық-психологиялық бағдарламалар бойынша ислесиу, музыка мәдений сабақларында саз шертиу хәм қосық айтыудан зерикпеу, шынығыу барысында мұғаллимнің хәр қыйлы темаларда сәўбет алып барыуы, өз-ара пикир алмасып сабақ өтиуи, усы компетенциялардың қәлиплесиуине хәм музыкалық уқыптың раўажланыўына тийкара болады.

Өнер менен өмирди эстетикалық жактан дұрыс қабыл етиудің өзи оқығшыларды рухый жетилістіриуде тийкары күрал болып есапланады. Сонлықтан да хәр қандай форма белгили бир мазмұнның көриниси болып, өнердің қәлеген түри өмирдің социаллық рухый нормаларын өзінде сәўлелендиреди. Инсанның өнерге болған мүнәсибети, сезимталлығы, тәбияттағы, мийнеттеги инсанлардың ис-хәрекетлери, жүз берип атырған ўақия-хәдийселерди бахалап билиуи, ондағы уқыптылық қәсийетлеринен саналады. Демек, музыканың характерин, оның объективлигин дұрыс бахалау,

оқығшының билими хәм тәрбияланғанлық дәрежесин белгилейди.

«Хәр бир халықтың билимлендириу саласында музыка тәрбиясы методикасы педагогикалық, дидактикалық нызамлылықларға хәм сол халықтың миллий музыка мәдений менен мәдений этнографиясына тийкарланады. Соның менен бирге музыка тәрбиясының құрылысы, системасы хәм илимий методикалық жактан жетискенликлери басқа миллетлердин илимий мәденийна ұнамлы тәсиір жасайды» [4]. Тәлим-тәрбия процесинде өнер арқалы оқығшыларға тұрмысты үйретиу, оған жеке мүнәсибетин билдириу, дәретиушенлик қәбилетине қарай билиу көнликпелери раўажландырылады.

Тұрмыста хәр қандай жағдайда да ақыл хәм ерктин роли шексиз, оны қәлиплестириу болса тәлим-тәрбияға байланыслы болады. «Инсанды тәрбиялау, оны билим алыўға, мийнет етиуге үйретиу хәм бул ис-хәрекетлерди әсте-ақырынлық пенен көнликпеге айландырып барыу керек»тей түйиледи [5]. Демек, эстетикалық тәрбияның ўазыйпасын хәм мазмұнын дұрыс белгиләу ушын, тийкарынан көркем-өнердин ўазыйпаларын анық көз алдымызға келтириуимиз керек. Ал, оны қабыл етиу болса тек ғана заўықланыу, ләззетлениу менен шекленбейди, ол инсанда қайғырыу, аяу сыяқлы сезимлерди де жүзеге келтиредиди.

Көркем-өнер өзінде тұрмысты тек ғана қозғал тәрәплерин емес, ал оның предмети, рәң-бәреңлиги, тұрмыста ұшырасатуғын кескинликлер, қуўаныш-қайғыларды да өзінде сәўлелендиреди. «Оқығуда - дейди, рус алымы И.Ю.Дьяченко, - музыка өнеринин роли үлкен, бул жерде оқығ процесиди бала психикасының сезимталлық құрамына тийкарланады. Арнаўлы түрде таңланған хәм педагогикалық жактан бағдарланған музыка, музыкалық түсиникти күшейтеди хәм тәсиіршен тәжирийбени келтирип шығарады. Бул көринис қайта-қайта күшейип барады, кейин болса әсте-ақырынлық пенен тынышланады. Сезим хәм ишки кеширмелер менен ислесиу баланың сезимталлық тараўын кеңейтириу хәм байытыу арқалы емес, ал өз тәжирийбелерин әмелге асырыуы хәм оның менен белгили бир дәрежеде невротизация процесин тегисләуге жәрдем бередиди» [6].

Венгриялы оқығшы Тибор Шарай «музыка тыңлау басқа пәнлердин когнитив материалын жаксы өзлестириуге үлес қосады, артықша сезимталлық жүгин кемейтиредиди» [6] - деб музыка тәрбиясы мектепте алып барылатуғын биргеликтеги ақый мийнет процесинде балаларды аўызбиршиликке, ўақыттан үнемли пайдаланыўға, жұмыс түрлеринин өтиу процеслеринин тезлесиуине мәдед болатуғынлығына түртки берип өтеди.

Музыканы тыңлау, оны қабыл етиу - музыка жазыу хәм оны атқарыу, музыка өнериндеги тийкары жұмыс түри саналады. Музыканы хеш ким тыңламаса, ол өзиниң мәнисин жоғалтады хәм жасаудан тоқтайды. Музыканы тыңлау хәм оны қабыл етиу, түсиниу оқығшыларда гөдеклик дәйиринен баслап жетилістирилип барылады. Музыканы хәмме еситкени менен оны хәмме де толық түсинип қабыл ете алмайды.

Оны кабыл етиў дәрежеси тынлаўшының улыўмалық мәдениеті хәм музыкалық таярлық дәрежесине байланыслы болады. «Музыка шығармасының толық хәм тереңнен түсинилиўи - композитор хәм атқарыўшы шеберлигинен дерек береді. Сол тәризде тынлаў процесі, тынлаўшының тәрбиясы, индивидуал қәбилетлери хәм таярлығы менен бириктирилген жағдай деп жуўмақ шығарылады» [7].

Бирақ, көп жыллардан берли елимизде музыка пәніне, улыўма музыкаға болған қызығушылық оқыў орынларының оқыўшыларында бар, деген менен бул тараўға болған итибар негедур кемейип бармақта. Анығырағы, барлық оқыў орынларында хәптесине 2 саат оқытылыўы керек болған пәнлер қатарынан ол өз үлесин толық ала алмаған. Нәтийжеде, музыкаға қызығушы, музыкалық уқыбы бар оқыўшылар мектептерде шөлкестірилген қосымша музыка дөгереклерине барыўға мәжбүр болады. Ол жерде де өзине керекли билимди толық ала-алмағандықтан, балалар музыка мектептерине барады. Балалар музыка хәм көркем өнер мектептери оқыўшының уқыбы менен емес, ал, ондағы талантты менен ислеседи. Ол жерде оқыўшыға бир музыка шығармасы бериледи хәм оны атқарыў усыллары үйретиледи. Оқыўшы болса тек ғана музыка шығармасын устазы үйреткендей етип орындаўға хәрекет етеди. Егерде оқыўшы талантлы болса дәслеп еситиў қәбилети арқалы, кейин болса нота жазыўы арқалы үйретиледи.

Усы орында оқыўшы улыўма билим беріў мектептеринде шөлкестірилген музыка дөгереклери ямаса балалар музыка хәм көркем-өнер мектептеринен өзи урын зәрүр болған билимди толық аладыма? – деген орынлы сораў пайда болады. Бул бойынша рус илимпазы Э.А.Сукачева өзиниң илимий жумысында «Музыка билим беріў мекемелеринде музыкалық уқыбы бар оқыўшыларды таярлаўды шөлкестіриў жағдайы-

ның анализи, хәзирги ўақытта жас мектеп оқыўшылары арасында музыкалық уқыпты раўажландырыўға итибар берилмей атырғандығын көрсетеди. Бул усы процесстиң педагогикалық әмелияттағы әхмийетине қарамай, өз имканиятларын толық әмелге асырмағандығынан дерек береді» [8] - деген пикирлерин билдирип өтеди. Демек уқыпты оқыўшы өзіндеги музыкаға деген қызығушылығын илимий жантастылар арқалы қандырыўға болған ықласы үстин болғандықтан, биз келтирип өткен дөгерек хәм оқыў орынларының оқытыў усыллары қанаатландырмай, ол жерди тәрк етеди хәм өзіндеги раўажланыўы зәрүр болған уқып жасырын халға өтеди.

Буннан көриўимиз мүмкин оқыўшылардағы түсиниў қәбилети тәлим тараўындағы жетискенлик пенен үзликсиз байланыслы болса да, оқыў процесинде балаларда түсиниктиң жетиспеўшилиги көпшилик жағдайларда итибарсыз қалдырылады. Негизинде оқытыў барысында факторларды түсиниў зәрүр әхмийетке ийе есапланады. Себеби, оқыў хәм түсиниў қәбилетлериниң раўажланыўы, оқыўшылардағы уқыпшылықты ерте анықлаў имканиятларын жақсылайды. Қалаберди, мақсетли тәризде әмелге асырылған тәлим процесиндеги когнитив жантастылар, келешекте жүзеге келиўи мүмкин болған хәр қандай турмыслық машқалалардың алдын алыўы ямаса машқалалардың салмағын кемейтиўи мүмкин.

Жуўмаклап айтқанда ерте жастан баслап алып барылатуғын хәр қыйлы оқытыў түрлери оқыўшыларда когнитив дөретіўшилик профилин характерлеўдиң дәслепки зәрүр қадеми болып есапланады. Ал, оқыўшылардың ойлаў, пикирлеў сыяқлы қәбилетлерин раўажландырыўда, олардың дөретіўшилик қәбилетлери жетилисип, уқыпшылықтарының артыўы, халқымызда келешекке болған жарқын үмиттиң пайда болыўына себепши болады.

Әдебиятлар

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: 2021, 230-б.
2. Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат (қайта ишланған нашри). – Тошкент: 2009, 450-б.
3. Компетенция нима дегани? www.idum.uz
4. Шарипова Г.М., Асамова Д.Ф., Ходжаева З.Л. Музыка ўқитиш назарияси методикаси ва мактаб репертуари (ўқув қўлланма). –Тошкент: 2014, 86-б.
5. Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. (қайта ишланған нашри). – Тошкент: 2009, 450-б.
6. Дьяченко И.Ю. Теория и методика музыкального воспитания (учебное пособие). –Тюмень: 2014, -С. 44, 45.
7. Қодиров Р.Ғ. Музыка психологияси (ўқув қўлланма). –Тошкент: 2005, 7-б.
8. Сукачева А.Э. Педагогические условия развития музыкальной одарённости у детей младшего школьного возраста. Автореферат Воронеж-2009. -С. 3.

РЕЗЮМЕ. Мақолала ўқувчиларнинг икитлорини ривожлантиришда мусикий тарбиянинг аҳамияти ва таълим жараёнида когнитив ёндашувнинг ҳусусиятлари хақида сўз юритилди.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о значении музыкального образования в развитии одаренности учащихся и особенностях когнитивного подхода в образовательном процессе.

SUMMARY. The article is about the importance of musical education in the development of student talents and the specific of the cognitive approach in the educational process.

TA'LIM TIZIMIDA "E-LEARNING"NI SAMARALI QO'LLASH VA ELEKTRON AXBOROT RESURUSLARI VA TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

B.B.Prenov – fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

B.J.Atabaeva – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: elektron ta'lim, elektron ta'lim resurslari, kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari, o'quv nashrlar, ta'lim vositalari, texnik vositalar.

Ключевые слова: электронное обучение, ресурсы электронного обучения, компьютерная техника, учебные издания, образовательные инструменты, технические средства.

Key words: electronic education, electronic educational resources, computer equipment, telecommunications, educational publications, educational tools, technical means.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtan bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagog xodim ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid metodik bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Oliy ta'lim muassalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishini modernizatsiyalash, maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin yaratadigan o'quv-metodik majmua, elektron darsliklar, o'quv kurslari bo'yicha sillabus yaratish orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta'lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilash,

ularni davlat talablari va jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish islohotlar davrining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi [1].

Hozirgi davrda kompyuter va telekommunikatsiya, texnika va texnologiyalarning potensialini ta'limga qo'llash, zamonaviy Oliy ta'lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri bo'lib qolmoqda. AKT ni rivojlantirish va ulardan foydalanishning jahon amaliyoti, birinchi navbatda axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim jarayonini an'anaviy shaklini o'zgartirishni oshkora tendensiyasini namoyish etishdir. YuNESKO mutaxassislarining ta'rifiga binoan: "E-learning - Internet va multimedia yordamida ta'lim olish orqali o'rganish". Birinchi marotaba E-Learning (Elektron ta'lim) atamasi (professional muhitda) 1999-yilning oktabrida Los Anjelesda o'tkazilgan SVT Systems seminarida qo'llanilgan [1].

Elektron ta'lim yoki E-Learning keng ko'lamda qo'llanilayotgan elektron texnologiyalarni (televideniye, radio, kompakt-disk, mobil aloqa, Internet va hokazo) umumiy ta'rifi sifatida ham qo'llaniladi. Bunda asosiy e'tibor Internet orqali o'qitishga yo'naltirilgan.

Elektron ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsiy kompyuter, PDA, mobil telefon, DVD-pleyer, televizor yordamida elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;

- uzoqdan (masofaviy) ekspert (o'qituvchi)dan, maslahat, mulohazalarni olish, masofaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati;

- umumiy virtual o'quv faoliyatini olib boradigan tarqatuvchilar (ijtimoiy tarmoqlar) jamoasini yaratish;

- elektron o'quv materiallarini o'z vaqtida yetkazib berish;

- elektron o'quv materiallari va texnologiyalari uchun standartlar va spesifikatsiyalar, masofaviy ta'lim vositalari;

- barcha talabalarining axborot madaniyatini shakllantirish, takomillashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, ularning oddiy faoliyat samaradorligini oshirish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va ommalashtirish, ularni o'qituvchilarga o'tkazish;

- ta'lim veb-resurslarini rivojlantirish imkoniyati;

- dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan zamonaviy bilimlarni olish uchun istalgan vaqtda va istalgan joyda imkoniyat yaratishdan iborat.

Elektron ta'lim tizimini tashkil qilishni uning tashkil etuvchilari kompleksini aniqlash bilan amalga oshirish kerak. Hozirgi kundagi mavjud elektron ta'lim tizimi asosan 3 qismdan tashkil topgan: boshqarish texnologiyalari, xizmatlar va axborot resursi.

Kompyuter texnologiyalariga asoslangan elektron ta'lim tizimi, ma'lum bir darajada texnik infrastrukturaga ega bo'lishi lozim, ya'ni ta'lim muassasasida kompyuter texnik ta'minoti va kompyuter tarmoqlari ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Agar kompyuter texnik ta'minoti darsliklarni joylashtirish va saqlashda ishlatilsa, kompyuter tarmoqlari bu materiallarga murojaat qilishni ta'minlaydi.

Elektron ta'limning samarador bo'lishida o'quvchilarga qiziqarli axborot resurslarini yetkazib berish usuli va kursning strukturasi katta ahamiyat kasb etadi. Elektron ta'limni o'quvchilarga qiziqarli bo'lishlik muammosini qisman uni elektron o'quv resurslar bilan to'ldirish hisobiga yechish mumkin. Bunda asosan elektron resurslar sifatiga katta e'tibor qaratish lozim. Talabalarga qiziqarli bo'lmagan kurslar to'liq o'rganilmaydi. Kursning talabalarga qiziqarli bo'lishining yana bir tomoni, uning tashkiliy tomonidir. Bu nima degani? Yaxshi kurs odamni zeriktirmaydi va o'zidan uzoqlashtirmaydi. Shuning uchun kurs shunday yaratilishi lozimki, uni o'qishga kirgan talabaga zerikarli bo'lmasligi kerak. Undagi o'quv materiallari talabaga oldindan ma'lum va sodda bo'lmasligi lozim. Masalan, talaba kursni o'qishga kirishidan avval test topshiradi

va shu test natijasiga ko'ra talabaga maxsus o'quv dasturi tayyorlanadi. Bu dasturda talaba biladigan mavzularni olib tashlab, yaxshi bilmaydigan mavzularga ko'proq e'tibor beriladi. Shu bilan birga talaba zarur bo'lsa dasturda o'chirilgan mavzularni ham ko'rishi mumkin. Talaba kursni yopiq model sikli (bilimni baholash-o'rganish-bilimni baholash - korrekktivka qilingan kurs-bilimni baholash) bo'yicha bir necha marta takrorlashi mumkin. Sikl talaba kursni butunlay o'zlashtirguniga qadar davom ettiradi.

Elektron ta'lim tizimini tashkil etishda yana bir muhim tomoni kursni o'zini tashkil qilishga katta e'tibor berish kerak. Agar bunda hatoliklar mavjud bo'lsa, elektron ta'lim tizimini barbad bo'lishiga olib keladi.

Ma'lumki, har qanday o'qitish jarayoni uchta muhim elementni o'z ichiga oladi: o'qitish maqsadi, kurs mavzulari va olgan bilimlarni baholash tizimi. O'qitish maqsadini va olgan bilimlarni baholash tizimini aniqlamasdan o'qitish ma'nosizdir. Elektron ta'limda kursning ma'lum konsepsiyasini qayta-qayta takrorlash, har bir takrorlashda olgan bilimiga mos ravishda baho olish talabani kursdan uzoqlashtirmaydi, aksincha bilimni yuqori darajaga chiqarishga undaydi.

Elektron ta'limning texnologik platformasi o'z ichiga bir necha asosiy tashkil etuvchilarni oladi. Birinchi navbatda bu o'qish programmasini tashkil etuvchi va boshqaruvchi dasturiy tizimdir.

Bu tizimning birinchi funksiyasi talabalarga kerakli kursni tanlash va mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratish. Bu yerda kurslarni yoki o'qitish modullarini guruhlashtiruvchi dasturiy vosita talabalarga shaxsiy o'qish programmasini tuzish imkoniyatini beradi.

Tizimning ikkinchi funksiyasi professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu yerda kursni boshqarish bo'yicha, kurs bo'yicha mashg'ulot o'tkazish jadvalarini tuzish, ko'rsatma berish va ma'murlashtirish ishlarini rejalashtirish amalga oshiriladi. Bunda eng muhimi standartlar hisoblanadi: elektron ta'lim uchun dasturiy vositalar ishlab chiqarishning texnologik standartlari; o'qish jarayonining standarti, elektron ta'limni o'quv resurslari bilan to'ldirish standartlari. Bunday standartlarni yaratish va qabul qilish bilan juda ko'plab katta kompaniyalar shug'ullanadi. Shu jumladan IBM kompaniyasi ham aktiv ishtirok etadi. Bunday standartlardan biri SSORM (Sharable Sotent Object Reference Model) standarti bo'lib, u elektron ta'limni avtomatlashtirish modeli bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida masofaviy elektron ta'limni joriy etish o'qitish tizimi konsepsiyasi va infrastrukturasi tashkil etishni, o'quv dasturlarini, test olish va ta'lim samaradorligini aniqlash tizimlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Elektron ta'limning zamonaviy texnologiyalari doimiy ravishda ta'limning interaktiv xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega. Biroq, masofaviy ta'lim loyihalarini tatbiq etishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelinadi [2]. Shulardan ba'zilari:

- o'quv kursni kompyuterlashtirish uchun uni qanday ishlab chiqish lozim;

- o'quv jarayoni qanday tashkil etilsa, u to'la kompyuterlashadi;

- o'quv materialni qaysi qismida kompyuter texnologiyalarini qo'llash va kompyuterdan foydalanishni qaysi ko'rinishda tatbiq etish kerak;

- qanday va qaysi vositalar bilan talabalar bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash darajasini baholash va ularni bilimini nazorat qilish mumkin;

- pedagogik va didaktik masalalarni tatbiq etish uchun qaysi axborot texnologiyalarni qo'llash kerak.

O'quv kursni o'qitishni kompyuter texnologiyasiga yuklash uchun kurs o'qituvchisi faqat predmet sohasiga tegishli materiallarnigina bilib qolmasdan, u yaxshi metodist, bilimlarni tizimlashtirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan

xabardor bo'lishi, shuningdek kompyuter texnika va texnologiyasining qanday vositalari bilan u yoki bu didaktik usulga erishish mumkin ekanligini bilishi lozim. Bundan tashqari kurs o'qituvchisi o'quv jarayonini ta'minlovchi amaliy dasturiy ta'minot yaratishi uchun kerak bo'ladigan kompyuterlarning texnik va dasturiy ta'minoti haqida ham chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Chunki kompyuterni o'quv kursga jalb etish uchun uni dasturiy ta'minotini yaratish kerak bo'ladi. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun shu o'quv kursiga doir dasturiy ta'minot yaratish va undan foydalanish lozim bo'ladi. O'quv kursiga doir dasturiy ta'minotni o'ziga xosligi shundan iboratki, u o'zida o'qituvchining didaktik va uslubiy tajribalarni qamrab oluvchi materiallarni aks ettiradi.

O'qitish loyihalarini tatbiq etishda axborot texnologiyalari asosiy dominant rolini o'ynaydi. Shuning uchun loyiha tatbiqining birinchi bosqichida AKT infrastrukturasi yaratish, LMS tizimlarini tanlash, kerakli litsenziyalar olish kabi masalalarni yechish kerak bo'ladi [4].

Elektron ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun quyidagi 8 ta jihatga alohida e'tibor qaratish lozim: [7]

1. *Tashkiliy jihat* - elektron ta'lim tashkiliy jihatdan o'z ichiga ma'muriy va akademik, shuningdek, elektron ta'lim masalalarida talabalarga yordam ko'rsatish masalalarini olish lozim.

2. *Elektron ta'limni boshqarish* - bu ta'lim muhitini ta'minlash va axborotni taqsimlash hisoblanadi.

3. *Texnologik jihat* - elektron ta'lim muhitida infrastruktura masalalarini o'rganadi va infrastrukturani, uskunaviy va dasturiy ta'minotni rejalashtirish ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

4. *Pedagogik jihatga* elektron ta'limning va ta'lim olish masalalari kiradi. Bu yerda kurs tarkibini, auditoriyani tahlil qilish, maqsadlar, vositalar, dizayn, tashkilot strategiyasi va o'qitishni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan masalalar ko'rib chiqiladi.

5. *Axloqiy jihat* - elektron ta'limning axloqiy jihatini ijtimoiy va siyosiy ta'sirlarga, madaniy xilma-xillikka, ogohlantirish muammolariga, shuningdek, geografik xilma-xillikka, talabalarining xilma-xilligiga, raqamli bo'linishga, axloqiy va huquqiy masalalarga taalluqli bo'ladi.

6. *Interfeys dizayni* - o'z ichiga elektron o'qitish dasturining umumiy ko'rinishini oladi. Interfeys dizayni sahifa va tarkibining dizaynidan, navigatsiyadan, qulaylik va testlashdan iboratdir.

7. *Resurslar bilan ta'minlash* - elektron ta'limning ushbu jihatini o'z ichiga online ta'minotni va to'liq o'qitishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni oladi.

8. *Tahliliy jihat*-elektron ta'limni baholash o'z ichiga talabalarni o'qitishni va ta'lim muhitini baholashni oladi. Bu jihatlar barcha turdagi masofaviy ta'lim tizimlarini yaratishda bosh omil bo'lib xizmat qiladi [3].

Elektron ta'lim resursini yaratish ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiallash, talabaning o'quv faoliyatini o'zi nazorat qilish va to'g'ri yo'naltirish, kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o'quv vaqtini tejash, o'quv materiallarini vizuallashtirish, o'rganilayotgan ta'lim jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, fikrlashning aniq bir shakli (ko'rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish, bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi. Bugungi kunda o'quv jarayonida elektron o'quv materiallarini namoyish etishda videoproektordan keng foydalanilmoqda. Undan foydalanish uchun odatda monitor qurilmalari va avvaldan tayyorlangan o'quv materialining taqdimoti bo'lishi kerak. Namoyish etiladigan materiallarni kompyuterning turli xil dasturiy ta'minotlari: Word, excel, Power Point, Corel Draw va boshqalar yordamida tayyorlash yoki professional darajada yaratilgan tayyor

elektron darsliklardan foydalanish mumkin. O'quv materialini kamchiliklarini tezda tuzatish, zarur o'zgartirishlar kiritish, takomillashtirib borish imkonining borligi, materialni kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi, rangli tasvirlardan foydalanish, ularni jonlantirish va harakatlantirish imkoniyatining mavjudligi elektron taqdimotning afzalliklaridan biridir. Sahifalarni taqdimot ko'rinishida yaratishda amaliy dasturiy ta'minotlar guruhiga kiruvchi Power Point dasturi alohida imkoniyatlar taqdim etadi. PowerPoint dasturi Microsoft firmasining WINDOWS qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur bugungi kunda prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir [2].

Zamonaviy o'quv elektron nashrlarni tahlil etish ularning murakkab tuzilishga ega bo'lib, klassifikatsiyaga muhtojligini ko'rsatdi. Elektron o'quv nashrlar klassifikatsiyasi asosida ham o'quv, ham elektron hamda dasturiy vositalar klassifikatsiyalarining umumiy metodlari yotadi:

O'quv nashrlari quyidagi turlarga bo'linadi [2]:

-o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'rnini belgilovchi funksional xususiyatiga ko'ra;

- maqsadiga ko'ra;

- taqdim etiluvchi axborot xarakteriga ko'ra;

- matnning tashkil etilishiga ko'ra;

- ifoda etilish shakliga ko'ra

Elektron nashrlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- bosma ekvivalentining mavjudligiga ko'ra;

- asosiy axborot tabiatiga ko'ra;

- maqsadiga ko'ra;

- tarqatilish texnologiyasiga ko'ra;

- elektron nashr va foydalanuvchi orasidagi muloqot xarakteriga ko'ra;

- davriyligiga ko'ra;

- strukturasi ko'ra.

Hozirgi vaqtda o'quv nashrlarining to'rt xil turdagi nashrlarni o'z ichiga oluvchi tipologik modeli mavjud bo'lib, bularga:

• Dasturiy-uslubiy (o'quv rejasi va dasturlari);

• O'quv-uslubiy (uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar);

• O'qituvchi (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari);

• Yordamchi (praktikumlar, masala va mashqlar to'plamlari).

Elektron axborot resurslari va ta'lim vositalaridan foydalanish. Elektron ta'lim resurslari zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan tashkil topadi. Elektron ta'lim resurslari an'anaviy majmualaridan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi. Elektron ta'lim resurslari asosida o'quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim oluvchilarga o'qishga qiziqishni yanada o'ttiradi, ta'limning interaktiv xususiyati asosida qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'quv materiallarini o'zlashtirilishining samaradorligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda elektron ta'lim resurslari real hayotlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini beradi, o'quv materiallarining o'zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki ta'lim oluvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini bildiradi. Elektron ta'lim tizimining ajralib turadigan harakterli tomoni shundan iboratki, unda interaktiv dasturlar yordamida talaba bilan kompyuter o'rtasida muloqatni vaqt fazosining ixtiyoriy qiymatida tashkil etish mumkin. Shu bilan birga o'qituvchi va talaba orasida masofaviy muloqatni o'rnatish imkoniyati yaratiladi [5].

Elektron ta'lim tizimi guruhli o'qitish shaklida ta'limga individual yondashishni amalga oshiradi. O'qitishning texnik vositalarining asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni

an'anaviy o'quv jarayonlaridan o'qitishni tashkil etish va o'qitish usullari bilan farqlanadi. O'qitishning bunday shakli asosida bir nechta ma'lum didaktik tamoyillar yotadiki, ularni quyidagicha ifodalash mumkin [5]:

1. O'qitish jarayoni talabani mustaqil o'rganishga qaratiladi. Bu tamoyil o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabani rolini aniqlab beradi.

Ma'lumki, o'qituvchi talaba bilan shaxsiy muloqat orqali bilim berish jarayoni sifatini hech qanday texnik vositalar bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Lekin bu pedagogik holat ommaviy o'qitish jarayonida samara bermay qoladi.

2. Talabani bilim olishga moyilligi faol xarakterga ega bo'lishi kerak. Kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'qitishni faol xarakterli talabani o'z bilimni oshirish bilan o'ta bog'langan bo'lib, u talabani o'quv jarayonida faol qatnashishini talab qiladi. Faol qatnashish esa talabani o'qishga bo'lgan qiziqishi va bilim olish istagidan kelib chiqadi.

3. O'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. O'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyati individual o'qib-o'rganish faoliyati asosidagina amalga oshishi mumkin. Bunday shaxsga yo'naltirilgan o'qitish ommaviy bilim berish sharoitida faqat kompyuter texnikasi va texnologiyasi asosida tashkil etilgan o'quv jarayonidagina amalga oshadi. Bunda har bir talaba o'quv materialni o'z tempida o'z yo'li bilan bosib o'tadi. Uning o'quv materialni qaysi yo'l bilan qanday tempda bosib o'tishini elektron ta'lim tizimi talabani bilimiga qarab yo'naltiradi. Talaba tizim tomonidan belgilangan dasturni ketma-ket o'qib o'rganishi orqali erishishi kerak bo'lgan bilimni oladi.

4. O'quv materiallari tizimlashtirilgan bo'lishi lozim. Bu tamoyilga ko'ra kursning yoki fanning o'quv materiallari o'quv modullariga - nisbatan mustaqil va maqsadli bilim beruvchi bo'laklarga ajratilishi kerak. Shu bilan birga modullar orasida barcha mavjud mantiqiy va boshqa turli

bog'lanishlar o'rnatilishi lozim. Bir dars uchun mo'ljallangan o'quv materialini shunday bo'lakchalarga ajratish kerakki, ularni o'rganish oson va majburiy bo'lsin. Bu tamoyilni yana kichik qadamlar tamoyili ham deb atashadi.

5. Ijobiy qayta aloqaning mavjudligi. Talaba kichik bo'laklarga ajratilgan o'quv moduli bilan tanishib bo'lgach, o'zini nazorat qilish uchun test ko'rinishidagi topshiriq oladi. Testdan o'tish yoki o'tmasligiga qarab materialni qaytadan o'zlashtiradi yoki keyingi modulga o'tiladi. Bu tamoyil talaba bilimni mustahkamlashga qaratilgan.

6. Qiyinlashib borish tamoyili. Bu tamoyil asosida talabaga kursni bosh qismida oson topshiriqlar va ko'plab yordamchi ma'lumotlar beriladi.

Kursni har bir keyingi qadamlarida yordamchi ma'lumotlar kamayib, topshiriqlar qiyinlashib boradi. Kurs oxiriga borganda talabaga hech qanday yordamchi ma'lumotlar berilmaydi, u topshiriqni olgan bilimlari asosida mustaqil bajarishi lozim bo'ladi.

7. Bilimlarni differensial mustahkamlash tamoyili. Kurs dasturida keltirilgan har bir modulni bir necha marta (3-6 marta) takrorlash, undagi topshiriqlarni bir necha variantlarda bajarish, qo'shimcha topshiriqlarni o'rganish talab etiladi [6].

Xulosa: Bu ishda oliy ta'lim muassasalarida e-learning dan foydalanish tajribasini O'zbekistonda qo'llash usullari tahlil qilindi. «E-learningning ta'lim tizimidagi o'rni va ta'lim sifatini ta'minlashdagi ahamiyati haqida ilmiy muhazalar keltirilgan. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida elektron ta'lim tizimi qo'llanishining hozirgi holatini o'rganish orqali, oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda elektron ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati ko'rsatildi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida tashkil etilgan elektron ta'lim tizimlari ta'lim sifatini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Prenov B.B. va boshqalar. Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash: E-learning. –T.: 2017, 107-b.
2. Prenov B.B., Atabaeva B.J. Principles of effective application of "E-learning" in the educational system. // Neuroquantology | November 2022, Volume 20 || DOI: 10.14704/NQ.2022.20.15.NQ88236/ ISSUE 15 |PAGE 2485-2491, Nov, 2022, P. 2485-2491.
3. Пренов Б.Б., Атабаева Б.Ж. E-learning таълим тизимида самарали қўллаш тамойиллари (математика фани мисолида) // Инновационные технологии в науке и образовании. –Нукус: 2018, -С.112-115.
4. Морозов И. E-learning в бизнесе: потребности, возможности, перспективы. URL: <http://www.ccc.ru/magazine/depot/06>.
5. Якушева Н.М. О мотивации применения e-learning // Стандарты и мониторинг в образовании. 2011, №6. -С.58-60.
6. Соболева Э.С. Современная подходы в оценке качества e-learning. //Качества образования. 2011, №9. -С. 44-46.
7. Jaxanshaevna, Atabaeva B. "Using a Modular Approach in the Credit System of Training." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020.

REZYUME. Bu maqolada jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'limdan foydalanish tajribasi va O'zbekistonda qo'llanilayotgan elektron ta'lim usullari tahlil qilinadi. Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari va ularning o'quv jarayonlarini takomillashtirishdagi tatbig'i keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализирован опыт использования электронного обучения в ведущих мировых высших учебных заведениях и методы электронного обучения, применяемые в Узбекистане. Представлены технологии создания электронных образовательных ресурсов и их применение в совершенствовании процессов обучения.

SUMMARY. This article will analyze the experience of using e-learning in the world's leading higher education institutions and the methods of e-learning used in Uzbekistan. The technologies for creating electronic educational resources and their study in the improvement of educational processes are presented.

ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ БЎЙИЧА МУТАХАССИСЛАРНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

З.П.Расулов – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти

Таянч сўзлар: спорт, спортчи, тренер, педагогик обрў, психологик хусусиятлар, педагогик такт, мусобака, касб, касбий салоҳият, қобилият, мулоқот, диққат, хотира, психомотор ҳаракат, эмоция, касбий етуклик.

Ключевые слова: спорт, спортсмен, тренер, педагогическая репутация, психологические особенности, педагогические такт, соревнования, профессия, профессиональный потенциал, способности, общение, внимание, память, психомоторное движение, эмоции, профессиональная зрелость.

Key words: sport, athlete, trainer, pedagogical reputation, psychological characteristics, pedagogical tactics, competition, profession, professional potential, ability, communication, attention, memory, psychomotor movement, emotion, professional maturity.

Таълим тизимида тренерлар, тренерларнинг касбий-психологик билимлари ва касбий жараёнга киришишга тайёргарлик масаласини педагогик жиҳатдан тадқиқ қилиш муаммоси республикамизда энг муҳим ўрин тутадиган психологик тадқиқотлардан бири саналади.

Мазкур йўналишда олиб борилаётган илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, психологиянинг комплекс

тармоқларидан саналган спорт психологияси, касбий психология, меҳнат психологияси ва дифференциал психология каби йўналишларини янада янги илмий-назарий қарашлар билан такомиллаштиради.

Касбий-психологик тайёргарлик муаммосини спорт соҳасида фаолият юритадиган тренерларда ўрганиш билан бир қаторда ижтимоий ва психологик томондан

катта ёшдаги тренерлар мисолида ўрганиш ҳамда тренерларнинг касбий-психологик тайёрлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш ва уни амалиётда жорий этиш психологик нуқтаи назардан аҳамиятли ҳисобланади.

Бўлажак тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлик билимларини шакллантириш қандай кечаётганлиги, яъни касбий тайёргарликни ўрганишда уларни қай тарзда муносабатларга киришадиганлиги, касбий мулоқот давомида юзага келадиган қийинчиликлардан муҳофазаланиш, шу билан бир қаторда тренерлик қобилиятларини ривожлантиришда психологик хусусиятларнинг роли қандай эканлиги муҳим омилдир.

Тренерларни тайёрлаш бўйича таълим муассасаларида таҳсил олаётган ҳамда малака ошириш институтида билим ва малакаларини оширадиган тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштиришнинг психологик жиҳатлари юзасидан педагогик кузатувлар ўтказилди.

Кузатувлар натижасида қуйидагилар аниқланди:

- маҳаллий шароитда тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлигини такомиллаштириш борасида етарлича илмий-тадқиқотлар олиб борилмаган;

- тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлиги даражаси қониқарли эмаслиги боис, юқори спорт натижалари ҳамда спортчиларнинг психологик тайёргарлиги ҳолати талаб даражасида эмаслигига сабаб бўлмоқда;

- бўлажак тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлиги даражасини белгилловчи ўқув меъёрий ҳужжатлар такомиллаштирилмаганлиги боис мазмунан тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлиги юзасидан мавзулар етарлича қамраб олмаган ва мазмунан бойитилмаган;

- малака ошириш тизимида тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлиги бўйича ёндошувлар етарли даражада эмас;

- жисмоний тарбия ва спорт соҳасида тренерлик фаолияти билан шуғулланиши учун касбий-психологик тайёргарлигини такомиллаштирувчи механизмлар асосида қайта тайёрлаш тизими такомиллаштирилмаган.

Педагогик кузатувлар қўйилган вазифаларнинг бажарилишини оптимallasштиришга имкон берди. Тадқиқот олиб бориладиган тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлигини инobatга олган ҳолда педагогик жиҳатлари намоён этишга ёрдам берди.

Педагогик кузатувлар ҳамда илмий тадқиқот ишларининг таҳлили асосида шундай ҳулосага келиндики, келгусида меҳнат фаолияти жараёнида спортчи-ўқувчиларнинг психологик тайёргарлиги билан ишлаш бўйича касбий билим, малака ва қўникмалардан фойдалана олиши, айниқса, ўзининг ва спортчиларнинг психологик ҳолатларини тўғри англаши, ўзини-ўзи назорат қила олиши, касбий самарадорликка эришиш бўйича кузатувчанлик сифатлари, тренерлар касбий-психологик тайёргарлигини такомиллаштириш кўпроқ инсон касбий типлар доирасида фаолият олиб бориши, сезгирлик, ақлий-интеллектуал, иродалилик, кузатувчанлик, коммуникативлик ва диққатнинг барқарорлиги каби психологик хусусиятларига боғлиқлиги бўйича умумий ва махсус қобилиятлари шаклландирилганлигининг сифат кўрсаткичлари ҳисобланади.

Тренерларнинг касбий – психологик тайёргарлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш

моделига асосланган педагогик ишланмаларни яратиш алоҳида аҳамиятга эга бўлган вазифалар саналади. Мазкур жараёнда бўлажак тренерларни касбий-психологик тайёргарлигини ривожлантиришнинг технологик модели алоҳида ўрин тутди. Тренерларнинг касбий–психологик тайёргарлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш модели бу – тизимли равишда амалга ошириладиган технологик механизм бўлиб, уларсиз тренерларни касбий-психологик жиҳатдан тайёрлаш муваффақиятли кечмайди. Бизнингча, ҳар қандай илмий модел тадқиқот объектининг муҳим хусусиятларини, унинг келажақдаги имконияти ва ҳолати ҳақидаги маълумотларни англашга имкон берадиган тасвирдир. Қолаверса, мазкур модел тренерларни касбий–психологик тайёргарлигини ривожлантиришнинг механизмлари моҳиятини, уни такомиллаштиришнинг педагогик шарт-шароитлари кабиларни тушунтиришга кенг хизмат қилади.

Тренерларнинг касбий-психологик тайёргарлигининг технологик модели ўз мазмунини барқарор диққат, ижтимоий интеллект, ҳиссий-иродавий барқарорлик, альтруизм, толерантлик, кучли хотира, кучли ирода, креативлик, ташаббускорлик, илмийлик, ўз-ўзини ривожлантириш, сезгирлик, эмоционал интеллект, фикрлаш услубига эғалик, инноваторлик, муваффақиятга интилувчанлик, даъвогарлик, коммуникативлик, бошқарувчанлик, мустақиллик, ижтимоий компетенция, ижодкорлик, чидамлик ва ҳоказо.

Тадқиқотчилар Л.И.Лубышева ва В.А.Магинлар таъкидича, спорт тренерининг спортдаги муваффақияти унинг касбий профессионаллик даражасига боғлиқ. Малакали тренер бу – касбий фаолиятни юксак даражада эгаллаган, иш жараёнида онгли равишда ўзгариб, ривожланиб борадиган, ўз касбига ижодий ҳисса қўша оладиган мутахассисдир. Спорт мураббийининг фаолияти кўп қиррали бўлиб, унинг алоҳида функциялари мустақил амалга оширилади чунки, спортчининг маданиятини, машғулотининг ташкилий ва бошқа функцияларини бериб бериш ажратиш жуда қийин [1].

Юқоридаги таҳлиллардан фарқли ўлароқ, М.В.Саная тренер шахсига хос яна бир муҳим қобилият турини ажратади. Унга кўра, ижтимоий қобилият тренернинг шогирдлар, ҳамкасблар, маъмурият ва бошқалар билан ижобий алоқаларни ўрнатиш, юзага келадиган низоларнинг олдини олиш, муомала қилиш орқали спортчиларнинг турли хатти-ҳаракатларини аниқлай олиш кабилар билан тавсифланади [2].

Юқоридагилардан кўринадики, келтириб ўтилган ҳар бир педагогик сифатлар бўлғуси спорт тренери учун ўта аҳамиятли саналади. Ушбу сифатларсиз спорт машғулотларини самарали олиб бориш ҳақиқатдан ҳоли саналади.

Замонавий педагогика ва психология фанига оид айрим манбаларда, бўлажак спорт тренери ва унга хос шахслилик хусусиятлари, шунингдек, тренерга хос бошқарув услублари ҳақида ҳам эътиборга молик мулоҳазалар учрайди [3]. Яъни тренер шахсига хос фазилатлар, психологик хусусиятлар, индивидуал-психологик хусусиятлар, касбий хусусиятлар, толерантлик, фидоийлик, ўз ўзини камол топтириш, касбий маданияти, мулоқот маданияти каби тушунчалар идеал тренер имижини ёки касбий профилини белгилайди. Шунинг учун ҳам ушбу феноменларни тренерлик фаолияти билан боғлиқ ҳолда ўрганиш ўта аҳамиятли саналади.

Адабиётлар

1. Лубышева Л.И., Магин В.А. Инновационные технологии в профессиональной подготовке спортивного педагога.-М.: Теория и практика физической культуры, 2005–123 с.
2. Саная, М.В. Психологические особенности деятельности и личности тренера: лекция для студентов РГАФК / М.В. Саная. – Москва: РГАФК, 1997. – 25 с.
3. Казакова, Т.Б. Профессионально-педагогическая направленность личности тренера / Т.Б. Казакова, М.К. Павлова // Ананьевские чтения: тез. науч.-практ. конф. «Ананьевские чтения – 2000»; СПб. ун-та; под ред. А.А. Крылова. – СПб., 2000.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақола бўлажак спорт тренерларининг касбий салоҳияти мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида тренер салоҳиятини тушунтирувчи психологик ва педагогик сифатларнинг айрим назарий тадқиқотлари таҳлил этилган. Мақолада келтирилган илмий тушунчалар ва илмий концепциялар таҳлилида иловада келтирилган илмий манбалар асос қилиб олинди.

РЕЗЮМЕ. Эта статья посвящена теме профессионального потенциала будущих спортивных тренеров. Также в тексте статьи были проанализированы некоторые теоретические изменения психологических и педагогических качеств, объясняющие тренерский потенциал. В анализе научных понятий и научных концепций, представленных в статье, за основу взяты научные источники, представленные в приложении.

SUMMARY. This article is devoted to the topic of the professional potential of future sports coaches. Also in the text of the article, some theoretical studies of psychological and pedagogical qualities explaining the potential of the coach are analyzed. In the analysis of scientific concepts and scientific concepts presented in the article, the scientific sources presented in the application were taken as the basis.

BOLALAR MUSIQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATIDAN FOYDALANISH USULLARI

S.E.Romanova – *pedagoqika fanlari nomzodi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: musiqa, tarbiya, ong, asar, emotsional dramaturgiya, aʼftakt, ijroni boshlash, qarsak, fahr hissiyoti.

Ключевые слова: музыка, воспитание, сознание, работа, эмоциональная драматургия, афтакт, начало выступления, аплодисменты, чувство гордости.

Key words: music, upbringing, consciousness, work, emotional dramaturgy, aftertact, the beginning of the performance, applause, pride sense.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqa tinglash faoliyatida musiqani oʻrganish va bilish uchun musiqani ularga televizor, radio, teatr, multfilmlar, mp3 va DVD orqali eshittirilishi oilada va bogʻchalarda amalga oshirish ularni tarbiyalash bilan barobar. Ularni harakatchan oʻyinqaroqligi sababli asarlarning hamohangligini qabul qilishadi, repertuarlarning mazmuni va mavzusi tomonidan turli xil boʻlishini qabul qiladi. Shu asarlar ularning sezimlarini koʻrsatish bilan birga kundalik turmushimizni va tabiatni aks ettirish lozim. Ilk qadamdan-oq, bolalar musiqani eshitib boshlashadi, ularni eshitib kichik miyalarida tahlil qiladi va unga mos harakatlar qilishadi.

Bolalarning ongi rivojlangandan keyin qoʻshiqlarni kimlar tomonidan yaratilishi haqida suhbatlar, savol-javoblar oʻtkazish orqali oʻrgata bilishdan iborat.

Musiqa elementlari asosan qoʻl bilan kuy harakati tovushlarning baland va pastligi, uzun va qisqaligi, qoʻshiqda muallimning qisqa kirish soʻzi (muallifi, tarixiy xususiyatlari, hayotiy ahamiyati, gʻoyaviy mazmuni va boshqalarni xuddi suhbat qurgandek qisqa tushuntirib, ularni musiqiy savodxonligini oshirish, qoʻshiqni ijro etib yoki disk-lentalar yordamida eshittirish yoʻli bilan ashulaning musiqa xarakteri, alohida ijro uslublari belgilash, qoʻshiqni musiqiy boʻlimlarga boʻlib oʻrgatish, ijro sifatini xususida ishlash, ashulani aytish va qoʻshiq haqidagi bolalarning fikrlarini bilish, fikrlarini inobatga olib suhbatlar oʻtkazish lozim.

Musiqa darsi dastur asosida rejalashtirib, koʻrgazmali qurollar yordamida musiqa oʻqitishning ogʻzaki, amaliy solishtirish metodlaridan foydalanib, darsda oʻquvchilarning eʼtiborini oʻziga qaratib, oʻyin elementlari, raqsga tushib, musiqadam tashlab yurish, qarsak chalishni mazmundor ijro etish bilan metodik asosda olib boriladi. Kichik yoshdagi bolalari oʻyin bilan bogʻliq boʻlgan ishlarni koʻproq qiziqadilar. Sababi ularda oʻyin ularning ijtimoiy turmushining bir boʻlagi oʻyin deb oʻylaydilar. Ular oʻzlari erishmoqchi boʻlgan ishlarini, orzu- umidlarini, maqsadlarini oʻyin orqali amalga oshiradi, oʻzini ishlarini subyekt sifatida mustaqil boshqaradilar. Bu esa ularni oʻz ustida mustaqil ishlashlari uchun zamin yaratadi, kelajakda oʻzini oʻzi olib ketishida bir tayanch boʻlib xizmat qiladi va shakllanib boradi [3].

Ularning ovoz apparatlarining nozik, moʻrtligi, yaxshi rivojlanmaganligi sababli ovozlari faltset turida jaranglaydi. Ovoz diapazoni do₁ – sol₁, do₁ – do₂ gacha oraliqda boʻladi. Musiqa ritm, kuy, temp, dinamika, oʻlcham haqida maʼlumotlar, malaka va tajribalar aniq nazariy bilimga aylanadi. Musiqa darsini mustahkam oʻzlashtirishda birinchi sinfda olgan bilimlarga tayanishi kerak. Shuning uchun ham musiqa oʻqitishda bogʻlanishli sistemalilik tamoyillariga amal etishi kerak.

Musiqa eshitish musiqa ishlarini yetakchisi hisoblanadi. Negaki darsda qoʻllaniladigan hamma musiqa materiallari asosidan eshitish orqali oʻzlashtiradi.

Ikkinchi sinf tematikasida darsning badiiy kompozitsiyasi amalga oshadi. Darsning kulminatsiya nuqtasi bolalarga aktiv qiziqish uygʻotadi, badiiy emotsiya sezimlari hosil etadi va darsning emotsional dramaturgiyasiga erishishi mumkin.

Muallim darsni ishonchli dalillar yordamida, texnik qurollar, texnologik kartochkalar orqali oʻtishi lozim. Dars jadvalini tuzishda ijodiy yaxshi tayanishi kerak.

Bolalarga musiqani terang oʻrgatish uchun quyidagi uch turidan foydalaniladi:

1. Xor boʻlib ashula aytish;
2. Qarsak chalish va baraban, doira singari cholgʻu asboblari musiqaga ritmik joʻr boʻlishi;
3. Musiqaning xarakterini va obrazlarini harakatlarida koʻrsatish.

Oʻquvchilarni doimo qoʻl va oyoq hakatlariga oʻrgatib borish lozim. Diqqat, aʼftakt, ijroni boshlash, ijroni yakunlash va boshqa kerakli dirijyorlik choralarga amal etib qoʻshiq aytish kerak, ijro vaqtida oʻzini tuta bilishni eslatib qoʻyish kerak. Katta maktabga tayyorlash guruhi bolalar tajribasining oshib borishi fiziologik oʻsishi munosabati bilan ovoz diapazoni, tembri oʻzgarish belgisi tizim asosida olib borishi talab etiladi. Musiqa tinglashda oldingidan murakkabroq musiqa va qoʻshiqlarni eshittirish quyidagi bilim va tajribalar rivojlanib, shakllanib borib, amaliyotda bajarilishi shart:

1. Musiqani ritmik sxemalarini boʻgʻinli soʻzlar bilan aytishi (gʻun-cha, bo-la-lar, lya-lya-lya, top-top va hakazo);
2. Kuchli va kuchsiz tuygʻularni aniqlash va ularni sezib aytishlari.
3. Qarsak chalib va cholgʻu asboblari cholib kuyga ritmik qoʻshilish;
4. Marsh va raqs xarakterini harakatlarda koʻrsatish;
5. Lad toʻgʻisida bilimlarni mustahkamlash.

Katta guruhda musiqa tarbiyasi bir talay aniqlashadi, asar xarakterini aniqlash bilan marsh qoʻshiq va kuylarning major va minor tovushlarini ayira bilish bilan belgilanadi. Ularga qoʻshiq mazmunini major yoki minor kayfiyatda ekanligini tushuntirib taqqoslash jarayonida ularga qoʻshiq xarakterini aniqlashni topshirma sifatida savol bersak boʻladi.

Ularning ovozigina va diqqatiga eʼtibor berish kerak. Baqirish, kuchanib ashula aytish yaramasligini ularga tushuntirish, ovozlari kamchilik sezilsa lor koʻrigiga olib borib koʻrsatish, ofozni asrash qoidalarini tushuntirib boriladi.

Shuningdek, bolalarni musiqaning tuzilishi va nota savodxonligiga xos shu boshlangʻich bilim va salohiyatga

ega bo'ladilar, xor bo'lib ijro etishda o'zini tuta bilish, asar mazmuniga hos his tuyg'ularni seza olish, eshitib tinglashga asari to'g'risida suhbatlarda ishtirok etib, musiqa nolasiga xos harakatlarni bajarish, musiqa ritmiga cholg'u asboblarga jo'r bo'lib aytish singari malaka va tajribalarga ega bo'ladilar.

Musiqa muallimi har bir yil va fasl, chorak mavzularini dastur bo'yicha dars faoliyatida mavzularni bir-biri bilan mazmunan bog'lab o'tishi kerak bo'ladi. Ular mavzular almashinuviga tushunib borishi kerak.

Maktabga tayyorlash guruhi bolalarining eslash qobiliyati, ovoz apparatlarining rivojlanishi, ovozi biroz aniqroq, tajribalarga egaligi bilan o'rta guruhdan farq etadi. Ular faoliyat yoki mashg'ulotning har bir elementini tajribalarga asoslanib tushuntirib boriladi. Dars jadvalini tuzganda ayniqsa ijodiy yondashish, uning tuzilishini bir tomonlama bog'lab turish, asarlar tartibini sinf imkoniyatlariga xos etib belgilash, bolalarning faol qiziqishlarini uyg'otish, badiiy his tuyg'u kechinmalarini hosil etish, ularning ovozigacha mos etib tuzish kerak. Bolalar o'quv jarayonida musiqaning oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida birgalikda rivojlanishini, musiqaning tushunchalari, uning turlari, musiqa asboblari va ularning turlari, tuzilishi va musiqa mazmuni o'rganib boriladi. Musiqa bilan unli tovushlarni musiqa rahbarining aytishini qaytalab aytish, taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi.

Bu o'rganilayotgan musiqa yoki qo'shiqning musiqa asboblari aniqlashga, toza to'g'ri aytish va qo'shiq mazmunini mazmunli etib tushunib aytishga o'rgatish asosiy rol o'ynaydi.

Bolalar damni to'g'ri olish, jumalarni oxiriga yetkazishni sekin-asta o'rganib boriladi. Asarlarni ijro etishga erishish uchun avvalo, toza intonatsiyaga erishish kerak, bu ovoz sozlash jarayonida erishiladi. Avvalo tertsiya kengligida uch tovushli mashqlarni aytirish, bir ikki kanon shaklida mashqlar aytish orqali bolalarni musiqiy ongini rivojlinib, eshitish qobiliyati shakllanib boradi.

O'quvchilarni musiqa to'g'risida bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatini rivojlantirishni musiqa tinglash ulkan ahamiyat kasb etadi. Musiqa rahbari (yetakchisi) ijrosidan tashqari disklar yordamidan foydalanib, bolalar xori, tajribali xonandalar, sozandalar ijro etgan cholg'u asboblari ijro etgan musiqiy asarlar, xalq ashula va raqslarni tinglab ularga singdirish bilan bolalarni musiqa olamiga olib kirishi badiiy tuyg'uni, qiziqishni rivojlantirish mumkin. Bulardan mavsum mavzularini ularning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi.

Musiqa mashg'uloti jarayonida bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlarining dars metodiga, san'atiga, qo'shiq aytishga qiziqitirishdan iborat.

Mashg'ulot jarayonida quyidagilarga e'tibor berish, fanlar bilan qatnashi metodikasi boshqa fanlardan olingan bilim va tajribalaridan foydalanish:

-Bolalarning musiqiy ongini va ma'naviyatini o'stirish, qo'shiqda sof unisonga erishish, so'z boshida dam olish, so'z oxirigacha tejash, lad haqida ma'lumot, o'lchamlarni bilish, notaga qarab ijro etish.

-Bolalarni qo'shiq aytishga qiziqitirish. Musiqa savodining eng kerak ahamiyati-qo'shiqni nota nomlari bilan ijro etish, tinglash uchun berilgan asarlarni analizlab bilish.

-Vokal-xor tajribalari: bu davrda bolalar ovoz pardalari to'liq shakllangan bo'lib, dam olishi teranglashadi. Ko'krak qafasi diafragmani kengaytiradi. Bolalar ovozi ochish uchun mashqlar aytish, ularga qo'shiq o'rgatishda dirijyor usulida, fortepiano musiqa asbobidan yaxshi foydalanish, qo'shiq o'rgatish davomida toza unisonga, ikki ovozli badiiy ijroga erishish, ovoz apparatlari shakllanganligi sababli ularni ko'proq to'garak ishlariga jalb yetish lozim.

MTM tarbiyalanuvchilari har bir guruh bosqichi sayin ovozlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ularning

yetishmagan bilimlarini mustahkamlashda, ularni sinfdan tashqari to'garak ishlarida davom ettirish kerak. Yoki qo'shimcha dars jarayonida o'yin usuli orqali ularga musiqani tushinish uchun musiqa savodi mazmunidagi har xil o'yinlar taklif etib, ularni musiqa savodxonligiga o'rgatib borish mumkin. Masalan, kichik guruhlarda kartochkalar yordamida, ular dinamik belgilar solingan konvertni ochishadi, berilgan har bir stol yoki parta ustidagi vatman qog'ozga shart bo'yicha belgilarni terib tanlab yopishtirishadi. Bu o'yinni yakka holda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, guruh bolalariga savol tashlaymiz: Ovozni yarim ton ko'tarib, ovozni biroz ko'tarsak qaysi belgi qo'yiladi? Yoki boshqa o'yin shartlari yordamida amalga oshiriladi. Ular bunday metodlar orqali qiziqishi o'sib, darsga yanada mehr qo'yadi hamda musiqiy savodxonligi shakllanib musiqani oson tushuna oladigan bo'lishadi. Shular bilan birga saviyasi rivojlanadi.

Musiqa tarbiyasida ikki xilga bo'linishi mumkin: Bular jamoa bo'lib kuylash, yakka kuylash.

Jamoa shakllariga xor jamoasi kiradi, ular bolalarni jamoaga o'rgatadi. Musiqa faoliyatida o'tiladigan asarlarning, mavzularning ko'pchiligi tabiat bilan bog'liqdir. Darsdan tashqari tarbiya ishlari sayohatlarda, qo'g'irchoq teatrlardagi ko'rinishlarni dars mazmuni bilan bog'lab o'rgatilsa bolalar qo'shiq mazmunini to'g'ri va chuqur egallaydilar. Masalan, yaproq haqida qo'shiq o'rgatilsa yoki gul haqida qo'shiq bo'lsa maktab atrofiga sayohat qilganda yoki bo'lmasa gul bargni sinfxonaga olib kelib uning xususiyatlari xuddi bolalar kabi nozik, uzsa so'lib qolishi, uni asrab avaylash kerakligini hamda tabiatni shu kabi asrashlarini uqtirish lozim. Bu bilan birga ularga ekologik madaniyatdan ta'lim bergan ham bo'lamiz.

Darsni sifatli amalga oshirish uchun audio-video magnitafon, plastinkalardan foydalanish, dinamik belgilarni kompyuter, slayd yordamida ularning belgi asosida o'zgarishini ko'rsatib berilsa ularning qiziqishlari kuchayib, musiqa savodi bo'yicha savodi o'sadi, o'rganadi. Ulardan tashqari doska, kitob, cholg'u asbobi va boshqa ko'rsatma qurollardan foydalanishga musiqa muallimi yoki metodist imkoniyatlar yaratishi kerak.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish, dars jarayonini sifatli olib borishdan tashqari, bolalar o'zi ko'rib, ishonib, darsga qiziqishi ortib boradi. Bunda musiqaning dinamik belgilari hamisha plakatlarda turishi, ularga har bir dars sayin tushunmay qolganida yordam berib, ko'raverib o'rganib oladi. Ular hatto dars oralig'idagi tanaffus paytida o'rganib, bilimlari shakllanib boradi, o'zi esa bularni sezmasdan o'rganib ko'zlari ham chiniqadi.

Keyinchalik ko'rsatma qurollar bilan boyitish tajriba metodlarimizga bog'liq. Iqtidorli bolalarga yaxshi tarbiya-viy ta'sirga ega ko'rsatma qurollarni pedagogik texnologiyalardan foydalanish, zamon talab ko'rsatma qurollar o'ylab topish, ularni metodikaga xos bo'lishini ta'minlanishini taqozo etadi.

Bulardan tashqari ko'rgazmali qurollar yaratganda bolalar yordamidan foydalanish, ularni mustaqil fikrlarini bayon etishida katta rol o'ynaydi.

Musiqa mashg'uloti umuman olganda, insonni yaxshi yo'lga boshlaydi, tarbiyalaydi, ko'p narsalarni o'rgatadi. Endigina o'sib kelayotgan bolalarning tarbiyasida, tuyg'usida poydevor tarbiya rivojini ta'minlaydi.

Bu xususda buyuk shoir Suxomlinskiyning quyidagi oltinga teng so'zlarini keltirib o'tamiz: «Musiqa go'zallikka, yaxshilikka, odoblikka chaqiruvchi nozik, juda ajoyib mo'jizaiy ta'sir etuvchi vosita».

Shuningdek, bolalarning tarbiyasida nafaqat savodxonlik, shu savodxonlikka chaqiruvchi tarbiyaning ahamiyati kuchli. Chunki tarbiya olgandan boshlab bolalar o'qishga harakat qilishadi. Bu bilan ularga bilim berish osonlashib bunaqa imkoniyat va vositalarni faqat musiqa darsida emas balki hamma fanlarda ham amalga oshirish, qo'llash mumkin.

Musiqiy jihatdan savodxon bola didsizlik, g'oyasizlik, tubanlik, dangasalik illatlaridan nari bo'ladi. Ularda atrof-muhitga nisbatan e'tibor, o'rtoqlari, ustozlari, ota-onalariga nisbatan hurmatning shakllanishida ham musiqa darslarining ahamiyati katta. Shu bois, har bir darsda o'quvchilarga musiqaga oid qandaydir yangilikni taqdim etib, ular esa bu bilimni qabul qilib shu sinfdan bir ma'lumot olib chiqishlari kerak.

Adabiyotlar

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. 2018, -T.: <http://fayllar>.
2. Ortiqov T., Romanova S. Muzikani oqituv metodikasi. (Oqituv qollanba). –Tashkent: "Tafakkur avlodi", 2020, 188-b.
3. <file:///C:/Users/user/Downloads/o'quvchi> yoshlarni musiqiy ongini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar.pdf.

REZYUME. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqa tinglash faoliyatida musiqani o'rganish va bilish uchu musiqani bolaning ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar bilan amalga oshirish masalasi ilgari surilgan.

РЕЗЮМЕ. В музыкальной деятельности детей дошкольного возраста выдвигается вопрос обучения и познания музыки способами, которые служат формированию психики ребенка.

SUMMARY. In the musical activity of preschool children, the question of teaching and learning music in ways that serve to form the child's psyche is put forward.

ASTRONOMIYA KURSIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARGA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARI VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH

G.I.Sayfullayeva – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: axborot, texnologiya, innovatsiya, amaliy mashg'ulot, astronomiya, amaliy mashg'ulot.

Ключевые слова: информация, технология, инновация, практика, астрономия, практика.

Key words: information, technology, innovation, practical training, astronomy, practical training.

Bugungi jamiyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida amaliy zaruriyatga aylanmoqda. Bu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishi ko'pchilik hollarda bugungi talaba kasbiy tayyorgarligining muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu ko'nikmalarni egallash nisbatan samaraliroq bo'ladi, qachonki bu jarayon nafaqat informatika darslarida, balki barcha fan o'qituvchilari darslarida o'z davomi va rivojini topsagina, bu yondoshuv yangi talablarni ilgari suradi, yangi texnikani o'zlashtirishga majbur qiladi va zamonaviy axborot o'qitish muhitidan foydalanishga asoslangan o'qitishning yangi metodikalarini yaratishni talab etadi [1:16].

Axborot texnologiyalarini qo'llashning yana bir imkoniyati–talabalarning mustaqilligini rivojlantirishdir. Talaba nazorat testlarini yechadi, masalani tushungan holda mustaqil ishlaydi va shuning hisobiga unda fanga qiziqish ortadi, fanni o'zlashtirishiga va bajargan ishiga qarab baho olishiga ishonchi ortib boradi. O'z javoblarining natijalariga qarab yo'l qo'yilgan xatolarini mustaqil ko'rishi va ularni tahlil qilishi yoki elektron testdagi yordamlarga qarab tuzatishi mumkin. Kompyuterdan foydalanishning yana bir afzalligi – talabalarni bir xil amallarni qayta bajarish kabi og'ir mehnatdan ozod etadi, tajribalarni tezkor bajarilishini ta'minlaydi va shuningdek, miqdorlarning bir biriga naqadar bog'liqligini ko'rishi mumkin.

Eng muhim imkoniyatlaridan biri esa, ba'zi astronomik jarayon va hodisalarni, masalan, Sayyoralar harakati, Butun olam tortishish qonuni, Gallaktikaning tuzilishi, Quyosh aktivligi davrida quyoshda dog'ning paydo bo'lishi kabi holatlarni kompyuterda modellashtirish imkoniyatining mavjudligidir. Bunday modellar hodisaning astronomik mohiyatini chuqur anglash imkoniyatini beradi.

Asosiy muammo shundaki, ularni yaratish uchun materiallarni qidirish qanday kechishida. Taqdimot materiallarining asosiy manbai sotuvdagi multimediyali disklar, Internet tarmog'idagi materiallar va o'qituvchi tomonidan yaratilgan ishlanmalar. Axborot manbalari orasida Internet tarmog'ini alohida qayd etish lozim, unda har xil astronomik jarayonlarni namoyish etuvchi ko'p sondagi fotografiyalar va videofilmlar erkin joylashtirilgan. Bu turdagi materiallarni o'zida mujassam etuvchi saytlar soni doimiy ravishda oshib bormoqda, masalan, "Astronomiya va animatsiyax" sayti bo'lib, unda ko'plab astronomik jarayonlarning animatsion sxemalarini topish mumkin. Axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida

Xulosa qilib aytganda davlat ta'lim tizimida olib borilayotgan izchil islohotlar zamirida etuk salohiyatli, bilimli, intiluvchan farzandlarni kamol toptirishdek ezgu maqsad mujassam. Zero, bugun yoshlarimizning teran bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy ruhda qurilgan o'quv binolarida ilmu fan o'rganayotgan o'g'il-qizlarning orzu o'ylari, maqsad va intilishlari haqida eshitishning o'zi kishida fahr hissini uyg'otadi.

astronomiyaga qiziqish ortadi, ta'lim sifati ko'tariladi, idrok etish faoliyati faollashadi, ilmiy fikrlash shakllantiriladi, individuallashgan va tabaqalashtirilgan yondoshuv amalga oshiriladi, shaxsning ijodiy rivojlanishi kuchayadi va o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash qobiliyati ham ko'tarilib boradi [2:57].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar respublikaning ravnaqini ta'minlaydigan istiqboldagi rejalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- madaniy taraqqiyotining asosi bugunigi kunda ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning bilim darajasi va egallagan ko'nikmalariga bog'liq ekanligini e'tirof etmoqda. Hozirgi zamon yoshlari bilimi va tarbiyasi davr talabiga javob beradigan hamda umuminsoniy ta'lim-tarbiya shaklsh tamoyillari bilan hamohang bo'lishi zarur.

Ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning samarali yo'llarini yoritish va tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish professor-o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash fanlararo aloqadorlikni amalga oshiradi, ta'lim mazmunini sifat jihatidan to'ldiradi, bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini orttirish barobarida ularning metodik tayyorgarligini zamon talablari darajasida tashkil etishga imkon yaratadi [3:51].

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash talabalarni mustaqil ishlashga va izlanishga undaydi, tashabbuskorligini ro'yobga chiqaradi, professor-o'qituvchining o'z ustida uzluksiz ishlashini ta'minlaydi va faoliyatining yangilanishiga olib keladi. Quyida innovatsion ta'lim texnologiyalari joriy etilgan astronomiya mashg'ulotlaridan namunalar keltiramiz:

Biz quyida o'quv jarayoniga qadamba-qadam qo'llaniladigan "Kubik" metodini qo'llashni keltiramiz. Bu metoddan darsni mustahkamlash vaqtida foydalanilsa, yaxshi natija beradi.

1-qadam. Mavzu o'tilgandan so'ng, mavzu bo'yicha biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani (kattalik, o'lchov birligi) quyidagicha yozish taklif etiladi:

Tasvirlang, Taqqoslang, O'xshating, Tahlil qiling, Ishlating, Foydali va zararli tomonlarini ayting.

2-qadam. Masalan, "Kepler qonunlari" mavzusi o'tilgandan so'ng, talabalar quyidagicha yozadilar.

1. Kepler qonunlari; 2. Ichki sayyoralar, tashqi sayyoralar; 3. Anomaliya; 4. Sayyora tezligi; 5. Davr; 6. Har bir sayyora ellips bo'ylab harakat qiladi; 7. Hamma sayyoralar uchun umumiy bo'lgan fokuslarning birida Quyosh yotadi; 8. Quyoshdan sayyora o'tkazilgan radius-vektor teng vaqtlar ichida teng yuzalar chizadi; 9. Sayyoralarning Quyosh atrofida aylanish davri kvadratlarning nisbati ularning quyoshdan o'rtacha uzoqligi kublari nisbatiga teng.

3-qadam Kepler qonunlari ta'sirida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar keltiriladi: sayyoralar harakati, sayyoralar joylashuvi B sayyoraning aylanish davrlari.

Shu tariqa o'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlab, erkin fikr yuritib, "Kepler qonunlari" mavzusi yuzasidan ko'plab qo'shimcha ma'lumotlar oladilar.

Talabalarga harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etish, mantiqiy fikrlash, o'rganilayotgan fan asosida xilma-

xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan keraklisini tanlab olishini o'rgatishga qaratilgan innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan, "Blits-so'rov" (tezkor so'rov) metodidan o'quv jarayonida mavzuni mustahkamlashda foydalanish yaxshi samaralar beradi. Buni biz yuqoridagi "Kepler qonunlari" mavzusida qo'llaymiz. Ushbu metodga muvofiq savollar o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar zamonaviy, guruh, juftlik va yakka tarzda qaytarilishi mumkin.

O'qituvchi talabalarning har biriga tarqatma material beradi va uni bo'lajak o'qituvchilar sinchiklab o'rganishlarini so'raydi. Keyin o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya'ni keltirilgan kuchlar ketma-ketligi fizika bo'limlari ketma-ketligi asosida belgilashlarini va quyidagi jadvalga kiritishlarini so'raydi:

Bo'lajak o'qituvchilarni 10 ballik tizimda baholash ketma-ketligi.

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka xato	Harakatlar ketma-ketligi
1	+	1	+	1	Keplerning birinchi qonuni
2	+	2	+	2	Keplerning ikkinchi qonuni
4	-	5	-	4	Keplerning uchinchi qonuni
3	+	3	+	3	Sayyoralarning konfiguratsiyasi
5	-	4	-	5	Sayyoralarning harakati
6	+	6	+	6	Sayyoralarning aylanish davrlari
7	+	8	+	8	Iogan Keplerning va Nyutonning umumlashgan qonuni
8	+	9	-	10	Sayyoralarning siderik davrlari
9	+	7	+	7	Ichki sayyoralar
10	+	10	-	9	Tashqi sayyoralar

Baholash: 9-10 ta to'g'ri to'liq javob (TTJ) - a'lo;

7-8 ta to'g'ri to'liqmas (TTo'J) javob - yaxshi;

5-6 ta noaniq javob (TNJ) - qoniqarli.

Ilmiy yangiligi: Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari astronomiya kursidan amaliy mashg'ulotlarga innovatsion ta'lim texnologiyalarini axborot texnologiyalari bilan birgalikda tatbiq etish metodikasi ishlab chiqildi. Bu orqali talaba amaliy mashg'ulotlarni oson o'zlashtirishi bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan foydalanishni

ham to'liq o'rganadi. Axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash va ularni mukammal bilish hozirgi zamon o'qituvchisi oldidagi eng birinchi vazifadir. Innovatsion ta'lim esa hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davr farzandlarini fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun juda muhim.

Adabiyotlar

1. Qutbeddinov A.K., Kamolov I.R., Toshpo'latova Sh.O. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. 5A110201-Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (fizika va astronomiya) darslik. "Azon kitoblari" nashriyoti 2022, 16- b.
2. Djuraev R. // Ta'limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent: 2010, 87-b.
3. Qahhorov S.Q. //Fizika ta'limida davriylik texnologiyasi. Monografiya.- T.: "G'afur G'ulom", 2005, 160-b.
4. Sayfullaeva G.I., Kamolov I.R., Haydarov B.K. //Talaba mustaqil ishi sifat samaradorligini oshirish //“Pedagogik mahorat” ilmiy jurnali. Toshkent. Iyul 2011 yil №3

5. Sayfullaeva G.I., Ne'matov Yu., Kamolov I.R. //O'ying fizik parametrlarini o'rganishda matematik hisoblashlardan foydalanish // "Yilning eng iqtidorli talabasi" tanloviga yuborilgan ilmiy maqolalar to'plami. –Navoiy: Fevral. 2012.

6. Sayfullaeva G.I., Kanatbaev S.S. //Matematik hisoblash asosida Quyosh va gigant sayyoralar orasidagi tortish kuchini topish// Professor-o'qituvchilar va talabalarining XXVII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –Navoiy: Aprel. 2012.

REZYUME. XXI asr – axborot texnologiyalari asri bo'lganligi bois, har qanday o'qituvchi, jumladan, astronomiya o'qituvchisi ham axborot kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishi lozim, demak, talabalarni turli xil manbalardan, masalan elektron manbalardan axborotlarni o'qitish zarur.

РЕЗЮМЕ. Поскольку 21 век – век информационных технологий, любой учитель, в том числе и учитель астрономии, должен развивать информационно-коммуникативную компетентность, поэтому необходимо научить учащихся уметь получать информацию из различных источников, например, из электронных источников.

SUMMARY. Since the 21st century is the age of information technologies, any teacher, including astronomy teacher, should develop information-communicative competence, so it is necessary to teach students to be able to receive information from various sources, for example, from electronic sources.

UDK: 93-94 (47)-2023

**BUGUNGI KUNDA JANRLAR EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH
BOSQICHLARI BORASIDA YANGICHA NAZARIY QARASHLAR**

K.Seitjanova – o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: janr, genezis, uslub, kompozitor, shakl, kategoriya, vokal, sonata.

Ключевые слова: жанр, генезис, стиль, композитор, форма, категория, вокал, соната.

Key words: genre, genesis, style, composer, form, category, vocal, sonata.

Bugungi kunda janrlar evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari borasida yangicha nazariy qarashlar yuzaga kelmoqda. Janr va janrlilik mavzulari L.Mazel, V.Sukkerman, B.Asafey, A.Alshvang, A.Doljanskiy, V.Konen, M.Lobanova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, janr tushunchasi va xususiyatlari borasida aniq bir to‘xtamga kelmagan. Misol tariqasida vokal ijodiyotni oladigan bo‘lsak, vokal musiqa cholg‘u musiqa bilan, romans esa qo‘shiq bilan bir qatorda janr sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, aralash janr va shakllardan fuga va variatsiyalar ham turli turkumli janrlarning kompozitsion tuzilma (strukturasi) sifatida qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqqan holda ko‘pchilik musiqashunoslar janr tushunchasining qat‘iy chegaralarini inkor qiladilar. Jumladan, Doljanskiy: “Janr bu musiqiy asarning turlari bo‘lib, u tuzilish, ijrochilar tarkibi, asar xarakteri va ijro o‘rni kabi turli belgilarga egadir”, – deb ta‘riflaydi [1:258].

XX asr musiqa ijodiyotida janrlarning o‘zaro ta‘sirilanishi, aniq chegaralarning yo‘qola borishi, ularning takomillashuvi yangi janrlarni vujudga keltirdi hamda bu jarayon musiqashunoslarning e‘tiborini tortdi. Boshqa bir guruh olimlar (Mazel va Sukkermanlar) esa kompleks tahlilni nazarda tutib, asarning tarkibiy tuzilishi, sotsial vazifasi, ijro va idroklash shartlarini hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydilar.

Aytish joizki, har ikki holatda ham bir yoqlamalik ko‘zga tashlanib, janrning tub mohiyati butkul ochib berilmagan. B.Asafey ta‘biri bilan aytganda esa janr tushunchasi musiqiy hayotda ijro sharoitlari va tinglovchi idrokiga bog‘liq ekan biz umumiy planda uni 2 guruhga ya‘ni:

1. Muayyan (bunda ijrochi va tinglovchilar orasidagi farq turlarga bo‘lgan) guruh.

2. Keng omma (ijrochi va tinglovchi bir butun bo‘lgan) guruhi uchun ijro etiladigan musiqa bo‘lamiz.

Har ikki ajratilgan guruhda ham musiqa tinglovchilar ommasining musiqaga munosabati nuqtayi nazaridan qaralmoqda. Bunday bo‘linish nisbatan kengroq tarqalgan badiiy yoki amaliy va badiiy bo‘lmagan tushunchalariga yaqin kelsa-da, aynan mos tushmaydi. Masalan, amaliy musiqa kino va dramatik teatrdagi musiqa misol bo‘la oladi va tinglovchi va ijrochi munosabatlari jihatdan taqdim qilingan musiqa mos tushadi.

Janr – tushuncha sifatida, etimologiya va genezisi

JANR – (frans. genre, lot. genus – xil, tur) – o‘ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari. Janrlarning eng umumiy tasniflanish butkul musiqani vokal yoki cholg‘u asarga bo‘linishidan iborat. Ammo janrlar ham uslub (stil) va shakl singari ko‘p ma‘nolidir. Birgina janr, (rod) tur, ko‘rinish tushunchalarini ularga ma‘nodosh yoki yaqin ma‘noli qator so‘zlar bilan qo‘llash mumkin.

Masalan:

A) biror guruhdan ajratish uchun variant, izotop, izomer,

B) guruhga kiritish uchun esa sinf, guruh, oila atamalarini ishlatish mumkin. Vaholanki, ularning biror biri musiqiy morfologiyada janr singari turg‘un ahamiyatini saqlab qololmadi va janr asosiy markaziy atamaga aylandi.

Rus musiqiy terminologiyasiga janr fransuz an‘analaridan kirib keldi. Janrning tub o‘zagi genos (γένος) grek tilidan olingan. Bunday atamalarni istagancha keltirish mumkin: gen, genetika, evgenika, genezis, genealogiya, genotip, genofond, avtogenniy, gomogenniy, va hokazo.

Fransuz tilida mazkur “genos” rus tilidagi janrga yaqinroq talaffuz qilinadi va rus tilida “rod” ma‘nosini beradi.

Janrlar – bu tarixan shakllangan va nisbatan turg‘unlashgan

a) konkret (ijtimoiy, maishiy, badiiy) maqsadga yo‘naltirilgan;

b) ijro sharoiti va vositasi;

v) tuzilish shakli va xarakterini aks ettiruvchi qator mezonlarni mujassamlashtirgan musiqiy asarlarning turi, toifasi, sinfi, xil va ko‘rinishlaridir [2]. Mazkur tarifda janrning aynan o‘ziga emas tub mohiyatiga umumiy tarzda urg‘u berilganligini ko‘ramiz.

Endi janrni yagona kategoriya sifatida qarasak:

Janr – u yoki bu badiiy butunlik hosil qiluvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan (genetik) ko‘p tarkibli tuzilishga ega o‘ziga xos qolip (matritsa)dir.

Mazkur formulirovka orqali janrni uslub va shakl tushunchalaridan ajrata olamiz. Masalan, uslub kim tomonidan yaratilganlikka, manbaga asoslansa, bunda janr qanday tarzda va qaysi genetik sxemada qaror topganlikka javob topadi, ya‘ni u konkret musiqiy asarning modeli, matritsa - kanon - asosi hisoblanadi.

Aytish kerakki, janrlar avvalo musiqa va hayotning real munosabatlari asosida yuzaga kelgan, turli musiqiy ifoda vositalarini o‘zida aks ettirgan badiiy fenomen hisoblanadi.

U nafaqat kompozitorlik, ijrochilik, pedagogik balki musiqa tarixi va nazariyasi kabi musiqiy amaliyotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Janrlarni o‘rganishdan asosiy maqsad u birinchi navbatda musiqaning estetik ahamiyatini, alohida bir asar yoki kompozitor uslubini belgilashda tahlilning asosiy fundamentidir.

Shunday bo‘lsa-da, janrlar nazariyasi shakl muammosiga nisbatan kamroq o‘rganilgan va u 3 asosiy guruhga bo‘linadi [3:278]:

1. Aniq (konkret) janrlarning tarixiy evolyutsiyasini, tarkibi va ifoda uslublarini, bevosita amaliyotda o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘rta asrlar, Uyg‘onish va Barokko davri, professional va xalq ijodiyotida, qolaversa, ko‘z o‘ngimizda yuzaga kelgan janrlarni o‘rganadi. Ularning soni Moskvada 1991-yilda nashr yuzini ko‘rgan ensiklopedik lugat 350 ga yaqindir.

2. Musiqiy janrlar nazariyasida janrlar klassifikatsiya (tasnifi)si muammolarini o‘rganadi. Tasnif esa muayyan davrning madaniyatning milliy xarakterini aks ettiradi.

3. Janrning tub mohiyatini o‘rganadi, ya‘ni, boshqa san‘atlardagi birliklari prototip (timsol)lari, musiqadan tashqari nazariy asoslarini o‘rganadi.

Bundan tashqari, janrlarni atama va tushunchalar tizimi jihatdan o‘rganish ham ahamiyatga molikdir.

Ushbu guruhlardagi asarlarni janr sifatida umumlashtiruvchi xususiyat, bu ularning mustaqil asar ekanligidir. Har bir guruhdagi asarlar ham o‘zaro bir nuqtada kesishadi ya‘ni, masalan: vals ham maishiy raqs, ham instrumental asar yoki simfonik asarning bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, har bir asarning ichki qat‘iy qonuniyatlari ko‘zga tashlanmaydi. Chunki, romans mustaqil vokal asar bo‘lsa ham, operalarga ariyalarning turli ko‘rinishlari sifatida kiritiladi. Ariya ham o‘z navbatida operaning bir qismi bo‘lsa-da, u ham mustaqil janrdir. Shu va shu kabi turli atamalarining turli holatlarda bir xil qo‘llanilishi, aniq va yakdil xulosalarning yo‘qligi janr tasnifot (klassifikatsiyasi)ni bir qadar murakkablashtirmoqda.

Janrlarning tasnifiy tizimi. Janrlarni tizimli tasniflash ancha qadimiy bo'lib, dastlab XIV asr boshlarida yashab ijod etgan Ioann de Groxeo risolasida aks etgan. Keyingi davrlarda T.V.Popova, V.A.Sukkerman, A.N.Soxor va O.V.Sokolovlar tadqiqotlarida yaratilgan tasnifotlar bir qadar universal hisoblanadi. Nemis musiqashunosi G.Besseler esa xronologik jadval tarzidagi tasnifotni taklif qiladi. U musiqiy janrlarni shakllar va turmushdagi vazifalariga ko'ra o'rganib, kutilmaganda taqdim etiladigan (prepodnosimiy – konsert) va kundalik amaliyotda (obixodniy – raqs, marsh, mehnat va diniy qo'shiqlari) turlariga ajratadi [2].

T.V.Popova janrlarni cholg'u va vokal guruhlariga hamda nemis hamkasbi Besseler izidan borib, ikki mezon: musiqaning paydo bo'lishi va ijrochilik xususiyatlariga ajratadi.

O'z navbatida B.V.Asafeyevning 30-yillardagi janrlar yuzasidan olib borgan tadqiqotlarini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Musiqashunos janrlar turkumini 6 guruhga ajratadi:

1. Og'zaki an'anadagi xalq maishiy (cholg'u va qo'shiq) musiqasi;
2. Yengil maishiy va estrada musiqasi, jumladan, yakkaxon ansambl, cholg'u, djaz va boshq;
3. Yakkaxon va kichik ansambllar uchun kamer musiqa
4. Katta orkestrlar uchun simfonik musiqa;
5. Xor musiqasi;
6. Dramatik-teatral musiqali-saxnaviy musiqa asarlari

V.A.Sukkerman tomonidan esa butkul yangicha qarash kiritilganligini ko'ramiz. U o'zining "Musiqiy janrlar" kitobida janrlarni tarkibiy tuzilishi jihatdan tahlil qilib, 3 guruhga ajratadi.

1. Lirik janrlar: qo'shiq, noktyurn, alla, poema, serenada va h.k.
2. Epik va hikoyasimon mavzuli janrlar: gimn, ballada, rapsodiya, uvertyura.
3. Raqs va harakat bilan bog'liq motor janrlar: marsh, etyud, tokatta, skerso va b.

Sukkerman tasnifoti janrlar tuzilish xarakteri jihatdan emas balki ijodiy jarayon va kompozitsion mantiqqa asoslangandir.

Barcha tadqiqotchilardan farqli ravishda O.V.Sokolov o'z ishida janrlarni boshqa san'atlarda mavjud yoki yo'qligi va funksiyasi jihatidan o'rganadi [4:128].

Ushbu asosda u musiqani 4 ko'rinishini keltiradi:

1. Sof musiqa ya'ni, dastursiz cholg'u asarlar;
2. Amaliy musiqa (Diniy musiqa);
3. Uyg'un musiqa (So'z va musiqa, Dramatik musiqa, Xoreografik musiqa, Televizion (ekran) musiqa);
4. Amaliy-uyg'un musiqa (Qo'shiqli, raqsana).

Ko'rinib turibdiki, musiqiy janrlar tasnifoti qator jihatlar bilan bog'liq bo'lib, turli guruhlariga ajratilib yoki birlashtirilib: hayotiy yuzaga kelishi, ijrochilik o'rni, boshqa sanatlar bilan hamohangligi, oddiy va murakkablik jihatlarida o'rganilar ekan.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib, Nazaykinskiy muayyan konkret musiqiy asarni tahlil qilish jarayonida 2 tamoyilga e'tibor qaratishni lozim topadi.

1. Janrlarni o'rganishda ma'lum maqsadni ko'zlagan holda istalgan kriteriya yoki tadqiqot uslubini tanlash kerak.

Adabiyotlar

1. Асафьев Б.В. Музыкальная форма как процесс - Москва: 1973, -С.258.
2. Besseler H. Aufsätze zur Musikästhetik und Musikgeschichte. Leipzig, 1978.
3. Лобанова М. Музыкальный стиль и жанр. История и современность сб. Проблема музыкального жанра: барокко, классицизм XX век. –Москва: 1990, -С.278.
4. Назайкинский Н. Стиль и жанр в музыке. –Москва: 2003, -С.128.
5. Попова Т.В. Музыкальные жанры и формы. –Москва: 1954.

REZYUME. Ushbu maqolada XX asr musiqa san'atida janr tushunchasi, uning rivojlanishi va musiqa ijodidagi o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, bir qancha san'at allomalarining ilmiy-nazariy qarashlari haqidagi ilmiy xulosalar tahlili berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье речь идёт о понятии жанра в музыкальном искусстве XX столетия, о его развитии и роли в музыкальном творчестве. А также даны анализы научных заключений о научно-теоретических взглядах нескольких учёных искусствоведов.

SUMMARY. In this article speech goes about notion of the genre in music XX centuries, about his (its) development and dug in music creative activity. As well as analysis's of the scientific conclusions are given about scientifically glance several scientists

Masalan, musiqaning sotsial tabiatini o'rganishda G. Besseler, T.V.Popova yoki A.N. Soxor uslublarini, boshqa san'atlar bilan birgalikda o'rganishda Sokolov izlanishlarini hisobga olish dardkor.

2. Musiqiy asar xususida butkul to'liq taassurot hosil qilishda barcha tasnifotlardan foydalanish zarurki, ularning barchasi bir-biriga xalaqit bermaydi, balki to'ldiradi.

Deyarli barcha tasnifotlarning janrlar tizimida o'rni va darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich (ierarxik) asosda tuzilganligi ko'zga tashlanadi.

XVI asr oxiri XVII asr boshlariga kelib, ko'plab musiqiy janrlar tipologik turg'unligini yo'qotib, yangi musiqa turlari faol ravishda bir-biriga ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, barokko musiqa madaniyatida son-sanoqsiz gibrid (chatishma) janrlar yuzaga keldi. Ular sirasiga ariyali va ariozoli konsert, xoralkonsert va monodik xorallar kiradi. Bir so'z bilan aytganda, messadan tortib operagacha musiqaning har qanday turida janr uslublarining ta'sirini ko'ramiz. Bunday aralash turlarni M.Lobanova "in mixto genri" deb nomlaydi. "in mixto genri" – barokko kompozitorlarining turli uslub va janrlarni texnik vositalari orqali birlashtirish g'oyasidir. Bunday janr strukturasi kontarast uslublar: "eski – yangi", "qat'iy – erkin" tarzida tuziladi [5].

Bundan tashqari, musiqa va san'atda aniq klassik mezonlarning o'zgarib, yo'qolib borishi XIX-XX asrlarda yangi janr konsepsiyasi – aralash janrlarni yuzaga keltirdiki, ular sof "yopiq" janrlarni ham to'ldirib, boyitadi.

XX asrdagi informatsion portlashlar umumbashariy an'ana va klassik qoliplardan voz kechgan holda individual eksperimentlarni amaliyotda joriy etilishiga sabab bo'ldi. Janrlarning bunday transformatsiyasi biror asarni qayta yaratishda ham ko'zga tashlanadi. Umuman, XX asrda romantizm davrida asosiy o'rinda turgan opera janri cholg'u va simfonik asarlarga o'z o'rnini bo'shatib beradi va turli kamer simfoniya, kichik simfoniya va myuzikl janrlari yuzaga keldi.

Shuningdek, XX asrda yetarli darajada qaror topib ulgurmagani janr tushunchasi yanada murakkablashib, janrlar gibridlashuvining oliy darajasiga yetdi. Mazkur jarayon bugungi kunda yanada yorqinroq namoyon bo'lar ekan, turli janrlarni bir-biridan farqlash nafaqat tinglovchi balki professional ijodkorlarda ham ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Yangi avlod kompozitorlarining asosiy maqsad va vazifalari yangi musiqani boyitish, uning ifoda vositalarini qayta ishlash, qolaversa, garmonik bo'yoqdorlikni, janrlar tizimini tubdan isloh qilish kabi shu va shunga o'xshash talablar tomon o'zgara bordi. Darhaqiqat, har bir kompozitorning individual uslubi, tadqiqot va izlanishlari bir tomondan janrlar borasida yakdli (umumiy) xulosa chiqarishga to'sqinlik qilsa-da, ikkinchi tomondan musiqada rang-barang janr ko'rinishlarini ham vujudga keltirmoqda.

Ular musiqaning deyarli barcha vositalaridan individual ravishda unumli foydalanishdi va musiqiy madaniyatning bebaho durdona asarlarini yaratilishiga, turli-tuman yangi janrlarning yuzaga kelishiga hissa qo'shdilar. Bir so'z bilan aytganda, ular o'zlarining individual ijodkorlik faoliyatlarida yangi klassika – XXI asr klassikasini bunyod etishga muvaffaq bo'ldilar.

BOLAJAQ QARAQALPAQ TILI HÁM ÁDEBIYATÍ OQÍTÍWSHÍSÍNÍN PROFILI HÁM OĞAN QOYÍLATUĞIN MÁMLEKETLİK TALAPLAR

D.B.Seytkasimov – *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent*

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: lingvistik kompetensiya, metodika, ta'lim, filolog-talaba.

Ключевые слова: языковая компетенция, методика, образование, филолог-студент.

Key words: language competence, methodology, education, philologist-student.

Házirgi kúnde bilimlendiriw tarawında birqansha ózgerisler hám tálimdi modernizaciyalaw boyınsha jańalıqlar payda bolmaqta. Bul baǵdarlarǵı ámelge asırıwdıń zárúr shártlerinen biri jańa tálim (pedagogikalıq) texnologiyalardı engiziw, pedagogikalıq texnologiyalardı qural sıpatında paydalanıw názerde tutılǵan.

Respublikamızda bilimlendiriw tarawın modernizaciyalawdıń eń aktual baǵdarlarınan biri, onıń tálim komponentin rawajlandırıw bolıp tabıladı. Atap aytqanda, eń áhmiyetli maqsetler qatarına tómendegiler kórsetiwimizge boldı:

- studentlerdiń óz betinsheligi, ózin-ózi rawajlandırıw qábiletin qalıplestiriw;
- óz huqıqların qorgaw qábileti;
- birge islesiwge baǵdarlaw;
- dóretiwshilik qatnastı rawajlandırıw;
- mehribanlıq, basqalarǵa qatnaslı keń peyillikti rawajlandırıwǵa qaratılǵan.

V.A.Belikov joqarı tálimdi reformalawdıń tiykarǵı baǵdarların shaxsqa, onıń qábilet hám ózgesheliklerine itibar beriw, tálimdi insaniylastırıw, jeke ilimlerdi integraciyalaw, oqıw pánlerinen tálim tarawlarına ótiw, tálimdi texnologiyalastırıwda [1.21]. dep kórsetedi. Solay eken, bolajaq qaraqalpaq tili hám ádebiyatı oqıtıwshısınń profili hám oǵan qoyılatuǵın mámleketlik talaplarǵa toqtap ótiwdi maqul kórdik (1-keste)

(1-keste)

Оқıtıwshı obrazı	Xarakteristikası
Qızıǵıwsh ańlıq	Olar ózleriniń tábiyiy qızıǵıwshılıqların rawajlandıradı hám izertlew ótkeriw ushın zárúr bolǵan bilim, kónlikpe hám ámeliyatlardı erkin ózlestiredi. Úyreniw hám biliw procesinde turmıslıq kónlikpelerdi qalıplestiredi.
Bilimlerdi ózlestiriw	Olar regionlıq hám global áhmiyetke iye bolǵan túsiniqler, ideyalardı úyrenedi. Sonday-aq, bilimlerdi hár tárepleme ózlestiredi hám temalar boyınsha pánler aralıq integraciyanı rawajlandıradı.
Oyshıl	Quramalı mashqalalardı anıqlaw, sanalı hám etikalıq qararlar qabıllaw, sın pikirlew hám dóretiwshilik kónlikpelerdi rawajlandırıw ushın baslama kórsetedi.
Sóylew mádeniyatı	Logikalıq pát, toqtam hám ima-isharaǵa iye sóylew, kórkemlep sóylewden paydalanıw: metafora, salıstırıw hám t.b. orınlı paydalana biliw, sóylew, qarım-qatnas mádeniyatına, kishi peyillikke qatań tártipte ámel etiw, sóyleskende tınlaw mádeniyatına ámel etiw.
Flyud nurlanıw	Jaǵımlı sırtqı kórinis, gózzal ádep-ikram, túsiniqli hám anıq sóylew, bilim.
Kommunikator	Ideyalar hám maǵlıwmatlardı sır saqlawshı, dóretiwshilik penen qatnas jasaw, qaram-qatnasta pedagogikalıq taktti saqlaw, shaxsqa húrmet penen qatnasta bolıw, qızıǵıwshılıqtı hám sıylasıqtı kórsete biliw, turpayı kritikalıq juwaplardan paydalanbaw, basqalardıń sezimlerin tán alıw, sáwbetlesti qızıǵıwshılıq penen tınlay alıw, itibarlı hám sezgir bolıw, diqqatlı tolıq awdarıw, túsiniqli hám qolaylı sózlerden paydalanıw.

Principal	Psixikalq turaqlılıq, batırılıq hám salmaqlı saldamlılıq, isenim menen sóylew, qatnılıq (qaysarlıq emes).
Pedagogi kalıq motivaciya	Studentlerdiń óz pánine qızıǵıwshılıq oyata alıwı.
Kreativ	Jaratıwshı, dóretiwshı, jańa ideyalardı óndiriske tayınlıqtı xarakteristikalaytuǵın hám de erkin dóretiwshilik qábileti mánisin anılatadı. Shaxstıń kreativligi onıń oylawında, qarım-qatnasında, sezimlerinde, iskerliginde kórinetuǵın qábileti. Kreativlik shaxstıń arnawlı bir qásiyetlerin, zeyini ótkirlikti xarakterleydi.
Qádiriyat qa húrmet penen qaraw	Óz mádeniyatın, tariyxın túsinedi hám qádirleydi, basqa shaxslar hám jámaátlerdiń keleshegi, qádiriyatları hám dástúrlerine húrmet penen qaraydı. Túrlı kózqaraslardı tabıw hám bahalawǵa, rawajlanıwǵa umtılwǵa, jańa tájiriyebe arttırıwǵa ádetlengen.
Ǵamqor	Basqalardıń zárúrlikleri hám sezim-tuyǵılarına tilekleslik hám húrmet kórsetiw, insanlardı qollap-quwatlaw hám jıllı júzlilik penen kútip alıw, basqalardıń turmıs sapasın hám qorshaǵan ortalıqtı jaqsılaw ushın hárket etedi.
Táwekels hi	Olar biytanı, túsiniksiz jaǵdaylarda batırılıq, mártlik, uzaqtı kóre alıw, jańa ideyalar hám strategiyalardı ózlestiriwge tayar, óz isenimlerin qorgaw ushın ushın mártlik kórsetedi.
Innovator	Mashqalanı sheshiwge jańasha usılda qatnas jasaw, jańa texnologiyalıq procesti qollaw boyınsha metod, texnologiyalar jıyındısına iye bolıw.
Refleksiv	Úyreniw hám tájiriyebe nátiyjelerin tereń tallaydı. Úyreniw hám jeke tájiriyebe arttırıwda járdem beretuǵın hám tosqınlıq etetuǵın kúshli hám ázzi táreplerin biledi.

Bilim óz-ózinen maqset sıpatında emes, shaxstıń ózin-ózi belgilew quralı sıpatında, talabanıń mádeniyatqa kiriwi hám mádeniy orında ózin ańlay alıw jolı sıpatında qaraladı [3:3]. Demek, bilim alıw stiline úlken itibar beriledi, oqıw procesinde studentlerdiń aktivligine turaqlı itibar beriledi. Sabaqta studentlerdiń tábiyiy qızıǵıwshılıǵın, umtılw hám mashqalalardı sheshiwde óz betinshe islewge baǵdarlaw ushın qolay sharayatlardı payda etedi.

Sabaqta studentlerdiń ámeliy hám óz betinshe jumsların qalıplestiriwge ayrıqsha itibar berilse, olardıń kompetentlikti iyelewı joqarı boladı [2:7]. Oqıtıwshı klasta óz betinshe bilim dóretiwshı izleniwdi shólkemlestiriw, olardı tálim procesi sub'ektlerine mashqalanı sheshiw arqalı ómirge tárbiyalaw, óz kózqarasın bildiriw, onı tartıw arqalı sheshiw ushın sharayat jaratadı.

JOO studentleriniń oqıw baǵdarlamaları tómendegi talaplarǵa say bolıwı kerek:

1. Sabaqtıń tárbiyalıq maqsetiniń anıq bayanlanıwı, sózlerdiń iqsamlılıǵı, studentler tárepinen tálim maqsetiniń durıs qoyılıwı, jeke hám topar jumsları ushın maqsetlerdi parıqlaw.

2. Sabaqta kreativ pikirlewdi rawajlandiruv ushin sharayatlari jaratuv, mashqalali jagdaylardi modellestiruv, sabaqta ilimiy iskerlikti sholkemlestiruv, talabalar tarepinen qoyilatuvin mashqalalardi oz betinshe sheshiwge bagdarlaw, qabiletlerin qaliplestiruv, olardin sezimlik ham motivaciyasin rawajlandiruv.

3. Studenttin zamanagoylikke bagdarlawshi madeniyati, onin ruwxiy dunyasini bayituv joli sipatinda sabaqtin tarbiyalik xizmetine ulken itibar beriw.

4. Sabaq mazmuninin ilimiy ozgesheligi, quramahligi ham maqsetke muwapiqligi, onin ameliy bagdari, aktualigi, mashqalaligi, tartimliligi, panler araliq integraciyasina itibar beriliw kerek. Sabaq mazmunindagi tiykargi tusiniklar, nizamlar, logika, materialdin izbe-izligi, auditoriya ham uye orinlaw ushin usinlatuvin material mugdarinin optimaligina itibar qaratuv.

5. Oqituv metodlarinin saykesligi, studentlerdin kognitiv aktivligin arttiruvidin turli usullaridan paydalanuv, socialliq (tabisli jagdaydi jaratuv, studentlerdi jamaatlik miynet turlerine qosuv, studentler ham oqituvshilar ortasindagi birge islesiw ham t.b.) ham kognitiv (mashqalali jagdaylardi payda etiw, turmis penen baylanis, qiziqli misallardi, paradokslardi, oyin turlerin tartuv) qaliplestiruv, jumstin ham t.b.) oqituv motivlerin qaliplestiruv maselerine ayrigsha itibar qaratiluv.

6. Sabaqtu duris sholkemlestiruv, sabaqtu sirtqi (kirisuv, tiykargi, juwmaqlawshi bolimlari) ham ishki (aniq maqset qoyuv, basqishlarga boluv, tiykargi narseni ajratuv korse-tiw, ulwmalastiruv) sabaqtu tartibine diqqat qaratuv.

7. Sabaqta studentlerdin subyektiv poziciyasi, olardin

kognitiv belsendiligi, doretivshiligi, erkinligi, oz pikirlerin erkin ayta aluv, talim mashqalalarini sheshiwde oz betinshe qatnaslardin kordiniwi, olardin apwayidan quramaliga, jekeden ulwmaqa bagdarlaw qabiletini qaliplestiruv.

8. Psixologiyaliq, pedagogikalik madeniyatqa iye boluv, oz panin terev bilivin, pan bagdari boyinsh erudiciyasini korse-tiw, optimallik patiti kushaytiw ham de sabaq ushin qolay ortaliqtu payda etiw.

9. Sabaq procesinde studentler ameliyat sabaqlarinda studentlerdin sabaqtu qabillaw darejesi, sabaq natijesini tusiniwi, harbir balaning erisken jetiskenliklari, sabaqtu muqqaddesligini biluvi, seziniwine itibardi kushaytiw.

JOO bakalavriat sistemasinda talim aluv atirgan filolog-studentler sabaqtu sholkemlestiruvdin ozgesheliklari ham ogan qoyilatuvin talaplar, xalqaraliq darejedeги bahalawlar, oqituvshilardin kasiplik kompetenciyalariga qoyilatuvin talaplardi [5:396] qaliplestiruv maselerine ulken itibar qaratuv kerek.

Juwmaqlap aytqanda, filolog-oqituvshi lingvistikaliq kompetenciyasin rawajlandiruvshi texnologiyalar bugungi kunde ayrigsha ahmiyetke iye boluv, olardi jetilistiruv ham natijeliligini tamiyinlew arqali unamli natijelerge erisuv mumkin, qala berse, kasiplik-metodikaliq kompetentligini rawajlandiruvda basqishpa-basqish tamiyinlew beruvshi kontent esaplanadi. Student moduller menen islew procesinde oquv-biluv iskerligi aldina qoyilgan maqsetke oz betinshe toliq erisedi. Oqitilatuvin panlerdin oquv shiniyuv ham olardin joybarlarini islep shiguv izertlewimiz tiykari esaplanadi. Bul bolsa studentlerdi oquv materialini natijeli ozelestiruvlerin tamiyinleydi.

Адебиётлар

1. Беликов В.А. Теоретические основы решения педагогических проблем: пособие для аспирантов и соискателей. Магнит, гос. пед. ин-т. – Магнитогорск: 2002, – С.21.

2. Зимняя И.А. Компетентный подход в образовании (методолого-теоретический аспект) // Проблема качества образования: матер. XIV Всерос. совещания. – М.: 2004, Кн. 2. – С.7.

3. Сафонова В.В. Коммуникативная концепция: современные подходы к многоуровневому описанию в методических целях. – М.: Изд-во НИЦ «Еврошкола», 2004, – С.3

4. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: Выявление, развитие и реализация. – М.: Когнитив-Центр, 2002, – С.396.

5. Hutmacher W. Key competences for Europe: Report of the Symposium Berne, Switzerland 27-30 March, 1996. Council for Cultural Cooperation (CDCC) // Secondary Education for Europe. – Strasburg: 1997. – P. 247.

REZYUME. Maqolada filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi ko'rib chiqilgan. Qoraqalpoq tili va adabiyot yo'nalishi talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается механизм развития лингвистической компетентности студентов-филологов. Даны предложения по развитию языковой компетенции учащихся каракалпакского языка и литературы.

SUMMARY. The article discusses the mechanism of development of linguistic competence of philology students. Proposals for the development of the language competence of students of the Karakalpak language and literature are given.

НОҚУЛАЙ ОБ-ҲАВО ШАРОИТИДА МАШҒУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА ЎТҚАЗИШ МУАММОЛАРИ

Т.Ш.Сейтмуратов – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Олтинчи босқич: касб таълим жараёнида талабаларга ҳаёт фаолияти хавфсизлигидан машғулотлар давомида ўзлаштирилган билимларни баҳолаш. Бир томондан бу – таълим олувчилар керакли билимларни ўзлаштириб олганликларининг назорати. Яъни “Таълим олувчилар мақсадга эришдими?”, деган саволга жавоб берилиши керак. Бошқа томондан эса, таълим берувчи учун ўз-ўзини ҳамда ишнинг сифати қандай бўлганлигини текшириш. Яъни “Мен олдимга қўйган мақсадларимга эришдимми?”, деган саволга жавоб берилиши керак. Иккала ҳолда ҳам ўлчанадиган натижалар бўлиши муҳимдир.

Хулосамиз шундан иборатки, мазкур фанни ўқитиш бўйича изчил бир тизим ишлаб чиқиши ва талабаларга бериладиган билимлар асосида ҳар бир бўлажак мутахассислар ҳар томонлама ривожланиб, камол топган, фаол ҳаётий мавқени эгаллаган ва ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнида юзага келадиган фаолият хавфсизлигини бартараф этиши лозим бўлади.

“Ҳаёт фаолият хавфсизлиги” фанидан талабаларни тайёргарлик тизими таълим жараёнини ташкил қилишнинг турли шаклларида фойдаланишга асосланган, динамик, ўқув, мослашувчан, ўзгарувчан бўлиши керак ва шаклланган кўникмалардан фойдалана олишлари лозим.

Шундай қилиб, таълим тизимининг янги сифат босқичига ўтиш нафақат умумий таълимнинг стратегияси ва мақсадлари нуктаи назаридан, балки касб таълимининг салоҳияти, ўзига хослиги, хусусиятлари ва педагогик аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фани соҳасида жиддий ислохотлар олиб борилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар

1. Постановление кабинета министров республики Узбекистан об утверждении государственной программы по прогнозированию и предупреждению чрезвычайных ситуаций. г. Ташкент, Запреля 2007, № 71
2. Омонов Х.Т. ва бошқалар. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Дарслик.Т. “ТМИ” босмахонаси. 2012.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий ўқув юртидан кийинги таълимни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2017 йил 16 февраль. ПФ-4958 сон фармони.
4. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи мутахассислигига тайёрлаш технологияси -Тошкент: ТДПУ, 2000.
5. Голиш Л.В. Таълимнинг фаол усуллари: мазмун, танлаш, амалга ошириш. - Тошкент: ЎМКХТРИ, 2002.

РЕЗЮМЕ. Мақолада ҳозирги кунда талабаларни таълим жараёнида Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанини ўқитиш методикаси тўғрисида фикр юритилиб, унда фанни ўқитиш жараёнида талабаларга маълумотларни тақдим этиш босқичлари ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается методика преподавания обучения безопасности жизнедеятельности в профессиональной подготовке. Существуют также этапы предоставления информации в процессе распространения науки.

SUMMARY. The article discusses the teaching methodology of life safety in vocational training. There are also the author investigates stages of information presentation in teaching .

БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ОРҚАЛИ ЭСТЕТИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ

Д.С.Саматова – ассистент ўқитувчи

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Таянч сўзлар: эстетика, дид, эстетик тафаккур, чолғу ижрочилиги, бўлажак мусиқа таълими ўқитувчилари, педагогика, таълим-тарбия.

Ключевые слова: эстетика, вкус, эстетическое мышление, инструментальное исполнительство, будущие учителя музыки, музыкального образования, педагогика, воспитание.

Key words: aesthetics, taste, aesthetic thinking, instrumental performance, future teachers of music education, pedagogy, education.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-112-сон қарори [1] ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилиниши олий таълим муассасалари олдида қатор муҳим вазифаларни қўяди ва педагогик кадрлар тайёрлаш масаласига давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътибор қаратилаётганидан далолат беради.

Бугунги кунда жаҳонда таълимга ҳар томонлама ёндашув асосида битирувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш, бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларининг ижрочилик компетентлигини ривожлантириш орқали ижодий таълим жараёнини лойиҳалаштиришнинг замонавий методик таъминотини яратиш, бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларида касбий фаолият соҳаларига йўналтирилган эстетик тафаккурни ривожлантириш, шунингдек, олий таълимнинг таълим сифатини таъминлаш жараёнидаги ижтимоий ролини ошириш масалалари долзарб йўналишлардан бири сифатида тадқиқ этилмоқда. Шу маънода илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий мусиқа таълими мазмунини чолғу ижрочилигига асосланган таълим муҳитини шакллантириш, ижрочилик услубларини амалиётга кенг татбиқ этиш асосида бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларини эстетик тафаккурини ривожлантириш муҳим ўрин тутди. Мусиқа таълими ўқитувчисидан билим тизимида қўшимча равишда нутқ ҳаракатларида шахсий фикр билдиришни, умумий ижтимоий ғояни – санъат ва маданиятлар мулоқотини амалга оширишга, уларнинг эстетик тафаккурини ривожлантиришга ҳисса қўшадиган мусикий чолғу асбоби ижрочилигига эга бўлишни талаб қилади.

Шу маънода Президентимизнинг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-112 - сон қарорида белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу тадқиқот ишининг амалга оширилиши муҳим восита сифатида хизмат қилади [1].

Ҳозирги кунда таълим тизимида рўй бераётган жиддий ўзгаришлар шароитида ёш авлоднинг эстетик тафаккурини ривожлантириш ва уни замонавий талаблар асосида такомиллаштириш долзарб масала бўлиб қолмоқда. Ёш авлодга мос бўлган замонавий миллий мусиқа намуналари етишмовчилигидан хавотирланиш тенденцияси, оммавий мусиқа санъатининг ёшларнинг маънавий онгига салбий таъсири, шунингдек, мусиқа санъатининг услубий турфа хилма-хиллиги ҳақидаги нотўғри тасаввурлар ёшларда эстетик тафаккурни шакллантиришда ўзига хос муаммоларни келтириб чиқаради.

Мусиқа дарслари жараёнида ўқувчиларнинг бадий-эстетик, ахлоқий, маънавий, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, шунингдек мусикий фаолиятнинг турли йўналишлари (хор, вокал ижрочилиги) орқали мусикий таълим самарадорлигини такомиллаштириш бўйича республикамизда анчагина илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган.

Эстетика (юн. αἰσθητική - "ҳис", "туйғу") оламнинг ҳиссий қабул қилинишини тадқиқ этувчи фандир. Эстетика (юн. — ҳис қилувчи, ҳиссий тарбияга доир) — инсон билан дунё ўртасидаги қадрият

муносабатининг ўзига хос томонларини ва кишиларнинг бадий фаолияти соҳасини ўрганувчи фалсафий фан. "Эстетика" терминини немис файласуфи А.Баумгартен илмий муомалага киритган. Эстетика нафосат, дид, гўзаллик сингари категориялар билан иш кўради [4]. Улар орасида “Эстетик тафаккур” тушунчаси алоҳида ўрин эгаллайди.

Эстетик тафаккур муҳокамасида мавҳум тафаккур эмас, маънавий туйғулар, ёрқин ҳис-ҳаяжонлар биринчи ўринда туради. Эстетик тафаккур жараёнида, яъни бирор нарсанинг эстетик қийматини белгилашда инсоннинг ақлий ва ҳиссий салоҳиятлари биргаликда қатнашсада, ҳиссий мушоҳада асосий аҳамият касб этади. Ҳар кимнинг эстетик тафаккури ҳар хил бўлади. Шунинг учун ҳар бир кишининг эстетик тафаккурини гўзаллик ҳақидаги тушунчаси белгилайди. Эстетик тафаккур инсоннинг фақат муомала маданиятинигина эмас, жамиятдаги муайян маънавий даражасини, камолотини ҳам кўрсатади.

Инсон эстетик тафаккури туғма эмас. У тарбия орқали такомиллашиб ва тараққий этиб боради. Юксак ва соғлом эстетик дидга эга бўлиш кишининг ҳам маънавий, ҳам руҳий бойлигидан далолатдир. Эстетик тафаккури такомиллашган ва тарбия кўрган одамнинг маданий савияси юксак, ахлоқий қиёфаси гўзал, ақлий ва ҳиссий кечинмалари чуқурроқдир. Инсоннинг санъат асарига муносабати эстетик тафаккурда намоён бўлади. Эстетик тафаккур инсоннинг адабиёт ва санъат асарларини тушуниб етиш, баҳолай олиш ва улардан завқлана билиш салоҳиятини кўрсатади [3].

Эстетик тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш эстетик тарбиянинг вазифасидир бу эса албатта мусиқа тарбияси билан боғлиқ [2].

Бадий-эстетик тарбия, бадий-эстетик (мусикий) тафаккур тарбияси муаммоларига азал-азалдан жиддий эътибор бериб келинганлиги унинг инсонни маънавий, ахлоқий камолотини белгиловчи муҳим омил эканлиги санъатшуносликка, мусикашуносликка оид манбаларда қайд этилган. Бугунги кунда ҳам баркамол авлодни тарбиялашга йўналтирилган педагогик таълим тизимида эстетик тафаккурни ривожлантириш энг муҳим ва долзарб вазифалардан биридир.

Эстетиканинг тадқиқот объектлари ичида санъат алоҳида ўринни эгаллайди, у қадимдан то ҳозирги кунгача энг кўп тадқиқ этилган эстетик соҳа ҳисобланади. Эстетиканинг бу борада санъатшунослик фанларидан фарқи шундаки, у ўз объектига фалсафий назарий жиҳатдан ёндашади [5]. Эстетика санъатни санъаткор, санъат асари, санъат асарини идрок этувчи шахсдан иборат яхлит тизимда олиб ўрганади, барча санъат турлари учун зарур бўлган умумий қонун-қоидаларни ишлаб чиқади. Замонавий мусиқа ва педагогик фанларнинг эстетик тафаккурни ривожлантиришга йўналтирилган тадқиқотлар, психология нуқтаи назардан Л.С.Виготский, В.В.Медушевский, Е.В.Назайкинский, Б.М.Теплов каби олимлар томонидан, мусиқа педагогикаси нуқтаи назаридан, таққослаш услуби ва киёсий таҳлил услуби бўйича М.Л.Гродзенская, Б.Н.Шатская мусиқа ўқитиш назарияси ва услубиёти бўйича Э.Б.Абдуллинлар томонидан тадқиқ этилган.

Чолғу ижрочилиги машғулотларида талабаларнинг

эстетик тафаккурини ривожлантириш аввало уларнинг ижодий имкониятларини ўрганишни тақозо этади. Баркамол авлодни тарбиялаш жараёнида эстетик тафаккурини ривожлантириш, нафақат уларни нуктаи назарини, этиқодини, дунёқарашини шакллантиришга, балки уларнинг юқори даражадаги бадиий, эстетик тафаккурини ҳамда мусликий ижрочилигига йўналтирилган бўлиши керак.

Олий педагогик таълимда бўлажак мусика ўқитувчиларини мактаб мусика ўқитувчиси амалий фаолиятига тайёрлаш мусика санъатининг бир неча йўналишлари бўйича бўлажак кадрларда зарур компетенцияларни егаллашларини тақозо этади. Бир соатлик дарс жараёнидаги мусика машғулотли ўқитувчилардан мусика назарияси, мусика тарихи, чолғу ижрочилиги, вокал ижрочилиги, дирижёрлик ва хор

билан ишлаш бўйича малакавий тайёргарликни талаб қилади. Табиийки, бу санъат йўналишлари бўйича етарли даражада зарур назарий ва амалий (чолғу асбобида чалиш, дирижёрлик қилиш, вокал – хор малакалари, хор билан ишлаш) билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришлари бир хил даражада бўлмайдилар.

Ушбу муаммони илмий тадқиқ этишда эстетика, мусика психологияси ва педагогика нуктаи назаридан қараганда эстетик тафаккурини оид соҳада тўпланган билимлар ўртасида муайян зиддият мавжудлиги, бошқа томондан ўқувчилар учун етарли даражада мусликий таълим йўналишлари мавжуд эмаслиги чолғу ижрочилиги машғулотларида ўқувчиларни эстетик тафаккурини ривожлантириш тизимини такомиллаштиришни талаб қилади.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 02.02.2022. йилдаги ПҚ-112-сон. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. 03.02.2022. 07/22/112/0099-сон).
2. Файзуллаев Е. Бўлажак мусика ўқитувчилари бадиий дидини шакллантиришда ўзбек мумтоз муслиқаси имкониятларидан фойдаланиш. -Т.: 2008.
3. Кудратов И. Талабаларни халқ кўшиқлари воситасида эстетик тарбиялаш. (Монография). -Т.: «Фан», 2009.
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/estetika-uz/>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika>

РЕЗЮМЕ. Мақолада бўлажак мусика таълими ўқитувчиларининг эстетик тафаккурини чолғу ижрочилиги орқали ривожлантиришнинг таълимий-педагогик мазмунини очиқ берилган. Бўлажак мусика таълими ўқитувчиларининг эстетик тафаккурини ривожлантиришда чолғу ижрочилигининг аҳамияти ва педагогик жиҳатлари кўрсатиб берилган.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрено организационно-педагогическое содержание развития эстетического мышления будущих педагогов музыкального образования через инструментальное исполнительство. Показаны значение и педагогические аспекты инструментального исполнительства в развитии эстетического мышления будущих педагогов музыкального образования.

SUMMARY. The article reveals the organizational and pedagogical content of the development of aesthetic thinking of future teachers of music education through instrumental performance. The significance and pedagogical aspects of instrumental performance are shown in the development of aesthetic thinking of future teachers of music education.

PIRLS XALÍQARALÍQ BAĞDARLAMA TALAPLARÍ TIYKARÍNDÁ BASLAWÍSH KLASS OQÍWSHÍLARÍNÍN KOMMUNIKATIVLIK KOMPETENCIYALARÍN QÁLIPESTIRIW

B.K.Utemuratov – filologiya ilmlerinin kandidati, docent

Qaraqalpaстан Respublikası pedagoglardı jańa metodikalarga úyretiw milliy orayı

Tayanch soʻzlar: PIRLS xalqaro tadqiqot, oʻquvchi, oʻqituvchi, kompetensiya, kommunikatsiya, kommunikativlik, metod, mantiqiy fikrlash, mulqot, sinf.

Ключевые слова: PIRLS International Research, ученик, учитель, компетентность, коммуникация, коммуникативность, метод, логическое мышление, общение, класс.

Key words: PIRLS International Research, student, teacher, competence, communication, communicativeness, method, logical thinking, communication, class.

Ўзбекстан Республикаси Президентининг 2018-йил 5-сентябрдаги «Халқ билимлendiriwin басқарıw sistemasın jetilistiriw boyınsha qosımsha is-ilajlar haqqında»ğı PF-5538-санlı Пәрманı [1] tiykarında Билимлendiriw sıpatın qadağalaw mámleketlik inspekiyası hám Халқ билимлendiriw ministrligine oqıwshılardıń bilim därejesin bahalaw boyınsha халқаралıq bağdarlamalar hám izertlewlerde (PISA, TIMSS, PIRLS) ulıwma билимлendiriw mektep oqıwshılarınıń qatnasıwın shólkemlestiriw wazıypaları júkletilgen.

PIRLS – bul hár qıylı tálım sistemasına iye bolğan dúnya mámleketlerinde oqıwshılardıń teksti oqıwı hám túsinıwı boyınsha monitoring alıp barıladı. Dúnya mámleketlerдеги baslawish klass oqıwshılarınıń oqıw sıpatı hám teksti túsinıw därejesin, sonday-aq, hár qıylı mámleketlerdiń билимлendiriw sistemasındağı ózgerislerdi salıstırıw hám kórsetiw múmkinshiliklerin beriwshi халқаралıq izertlew bolıp esaplanadı.

PIRLS izertlewleri kóleminde túrli билимлendiriw sistemasına iye bolğan mámleketlerdiń 4-klass pıtkeriwshileriniń oqıw sıpatın hám oqlğan teksti túsinıw därejesi úyreniledi. Bul izertlewlerge 4-klass oqıwshılarınıń tańlap alınıwı sonnan ibarat, tiykarınan oqıwdıń tórtinshi jılında oqıwshılar oqıwdıń joqarı därejesine iye boladı. Oqıwshılardıń keyingi tálimде bilimdi iyelew qábiletin qalıplestiriw hám sol arqalı házirgi zamangá tabıshı iykemlesiwine járdem beredi.

Коммуникативлик компетентлик – қарım-qatnas jasaw, basqalar menen tez hám anıq isshen hám doslıq baylanıs ornata alıw, kommunikaciya, qarım-qatnas haqqında jaqsı túsinikke iye bolıw hám bilimlerin ámelde qollana alıw kónlikpeleri bolıp tabıladı. Kommunikativlik kompetentlik qarım-qatnas

nátıyeliligi: til arqalı qarım-qatnas, sóylesiw qábileti hám qarım-qatnas shenberi, maqsetleri hám jağdaylarına tuwrı keletuğın sóylesiwge haqıyqıy tayarlıq sıpatında belgilenip, tómenдегилерdi óz ishine aladı:

- til normaların biliw, funkciional túrде qollana alıw;

- til kónlikpeleri hám tájiriybeleri;

- jeke kommunikativlik kónlikpeler: jağdayğa sáykes til normasın tańlaw, kim menen, qashan hám qay maqsette sóylesip atırғанımızdı esapqa alğan halda til arqalı qarım-qatnas jasaw, sóylesiw, gúrrinlesiw tájiriybeleri.

PIRLS izertlew barısında sabaqta oqıwshılar tárepinen en kóp qollanılatuğın oqıwdıń tómenдеги eki túri úyreniledi:

1. Ádebiy kitapqumarlıq uqıplılığın iyelew maqsetindegi oqıw.

2. Mazmundı túsinıw hám ámelde paydalanıw maqsetindegi oqıw.

Коммуникативлик компетenciya – bul tildi, onıń fonetikasın, leksikasın, grammatikasın, stilistikasın, til mádeniyatın, usı til quralları adamnıń sociallıq, kásiplik, mádeniy mütájlikleri sheğarasındağı til mexanizmlerin - sóylew, esitip, túsinip alıw, oqıw, jazıp biliwdi ańlatıwshı termin bolıp tabıladı. Kommunikativlik kompetenciyağa tábiy sózlik iskerligi hám arawlı oqıw nátıyesinde iye bolıw múmkin. Kórkem hám ilimiy tekstlerdi PIRLS talapları tiykarında oqıw arqalı oqıwshılarda kommunikativlik kompetenciya qalıplestedi. Kórkem hám ilimiy tekstlerdi oqıwda, oqıw kónlikpeleriniń tómenдеги tórt toparı bahalanadı:

1. Anıq kóriniste berilgen mağlıwmattı taba alıw.

2. Juwmaqlawlardı qalıplestiriw.

3. Mağlıwmatlardı ulıwmalasıtra alıw.

4. Teksttiń mazmunı, tildiń áhmiyeti, dúzilisin analizlew hám bahalay alıw. Oqıwshılar tekstti oqıwı hám sorawlarǵa juwap beriwı lazım. Bunda ayırım tapsırmalar usınıs etilgen variantlardan biri tańlanadı, al, basqaları bolsa óz betinshe juwap beriwdi talap etedi.

Kommunikativlik kompetenciya – qarım-qatnas maqsetleri, sferası hám jaǵdaylarına tuwrı keletuǵın dárejede sóylese biliw hám haqıyqıy tayarlıqqa iye bolıw, sóylesiw arqalı óz ara tásir kórsetiw hám óz ara túsiniwge tayarlıq. E.A.Bistrova atap ótkeninдей, til menen baylanıslı túsiniqler hám reproductivlik hám produktivlik dárejelerindegi kommunikativlik kónlikpeler onıń bólekleri bolıp tabıladı. Bul til jaǵdayı boyınsha qarım-qatnastı ámelge asırıw ushın til quralların sanalı túrde tańlay biliw, awızsha hám jazba tildi tuwrı túsiniw hám onıń mazmunın ashıp beriw, hár túrli janrlıq hám stilistikalıq ózgesheligine baylanıslı jeke baylanısqıa iye pikirlerdi qalıplestiriw qábiletleri. Ol «kommunikativlik kónlikpeler qalıplesiwı tek lingvistikalıq hám tillik kompetenciyalar bazasında ámelge asırıwı múmkin» [2] dep tastıyıqlaydı.

I.Litnevskaya bolsa kommunikativlik kompetenciya degende: «barlıq sózlik iskerlik túrlerin, awızsha hám jazba til mádeniyatı tiykarların, tiyisli jas ushın turmısta áhmiyetke iye bolǵan qarım-qatnas sferası hám turaqlı túrde tilden paydalanıw boyınsha bazalıq kónlikpe hám tájriyberlerdi iyelewdi názerde tutadı» [3].

Baslawısh klass oqıwshılarınıń kommunikativlik kompetenciyaların qalıplestiriwde xalıqaralıq PIRLS baǵdarlama talaplarınan nátiyjeli paydalanıw kerek. Bul izertlew tiykarında kommunikativlik kompetenciya ishinde berilgen informaciyanı qabil etiw, túsiniw, intepretaciyalaw hám túrlendiriwdi támiyinlew aladı. Pikirlew hám sóylew háreketleri menen informaciya beriwdi támiyinleytuǵın pikirlew hám sóylewdi ajratıp kórsetiw maqsetke muwapıq boladı. Sóylew iskerliginiń receptivlik túrinde ámelge asırılatuǵın pikirlew hám sóylewdiń háreketler baǵdarı informaciyadan onı alıwshıǵa, produktivlik túrindegi – avtorıdan informaciyaǵa qaray baǵdarlanǵan boladı.

Kommunikaciya qatnasıwshılar ushın sóylew iskerliginiń receptivlik túrindegi kommunikativlik kompetenciyaların da áhmiyeti úlken. Olardıń nátiyjeliliǵı adamnıń basqaların awızsha hám jazba tilin biliw hám túsiniw, olarǵa durıs qatnas bildiriw, qabil etilgen informaciyanı jeke kommunikativlik máselelerin sheshiwde qollanıw maqsetinde olardı tiyisli túrde ózgerte alıw qábiletine baylanıslı boladı. Bunday kónlikpeler kóbinese bizge informaciyanı qabıllawshınıń kommunikativlik kompetenciya specifikasına diqqat jámlewimizge múmkinshilik beredi.

Tıńlawdı úyretiw procesinde kommunikativlik kompetenciyanı qalıplestiriw.

Tıńlaw, receptivlik pikirlew hám mnemonika iskerligi maqseti:

— esitip, qabil etilgen informaciyanı túsiniw hám qayta islewge –tıńlawshınıń kommunikativlik uqıbı hám qábileti bolǵan jaǵdayda erisiw múmkin;

● kommunikativlik kórsetpeni (informaciyanı eslep qalıw, sorawǵa juwap beriw, dálillerdi bahalaw hám t.b.) esapqa alǵan halda tekst mazmunına diqqat jámlew.

● tekstti mánilik bóleklerge bóliw hám olardıń hár biriniń tiykarǵı oy-pikiriń anıqlaw;

● teksttiń kondensaciyalangan mazmunın, yaǵnıy onıń temasın sintezlew hám ulıwma tekst boyınsha tiykarǵı oy-pikirdi belgilew;

● tekst mazmunın este saqlap turıw (onı esitiwde tiykarǵı sózlerdi belgilep alıw, solarǵa qaray tekst jobasın dúziw; teksttiń logikalıq hám kompoziciyalıq dúzilisin keltirip shıǵarıw hám t.b.);

● teksttiń pragmatikalıq maqsetin ajratıw;

● sózdiń kórkemlew quralların ajratıw.

Baslawısh klass oqıwshılarınıń esitken tekstin tolıq túsiniw kónlikpelerin tekseriw ushın tómendegidey baqlaw hám diagnostikalıq tapsırmalarǵı qollasaq boladı:

● tekst boyınsha sorawlarǵa juwap beriw;

● anıq bir joba dúziw;

● joba boyınsha túsingenin aytp beriw.

Baslawısh klass oqıwshıları PIRLS baǵdarlama talapları

tiykarında kommunikativlik kompetenciyalarǵı qalıplestiriwden ibarat. Oqıw, analitikalıq-sintez iskerliktiń maqseti – jazba tekstti túsiniw hám belsendi túrde qayta islewge – maqset qoyıw (tanısıw, úyreniw, izleniw) boyınsha oqıw túrin hám ulıwma kommunikativlik kompetenciyaların qalıplestirgenligin esapqa alıw arqalı nátiyjelerge erisiw múmkin:

● tekst temasına, temanı keńnen túsindiriwde qollanılatuǵın kishi temalarǵa, teksttiń tiykarǵı mazmunına anıqlama beriw;

● teksttegi informaciyanı, onıń temanı ashıp kórsetiw ushın áhmiyeti (baslı/ekinshi dárejeli) boyınsha bahalaw;

● teksttiń strukturalıq hám logikalıq bólimlerin anıqlaw, olardıń mazmunın túsiniw olar arasında baylanıs ornatiw.

PIRLS baǵdarlamasına boyınsha tekst penen tanısıp shıǵıw ushın oqıwdı úyreniw procesinde waqıt azlıǵın esapqa alıp, ilimiy áhmiyetke iye tekst bir márte tiykarǵı informaciyanı ólestiriw maqsetinde qabil etiledi, bul processte tómendegi kónlikpeler qalıplestedi:

● kishi kólemge iye tekstte teması boyınsha ne aytilgenin, al tolıq shıǵarmanıń mazmunı boyınsha boljay alıw;

● tekst mazmunın qurawshı tiykarǵı hám ekinshi dárejeli informaciyanı ajrata biliw;

● tekstti túsiniw ushın tayanış sózler menen gilt sózlerdi qollanıw;

● oqılǵan tekst tiykarında juwmaq shıǵarıw, ulıwmalastırıw;

● teksttiń jańalıǵı menen ajralıp turatuǵın bahalı informaciyanı belgilep qoyıw.

Sabaqta hám sabaqtan tısqarı waqıtları ótkeriletuǵın tárbiyalıq ilajlarda milliy mádeniyatımız, úrp-ádetlerimiz, ruwxıy baylıǵımız, dástúrlerimiz haqqında da túsiniqler beriwge, bular haqqında tiyisli kónlikpe hám uqıplıqların iyelewge, olardan úlgi alıwǵa úyretip barıw kerek [4].

Ulwma bilimlendiriw mektepleriniń aldında turǵan tiykarǵı másele, mektep oqıwshıların sociallıq turmısqıa tayarlaw, olardı kerekli bilim hám kommunikativlik kónlikpeler menen támiyinlew bolıp tabıladı. Usınnan kelip shıǵıp, oqıtıwshılar hám ata-analar mektep oqıwshılarınıń kommunikativlik kompetenciya qalıplesiwın shaxstıń tabıslı sociallıq belsendiligi ushın tiykar sıpatında kórip shıǵıwı zárúr.

Kommunikativlik kompetenciya qalıplesiwı kishi jastaǵı mektep oqıwshılarına ózlerin kóbirek isenimli seziwine múmkinshilik tuwdıradı. Sebebi, qarım-qatnas – bul adamlar arasındǵı óz ara baylanıs tiykarı bolıp tabıladı. Sonıń ushın, kommunikativlik kompetenciyanı qalıplestiriw bilimlendiriw tarawındaǵı birinshi dárejeli másele bolıp esaplanadı.

Kommunikativlik óz ara baylanıstıń tiykarǵı formalarınan biri sıpatında házirgi ilimiy izertlewlerde oqıwshılardıń bar bilimlerin biriktiriw menen sıpatlanatuǵın «túsiniw oqıw» túsiniǵı mazmunı ashıp kórsetilmeekte hám bul oqıwshılar arasında bir waqıttıń ózinde funciyalar, roller hám wazıypalarǵı bólistiriw arqalı olardıń bilimlerin bayıtıw esabınan birgelikte maqsetke erisiw ushın ámelge asırıladı. PIRLS baǵdarlama talapları negizinde túsiniw oqıw mektep oqıwshılarınıń mazmunlı ham nátiyjeli shaxslar aralıq óz ara baylanısı sıpatında belgili bolıp, shaxstıń sociallıq sıpatları qalıplesiwın támiynleydi. Sonıń menen birge, ulıwma maqsetke erisiw ushın barlıq qatnasıwshılar bilimlerin, olar arasında birdey waqıtta atqarılatuǵın xızmetler, tapsırma hám wazıypaların bólistiriw arqalı hár qaysısınıń bilimin bayıtıw esabınan biriktiriw, shaxslar aralıq óz ara baylanıs procesi hám nátiyjesi refleksiyaın qalıplestiredi.

Ana tili sabaǵında baslawısh klass oqıwshılarda sóylew qábiletin rawajlandırıw PIRLS baǵdarlama talaplarına tayarlap barıw ushın naqıl-maqallar hám frazeologizmler menen islew, dóretiwsilik jumsları, kishi shıǵarmalar jazdırıw jaqsı nátiyje beredi. Sóylew qábiletin rawajlandırıw ushın biz gáppler ústinde islewdi usınamız. Tapsırmalar: «İrkilis belgilerin qoyıw», «Kemis sózlerdi jazıw», «Oqılǵan teksttiń baslı pikiriń anıqlaw», «Berilgen sózler jıyınanında tema boyınsha gáp dúziw».

Muǵallimniń sabaqtaǵı awızeki hám jazba tildiń sawatlılıǵın, durıslıǵın tekseriwden basqa jáne bir tiykarǵı wazıypası – balalarda óz pikirini erkin, tolıq, logikaǵa saykes, ózleriniń individuallıǵın kórsetiwden qorıqpastan bildiriw

қабилетин қаліplestiriv bolip tabiladi. Tildi rawajlandiriv boyinsha alip barilatuḡin jumis tek sabaqlar arqali ḡana emes, al klastan tis alip barilatuḡin ilajlar («Menin shaḡaraḡim», «Ata-anam kāsibi», «Bul biytanıs tanıs sōzler» hām t.b. temadaḡi klass sabaqları) hām sabaqtan tis iskerlik arqalı da āmelge asıriladı.

Sabaqta tema ōtiw waqtında oqıw-biliw iskerligin shōlkemlestiriv hām āmelge asırıwdın sāvbetlesiw sıyaqlı metodın qollansaq boladı. Sāvbetlesiw oqıw materialın balanıñ shaxsıy tājiriyesi menen baylanistiriv mūmkinshiligin beredi. Bul proceste oqıwshılar tiyisli bilimlerin eske túsirip, onı ōtip atırḡan oqıw materialı menen baylanistradı. Māselen, «Kōzdiñ qarashıḡınday etip asırav», «Qolda bar nārseniñ qādiri joq» temalarındaḡi sāvbetlesiwler qopallıq hām ōtirikshilik ūstinen hūkim etiw tūrında ōtkeriledi.

Baslawish klass oqıwshılarında kommunikativlik kompetenciyanıñ qalıplesiwi sheshimin kútip turḡan máseleleri sheshiw uqıbin da ōz ishine aladı. Oqıwshılarga duris sāvbetlesiw, pikir alısw ushın kútilmegen jaḡdaylarga tayar turıw kerekligi úyretilip barıladı. Bunıñ ushın sōzge sheshenlik hām diskussiya alıp barıw boyınsha sabaqlar ōtiw, hār túrli minezlerge iye balalar psixologiyası ōzgesheliklerin biliw, mimika hām qol hāreketlerin túsiniw, mānisen ayırıp biliwge úyretiw kerek. Kommunikativlik kompetenciyanıñ

qalıplesiwi ushın oqıwshılarga, āsirese kishi mektep jasındaḡi oqıwshılarga kompleksli qatnas zárúr, sebebi olardıñ jasında pikirlew obrazi dúzilip, minez-qulıq principleri qalıplese baslaydı.

Baslawish klass oqıwshılarında kommunikativlik kompetenciyanıñ qalıplesiw procesi sōylew, sociallıq hām mádeniy, tillik, oqıw hām biliw aspektlerin ōz ishine aladı hām bul aspektlerden hār biri belgili bir komponentlerden ibarat boladı. Bular til biliw, grammatika, stilistikadan bilimge iye bolıwı kerek. Sonday-aq, bul ōz pikirın ashıq ayta alıw, tınlawshılar dıqqatın ōzine jāmley alıw, juwap bere alıw, basqa shaxslar menen ōz ara baylanıs, tārbiyalılıq, keñpeyillilik, ādep-ikramlılıq sabaqları hām taḡi basqalardan ibarat boladı.

Demek, kommunikativlik kompetenciyanı baslawish klass oqıwshılarında ele de rawajlandiriv ushın PIRLS xalqaralıq bahalaw talapları tiykarında jumis alıp barıwıwızdı talap etedi. Awızeki qarım-qatnasta āmelge asırılatuḡin kommunikativlik kompetenciyanıñ qalıplesiwi tekstti talqılaw qabiletleri menen de baylanisli boladı. Kompetenciyanıñ tiykarḡı túrleriniñ qalıplesiwi mektep sabaqlarında oqıtıwdıñ eñ baslı maqsetleriniñ birine aylanbaqta, sebebi bul oqıwshılarga oqıwda jetiskenliklerin kúsheytiwge, jazba sawtlılıḡın rawajlandırıwǵa hām jāmiiyette duris qarım-qatnas jasay alıw mūmkinshilikler beredi.

Adebiyatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПФ-5538-сонли Фармони, 2018 йил, 5 сентябрь.
2. Быстрова Е.А., Львова С. И. Обучение русскому языку в школе: учеб. пособ. для студ. пед. вузов. – М.: «Дрофа», 2004.
3. Литневская Е.И. Русский язык: краткий теоретический курс. «Русский язык: краткий теоретический курс для школьников». МГУ; -М.: 2000, – С. 112.
4. Mo'minova G., Jo'raev A. Sinf rahbari – sinf tarbiyaviy soatlari tashkilotchisi. –Toshkent: «O'qituvchi» 2012, 223-b.

REZYUME. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS xalqaro tadqiqotlari talablari asosida kommunikativlik kompetensiyalarini shakllantirish metodlari, darslarda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirish vazifalari bo'yicha tavsiyalar berildi.

РЕЗЮМЕ. В статье даны рекомендации по методам формирования коммуникативных компетенций учащихся начальных классов общеобразовательных школ на основе требований международного исследования PIRLS, задачам ориентации учащихся на логическое мышление на уроках.

SUMMARY. The article provides recommendations on the methods of formation of communicative competencies of primary school students in secondary schools based on the requirements of the international PIRLS study, the tasks of orientation of students to logical thinking in the classroom.

НУТҚ КАМЧИЛИГИГА ЭҒА БЎЛГАН БОЛАЛАР ИБОРАЛИ НУТҚНИ ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ

С.Ю.Шакирова – стажёр- ўқитувчи

Ажсиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: халқ эртаклари, когнитив кўникмалар, мантикий фикрлаш, диалогик нутқни, монологик нутқ.

Ключевые слова: народные сказки, когнитивные навыки, логическое мышление, диалогическая речь, монологическая речь.

Key words: folk tales, cognitive skills, logical thinking, dialogic speech, monologue speech

Глобаллашув даврида мактабгача таълим соҳасидаги муҳим вазифаларни, яъни миллий иқтисодиёт тараққиётига мос ва тараққиётни рағбатлантирувчи даражадаги таълимни ташкил этиш, таълим ташкилотлари ва таълимий хизмат истеъмолчилари ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш, педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, бола тарбиясига ижтимоий жамоатчиликни жалб этиш лозим. Айниқса, мактабгача таълим фаолиятини мониторинг қилиш, тарбиячи-педагогларнинг касбий маҳоратини ошириш, тарбияланувчилар шахсий фазилятларини таркиб топтириш, мактабгача таълимда болалар қамровини ошириш бўйича кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. “Мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, мактабгача таълим тизимиغا инновацияларни, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш” вазифалари белгиланган. Бу борада тарбияланувчилар эҳтиёжларини қондириш, қобилиятлари, ёшига хос психик хусусиятларини ривожлантириш, нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқни халқ эртаклари асосида ривожлантиришнинг турли методларини қўллаш ҳамда комплекс ривожланишини таъминлашга доир назарий-методологик асосларни такомиллаштириш, таълим сифати ва самарадорлиги уйғунлигини асословчи тизимни

яратишни тақозо этади.

Хусусан, мактабгача таълимни тубдан ривожлантиришга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ–5198-сон Фармони асосида Мактабгача таълим вазирлиги ташкил этилди. Мактабгача таълим тизими самарадорлигини оширишда “Мактабгача ёшдаги болаларнинг ҳар томонлама интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, болаларнинг сифатли мактабгача таълим билан қамровини ошириш, мактабгача таълим тизимиغا инновацияларни, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш” [1:1-3] каби вазифалар белгилаб берилган.

Бугунги глобаллашув даврида барча соҳаларда ахборотлаштириш жараёнининг тезкор суръатларда амалга ошиши мактабгача таълим мазмунини ислоҳ қилиш, қилиш инсонни тарбиялаш, уларга замонавий таълим беришга ҳам ўз таъсирини кўрсатиб, долзарб муаммо сифатида кун тартибидан ўрин олмоқда. Айнан, мактабгача таълимни ислоҳ қилишда боланинг мактабга тайёргарлиги билан белгиланувчи таълим сифатини ошириш, таълимга қўйилган замонавий талаблар, тизимдаги муаммолар ва уларни ҳал қилишда таълим турлари ва мазмунини интеграциялаш узлуксиз таълимни кластерлаштириш асосида ривожлантиришни тақозо қилмоқда.

Мактабгача ёшдаги нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш орқали болаларни интеллектуал, ахлоқий, эстетик ва жисмоний жиҳатдан ҳар томонлама ривожлантириш учун шароитларни яратиш мактабгача таълим ташкилотларида таълим-тарбия жараёнини ташкил қилишнинг мавжуд тартибини қайта қўриб чиқишни ҳамда мактабгача таълим хизматларини кўрсатишнинг замонавий усулларини жорий этишни талаб қилади. Бунинг учун, таълим-тарбия жараёнини такомиллаштириш болаларнинг ривожланганлиги даражасини ва уларнинг умумий бошланғич таълимга тайёргарлигини, шунингдек, уларнинг ижтимоий, шахсий, ҳиссий, нутқий, жисмоний ва ижодий ривожланишини баҳолаш асосида амалга оширилишда нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш лозим. Шу боис мактабгача таълим ташкилотлари фаолияти мазмунидан болалар ахлоқий, эстетик, нутқ қобилиятларини шакллантириш масалаларининг ўрин олиши мақсадга мувофиқдир.

Мактабгача таълимда нутқ камчилигига эга бўлган болаларни қўллаш орқали болаларни мактабга тайёрлашда уларнинг ўқув жараёнидаги иштироки ва фаоллигининг намён бўлиши ривожланиб боровчи ва ўзгарувчан жараёндир.

Тадқиқот жараёнида нутқ камчилигига эга бўлган болаларни қўллаш орқали мактабга тайёрлашга йўналтирилган замонавий технологиялардан фойдаланиш

Нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш механизми

Компонентлар	Шакллари	Натижа
Боладаги мавжуд билим, тажрибани умумлаштириш асосида нутққа нисбатан онгли муносабат шаклланиши	Нутқ ўстиришга қаратилган машғулотлар орқали	мулоқотчанлик (мавзунинг ҳаётийлиги, инди-видуал ёндашув, функционаллик, вазиятчилик, мулоқот муҳитининг қулайлиги);
Фикрини мустақил баён қилиш, суҳбатдошни англаш ва муносабатларда психологик эркинликнинг шаклланиши ва ривожланиши	Кундалик сўзлашувлар орқали, сахна кўринишлари, байрам тадбирларида	кийинлик даражасининг босқичма-босқич ортиб бориши;
Воқеа-ҳодисаларга нисбатан фикр билдира олишга метакогнитив қобилиятининг таркиб топиши	Катталар билан бевосита мулоқот орқали; махсус тизимли психологикпедагогик машғулотлар орқали	нутқ кўникмаларини шакллантириш босқичларининг ўзаро боғлиқлиги;
Мақсадга йўналтирилган танқидий фикрлашнинг шаклланиши	Диалогик нутқни мустақил равишда монологик нутққа айлантириш малакасининг шаклланиши жараёнларида	тарбияланувчининг тил билиш даражасини ҳисобга олиш (ижтимоий муҳит, нутқ ўстириш машғулотларида шаклланган кўникма ва малакалар)

Мактабгача ёшдаги нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини боғланиши нутқнинг шаклланиши боланинг тафаккури, фикрлаши, қизиқиши, англаши каби омиллар билан боғлиқ, унинг ақлий ва нутқий қобилиятларига қараб ҳар хил табақалашган ёндашув асосида шўғулланиш самарали бўлади. Суҳбат жараёнида бола ўзининг кундалик ҳаёти жараёнида, шахсий кузатувлари ва фаолияти натижасида олган ғояларини умумлаштиради. Тарбиячи мунтазам равишда болага ҳақиқатни тўлиқроқ ва чуқурроқ идрок этишга ёрдам бериши зарур.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш керак, нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантиришда бир шечта техноло-гиялар фойдаланилди. Тадқиқот жараёнида маълум

мақсад қилиб белгиланди. Хусусан, нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш методикасида қорақалпоқ халқ эртақлари («Аш қасқыр», «Тўлки тасбақа ҳам таскене», «Анқаў ғарры», «Шалғам» х.т.б) орқали шакллантириш имкони мавжуд. Ушбу методика орқали нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш тарбияланувчилари билан *нима учун?*, *кейин нима бўлади?* каби мантикий фикрлашга доир методлардан фойдаланилиш орқали тарбияланувчиларда мантикий ва ижодий фикрлаш компетенциясига эга бўлди. Натижада, нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш орқали болаларнинг сўз бойлиги ошади, когнитив кўникмалари шаклланади, бутун олам ҳақидаги тасаввурлари кенгайди. Бу эса, мактабгача ёшдаги нутқ камчилигига эга бўлган болаларнинг нутқни ривожлантиришнинг психологик-педагогик ва методик хусусиятларини аниқлаштириш, боғланишли нутқни ривожлантиришнинг амалий-технологик тизимини такомиллаштиришни тақозо этади.

Биз тадқиқот ишимизда нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш структураси ва компонентлари тадқиқ этилди. Қўйидаги жадвалда нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш структураси ва компонентлари кўрсатиб ўтилган. (1-схема)

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4312-сон Қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Т.: 2019, 10 май. 07/19/4312/3106-сон.
2. Ауурова М.У., Logopediya. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyot. 2007.
3. Логопедия. Педагогика олий билим юрти «Дефектология» ихтисослиги талабалари учун ўқув қулланма.1993.
4. Нутқда камчилиги бор болаларнинг психологик-педогогик дигностикаси. –Т.: 2012.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада нутқ камчилигига эга бўлган болалар иборали нутқини халқ эртақлари асосида ривожлантириш, мактабгача ёшдаги нутқ камчилигига эга бўлган болаларнинг нутқни ривожлантиришнинг психологик-педагогик ва методик хусусиятларини аниқлаштириш, боғланишли нутқни ривожлантириш механизмлари ҳақида таъкидланган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье речь идет о развитии фразеологической речи детей с дефектами речи по мотивам народных сказок, уточнении психолого-педагогических и методических особенностей речевого развития детей с дефектами речи дошкольного возраста, механизмов развития связующего момента подчеркнут.

SUMMARY. In this article we are talking about the development of phraseological speech of children with speech defects based on folk tales, clarifying the psychological, pedagogical and methodological features of the speech development of children with speech defects of preschool age, the mechanisms of development of the connecting moment emphasized.

PSIXOLOGIYA ILIMLERI

ЎЙИН ОРҚАЛИ БОЛАЛАР МОНОЛОГИК НУТҚИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

М.М.Джолымбетова – психология фанлари буйича фалсафа доктори

К.Гулмуратова – магистрант

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: мактабгача ёш даври, нутқ, монологик нутқ, ўйин фаолияти, соғломлаштириш дастури, педагогик-психологик технологиялар.

Ключевые слова: дошкольный возраст, речь, монологическая речь, игровая деятельность, оздоровительная программа, педагогико-психологические технологии.

Key words: children's age, speech, monologue speech, game activity, treatment program, pedagogical and psychological technology.

Кириш. Мактабгача ёшдаги болалар учун тузилган дастурларнинг марказида ўйин ётади. Изланишлар шуни кўрсатадики, ўйинлар кичик ёшдаги болалар ҳаётининг муҳим қисми ҳисобланади. Ўйин ва ривожланиш бир-бирининг қўлидан етаклайди, шунинг учун ҳам болалар ҳар томонлама ривожланиши учун турли хил шароитлар, уларнинг эркин ўйнашлари учун имкониятларга бой бўлиши, яъни бошқа болалар билан гуруҳ бўлиб ўйнаши, фаол ва мураккаб драматик ўйинларни талқин қилиши ва тизимли ўйинларни гуруҳ бўлиб ўйнаши учун муносиб имкониятлар яратилиши зарур.

Экспертларнинг фикрича, «Ўйин болаларнинг билиш ва ҳаракатланиш қўникмаларининг ўсиши, шунингдек, атрофимизни ўраб турган кишилар олами ва унда ўзининг ўрнини билиш учун керак. Болаларнинг ижтимоий қўникмалари ўз тенгдошлари билан ўзаро таъсир пайтида ривожлантиради, бунда улар қоида нима, бу қоидалар қандай ишлаб чиқилади ва ҳақиқат, адолат нима эканлиги тўғрисида билиб оладилар. Улар ҳамкорлик қилишни ва бир-бирлари билан ўртоқлашишни ўрганадилар. Вазифалар, топшириқлар қўйиш ва уларни муваффақиятли ҳал этиш, бошқа болалар билан биргаликда ҳаракат қилиш, шахсий, жисмоний, ақлий ва ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш чоғида уларнинг ўзига-ўзи баҳо беришлари ривожланади». Шунинг учун ҳам тарбиячилар олдидаги масъулият жуда катта.

Тарбиячи ўйинни ташкил қилар экан, ўйин ҳаракатлари турлича, қизиқарли, кўرғазма ва таркатма жиҳозлари хилма-хил, энг муҳими, бола учун сеvimли бўлишини таъминлаши лозим, бундан ташқари ўйин ҳаракатлари, шартларини бола яхши ўзлаштирган бўлиши керак ва бу ҳаракатлар бола учун қийинчилик туғдирмаслиги, унинг жисмоний зўриқишига олиб келмаслиги муҳим. Ана шундагина ўйин болалар учун завқли туюлиши, марокли ўтиши мумкин ва бола бундай ўйинларни жон-дили билан берилиб ўйнайди, бундай ўйинлар ўз-ўзидан болани ақлий фаолиятга тайёрлайди ва мантикий фикрлашни ошириб боради.

Мисол тариқасида мантикий ҳаракатли ўйинлардан бирини олиш мумкин. Бунда болалар икки гуруҳга бўлинадилар ва гуруҳ сардорини сайлайдилар. Тарбиячи болаларга ўйин қоидаcини тушунтиради, бунда сардор бориб, белгиланган доира ичига шаклнинг бир қисmini чизиб қайтади, навбатдаги бола бошқа қисmini, ўйин сўнгидида берилган намунадаги шакл чизилиши лозим, ўйинни шундай ташкил қилиш керакки, шаклнинг ҳар бир детал гуруҳдаги болаларга етарли тарзда бўлиши ва охириги бола охириги детални чизиб тугатиши лозим. Қайси гуруҳ олдинроқ чизиб тугатса, у гуруҳ ғолиб ҳисобланади ва бунда шаклнинг сифатига ҳам баҳо берилади. Ўйинга «қуён» шакли танланиши мумкин. Мана шу шаклни чизишда 2 та гуруҳда 14 та бола, яъни 7 тадан бола иштирок этади. Ўйин охирида суҳбат уюштирилади. Савол-жавоб ташкил этилиб, ана шу қуён ҳақида қисқача эртақ ёки ҳикоя тузилади. Ўйинни бошқача ташкил этиш ҳам мумкин. Масалан, «мевалар» ва сабзавотлардан

иборат таркатма расмлар орасидан гуруҳлар уларга топширилган кўрсатмага биноан «мева» ёки «сабзавот»ни топиб, «доира» ичига жойлаштириб қайтишлари лозим бўлади ва ҳар сафаргидек ҳар бир бола биттадан расм қўйиб келиши керак, бу расмларда ҳарфлар ёки сонларни ифодалаш ҳам мумкин. Бундай ўйинлар учун танлаган у ёки бу мавзу бола учун машғулотлар давомида ўрганилган, ўзлаштирилган бўлиши керак. Соғломлаштириш ойларида ҳам қўллаш мумкин бўлган, бундай мантикий ҳаракатли ўйинларни ўйнаш бола учун фақатгина ижобий самара беради ва нафакат ақлан, жисмонан, руҳан ривожланади, балки боғланишли нутқи ҳам шаклланиб боради [1:47.]

Асосий қисм. Болалик давридаги ўйинлар, уларнинг камол топишидаги аҳамияти тўғрисида кўплаб илмий мақолалар, асарлар яратилган. Чунки, ўйинлар болалик йилларида боланинг бошқа ҳар қандай ишларидан устиворлик қилади. Ҳар бир соғлом бола ўйинни бор вужуди билан ўйнайди, чунки, ўйнар экан қувонч оламида кезади. Ўйин боланинг дидини ўстиради, мантикий тафаккурини ривожлантиради, теъарак - атроф билан таништиради.

Ўйин мактабгача ёшдаги болага ривожлантирувчи таъсир кўрсатади. Ўйинлар турига кўра болаларга турлича таъсир этади. Масалан, ҳаракатли ўйинлар бола ҳаракатини мувофиқлаштиради, ҳаракат малака қўникмаларини шакллантиради, куч ва чидамлилиқни ривожлантиради. Воқеабанд ўйинлар болаларни катта ёшлар оламига кириб боришига ёрдам беради. Бундай ўйинлар болалар, ўзлари катта ёшлилар ҳаётида кўрган нарсаларини амалда мужассамлаштирадilar. Улар ҳеч бир ўйламай туриб шифокор, боғбон, ҳайдовчи, ўқитувчи, тарбиячи, ҳамширага айланиб қолишлари мумкин. Болалар катта ёшлилар меҳнати ва фаолияти соҳасидаги билимларига ижодкорлиги ва орзу ҳаёлларини қўшиб қизиқарли ўйинларни уюштиришлари мумкин. Буларга, албатта, болалар катталарга тақлид қилиш орқали эришадилар. Болаларда жамоа бўлиб ўйналадиган бундай ўйинлар ўзгалар билан мулоқотда бўлишга, ўзаро муносабатга кириш ва ўйинни белгиланган қоидаларга мувофиқ ўйнаш қўникмасини ривожлантиради.

Ўйин болага катта қувонч бахш этади, чунки ўйинда бола асл болалигини намоён қилиш, фаол ҳаракат қилиш имкониятига эга бўлади. Болага оила доирасидаги ўйинлар жуда хуш ёқади. Акалари, опалари ва умуман катта ёшдагилар билан бола бажонидил ўйнайди. Катта ёшдагилар бола воқеабанд ўйинларини бевосита ёки белвосига иштирокчилари бўлишлари мумкин.

Маълумки болалар ўйнайдиган ўйинлар турли мавзу ва воқеабанд ўйинларга эга бўлиши мумкин. Табиий мавзудаги, боланинг оз бўлсада табиат соҳасидаги билимларига асосланадиган ҳамда кишиларнинг табиатдаги у ёки бу фаолиятларини акс эттирадиган ўйинлар бола ҳаётида муҳим ўринни эгаллайди.

Агар ота-оналар, катта ёшдагилар болага табиатни бевосита кўзатиш меҳнат, бадий адабиёт, телекўрса-

тувлар, диафильмлар ва шу каби бошқа қўлланмалар орқали таништирсалар, боланинг воқеаликни бу соҳасидаги қизиқиши унинг ўйинларида албатта ўз аксини топади.

Болалар сайр пайтида баланд бинолар олдида ўтишлари мумкин. Шунда курувчилик касби, қурилишда ишлатиладиган ғишт, ганч, қум, оҳак ва бошқа қурилиш материаллари, курувчилик касби – ганчкорлик, ғишт терувчи, сувоқчи; биноларнинг баландлиги, гўзаллиги ва ҳоказолар ҳақида жумлалар тузадилар.

Гулзорлар, боғларга саёҳатлар давомида тарбиячи самолётлар, поездлар, гуллар, фавворалар ҳақида суҳбатлар уюштириши мумкин. Суҳбатларда предметларнинг ранги, туси, сони, катта-кичиклиги, тури, ўхшаш ва фарқли томонлари ҳақида ҳам машқ қилиб борилади. Шу билан бирга, “Нима ширин?”, “Нима учад?”, “Тушириб қолдирилган сўзларни топинг”, “Мен бошлайман, сен давом эт” каби машқлар ҳам грамматик жиҳатдан жумлаларни тўғри тузишга йўллайди.

Бугунги кунда машғулотларни интерфаол кўришидаги ўйинлардан фойдаланиб ўтказиш долзарб масалалардан бирига айланди.

Маълумки, “Педагогик технология” деганда ўқув-тарбия жараёнини олдиндан маълум тизимда узвий лойиҳалаш, маълум педагогик тизимнинг ҳаётда амалга оширилаётган лойиҳаси, қурилиши деган маъно тушунилади. Шу билан бирга, педагогик технология – бу педагог томонидан қўлланиладиган таълим самардорлигини оширишга хизмат қилувчи услублар йиғиндиси ҳисобланади. Педагогик технологияларни қўллашнинг бир қатор афзалликлари мавжуд бўлиб, уларга қуйидагилар киради:

- таълим самардорлигини оширади;
- бола қизиқишларини кучайтиради;
- таълим мазмунини яхши ўзлаштиришга хизмат қилади;
- мотивациянинг юқори даражада бўлишини таъминлайди;
- ўтилган машғулотни яхши ўзлаштиришга ёрдам беради;
- тарбияланувчиларнинг мустақил фикрлай олиш қобилиятини шаклланишига олиб келади [2:51.]

Шу нуктаи назардан қараганда мактабгача катта ёшдаги болаларда боғланишли нутқни ривожлантириш ҳам маълум педагогик психологик тизимнинг лойиҳасидир. Яъни, болаларда боғланишли нутқни ривожлантириш мақсади, мазмуни, тарбия методлари, шакллари ва воситалари ифодаланган бир бутун тизим технологияси ҳисобланади.

Айни муаммага оид тадқиқотлар жараёнида ҳозирги давр талаби даражасида мактабгача катта ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг бир бутун тизими, мазмуни, ўзига хос хусусиятлари аниқлаб чиқилди ҳам-

